

T. Bushuy, F.Ruzikulov

QIYOSIY TIPOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

Ma'ruzalar matni

Termiz - 2007

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Termiz davlat universiteti**

Ma'ruzalar matni (34 s.)

“QIYOSIY TIPOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI”

Term DU nemis filologiyasi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan
talabalar uchun mo'ljallangan

Ma'ruzalar matni TermDU ilmiy kengashi tomonidan 2006 yil
..... oktyabrda chop etishga ruxsat berilgan

Termiz - 2007

Mazkur ma'ruzalar matni nemis va rus tillari tipologiyasi umumiy kursi bo'yicha o'quv qo'llanma sifatida mo'ljallangan bo'lib, unda fonologik, so'z yasash, leksik, morfologik va sintaktik tipologiya masalalari yechimiga alohida e'tibor berilgan.

Ma'ruzalar matni bakalavr - filologlar uchun mo'ljallangan.

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari nomzodi dots. M. Sattorov

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi A. Alixo’jayev.
 filologiya fanlari nomzodi B. Xusanxo’jayev.

MUNDARIJA

Ma'ruza 1. Unli va undosh fonemalar.....	6
Ma'ruza 2. Nutq oqimidagi fonemalar.....	10
Ma'ruza 3. Urg'u va intonatsiya.....	14
Ma'ruza 4. So'z yasash tipologiyasi: So'z yasash vositalari va usullari.....	17
Ma'ruza 5. So'z yasash tipologiyasi: Prefiksatsiya. Suffiksatsiya. Kompozitsiya..	19
Ma'ruza 6. Nemis va rus tillari leksik tipologiyasi.....	24
Ma'ruza 7. Leksik sistema.....	
Ma'ruza 8. Morfologik tipologiya: So'z turkumlari.....	
Ma'ruza 9. Morfologik tipologiya: Ot so'z turkumi kategoriyalari.....	
Ma'ruza 10. Morfologik tipologiya: Fe'ning kategoriyalari.....	
Ma'ruza 11. Sintaktik tipologiya: Sintaktik aloqalarning turlari.....	
Ma'ruza 12. Sintaktik tipologiya: Gap.....	

Ma'ruza 1.
Unli va undosh fonemalar
Reja

1. Fonologik sath haqida ma'lumot.
2. Ingliz va rus tillari fonetik sistemalari qiyosiy tavsifi.
3. Unli va undosh fonemalar tasnifi:
 - a) unli tovushlar artikulyatsiyasi;
 - b) undosh tovushlar artikulyatsiyasi.

Fonologik sathda tipologik tadqiqot olib borilganda qiyoslanayotgan tillarning nafaqat fonemalar tarkibidagi o'xshash va farqli tomonlari, balki bu tillar fonologik sistemasining tuzilish prinsiplaridagi farqli va o'xshash tomonlari ham inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada A.A.Reformatskiy (1970, s.510) shunday yozadi: "Biz ona tili va o'rganilayotgan tillarning alohida ajratilgan tovushlarini emas, balki sistemadagi butun bir fonetik kategoriyalarni qiyoslaganimizda, har bir fonetik sistemaning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu hodisa har bir tilning asosiy xususiyatlaridan biri – idiomatik xususiyatga, ya'ni har bir tilning takrorlanmas individual sistema ekanligidan dalolat beradi. Idiomatiklik grammatikaga ham, leksikaga ham xos bo'lish bilan bir qatorda fonetikaga ham xosdir. Bu xususiyat esa har bir tilning o'ziga xos milliyligini ta'minlaydi".

Haqiqatdan ham, tilning idiomatik xususiyati fonetikada yaqqol namoyon bo'ladi.

Unli fonemalar

Ingliz tili fonetik sistemasida rus tili fonetik sistemasiga nisbatan umumiy belgilar bilan bir qatorda anchagina farqli tomonlari ham mavjud. Ingliz tili o'zining vokalizm xususiyati bilan ajralib turadi: unlilar sistemasi 21 fonemadan – 12 ta monoftong va 9 ta diftongdan tashkil topgan. Rus tili unlilar sistemasi oddiyroq: rus tilida oltita unli fonema mavjud, xolos. Ammo ushbu ko'rsatgich barcha slavyan tillariga tegishli emas. Slavyan tillari fonetik sistemasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar ular orasida vokalizm xususiyatiga ega bo'lgan til ham mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bu serb-xorvat tilidir (O.I.Dikushina, 1952).

Unli tovushlar artikulyatsiyasi murakkab jarayon bo'lib, u bir necha nutq organlarining holatiga bog'liqdir. Buning natijasi o'laroq, unli fonemalar sistemasida bir qator qarama-qarshiliklar kelib chiqadi.

Jadval 1. Tilning gorizontol holatiga ko'ra unlilar klassifikatsiyasi

Unlilar	Ingliz tili	Rus tili
Old qator unlilar	i: i e æ	и э
Orqa qator unlilar	u: o: o a: ʌ ʊ	о у
O'rta (aralash) qator unlilar	ə ɜ:	а ы

Ingliz tilida tilning gorizontol holatiga ko'ra unlilar old, orqa va o'rta qator unlilariga ajratiladi (O.I.Dikushina, 1952); tilning vertikal holatiga ko'ra pastki (ochiq), yuqori (yopiq) va o'rta ko'tarilish unlilariga ajratiladi. Bundan tashqari, ingliz tilida unlilar miqdoriy belgilar, ya'ni cho'ziqlik va qisqalik hamda turg'unligi (o'zgarmasligi) bilan ham farqlanadi: turg'un artikulyatsiyaga ega bo'lgan unlilar – monoftonglar diftonglarga qarama-qarshi qo'yiladi.

Ingliz tilida lablashgan va lablashmagan unli fonemalar unchalik rivojlanmagan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan birinchi ikki xususiyat rus tilida ham kuzatiladi. Unda old qator unlilar orqa qator unlilar bilan qarama-qarshi qo'yilgan. Aralash unlilar qatoriga keladigan bo'lsak, rus tilida hosil bo'lish usuliga ko'ra ingliz tili aralash qator unli fonemalariga yaqin turadigan o'rta qator unli fonemalari mavjud.

Jadval 2. Tilning vertikal holatiga ko'ra unlilar klassifikatsiyasi.

Unlilar	Ingliz tili	Rus tili
Yuqori ko'tarilish	i: i u: ʊ	и ы у
O'rta ko'tarilish	e ɜ: ʌ ə	э о
Pastki ko'tarilish	æ a: o o:	а

Shunday qilib, ko'tarilishlar va qatorlar sonini ham ikki til uchun qaysidir darajada universal belgilar deb hisoblash mumkin.

Rus tilida unlilarning cho‘ziqlik-qisqalik fonologik kategoriyasining yo‘qligi uning asosiy farq qiluvchi belgilaridan hisoblanadi. Unlilarda uzun yoki qisqa cho‘ziqlik hodisasi rus tilida ma’no ajratuvchi belgi hisoblanmaydi. Ingliz tilida esa bu hodisa so‘zning ma’nosini o‘zgartirib yuboradi.

Masalan: pool [pu:l] – ko‘lmak va pull [pul] – tortmoq; port [pot]- port va pot [pot] – tuvak; leave [li:v]- biror joyga ketmoq va live [liv]- yashamoq; fool [fu:l] – ahmoq va full [ful]- to‘la; cart [ka:t]- arava va cut [kʌt] – kesmoq.

Eslatib o‘tish joizki, rus tilida unli fonemaning cho‘ziqligi emfatik vosita sifatida qo‘llaniladi.

Taqqoslanayotgan tillarning yana bir farqli tomonlaridan biri rus tilida artikulyatsiyaning turg‘unligiga ko‘ra unli fonemalarni qarama-qarashi qo‘yish holati uchramaydi; boshqacha aytganda, rus tilida ingliz tilidan farqli o‘laroq, diftonglar yo‘q. Shunday qilib, ingliz tiliga xos bo‘lgan unli fonemalarning to‘rt oppozitsion tipidan rus tilida atigi ikki tipigina mavjuddir. Lekin lablashish hodisasi ko‘proq rus tili unli fonemalariga xos. Shuning uchun ular lablanganlik va lablanmaganlik oppozitsion xususiyatiga ega.

Undosh fonemalar.

Rus tili undoshlar sistemasi ingliz tili undoshlar sistemasiga qaraganda anchagina murakkabdir. Chunki unda oppozitsiyaning soni ko‘proq kuzatiladi. Ingliz tilida undosh fonemalar soni 24 tani tashkil qilib, ular jaranglilik-jarangsizlik, hosil bo‘lish usuli, hosil bo‘lish o‘rni, artikulyatsion organi, shovqin va ovozning ishtiroki kabi belgilar asosida farqlanadi.

Bundan tashqari, qattqlik va yumshoqlik xususiyatiga ko‘ra taqqoslash rus tili undoshlariga xosdir. Bunda palatilizatsiya semantik ma’no kasb etadi. Chunki so‘z o‘z tarkibida yumshoq yoki qattiq undoshga ega bo‘lishiga ko‘ra turli ma’no anglatadi. Masalan: пыл – пыль, кон-конь, трон-тронь.

Palatilizatsiyaga uchragan undoshlarning mavjudligi rus tili fonetik sistemasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Undoshlarning palatilizatsiyaga uchrashi ingliz tiliga xos emas. Ko‘rib chiqilayotgan tillarda undosh fonemalarni taqqoslashdan kelib chiqib, har bir tilda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan fonemalar mavjud ekanligini xulosa qilish mumkin. Ular quyidagilardir: ingliz tili uchun ð, θ, h, w, d, ŋ; rus tili uchun ц, x, p. Ingliz tili undoshlarining asosiy farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bu so‘z oxirida kelgan undoshning qanday talaffuz etilishidadir. Ingliz tilida so‘z oxirida kelgan jarangli undoshlar o‘zlarining jaranglilik xususiyatini yuqotmaganligi bilan rus tili jarangli undoshlaridan farq qiladi. Qiyoslang: ingliz tilida bed [bed], big [big]; rus tilida столб [столп], зуб [зуп].

So‘z oxirida kelgan jarangli undoshning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi ma’no buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan: feet [fi:t]- oyoqlar va feed [fi:d]- ovqatlantirish; neat [ni:t] – ozoda va need [ni:d] – muhtoj bo‘lmoq; dog [dog] – kuchuk va dock [dok] – dok.

Ingliz tili jarangsiz undoshlari so‘z oxirida ham o‘z xususiyatlarini yuqotmaydi. Ingliz tilidagi m, n, ŋ burun sonor tovushlari rus tilidagi м va н tovushlariga qaraganda anchagina jarangliroqdir. Ayniqsa so‘z oxirida qisqa unlidan keyin kelgan paytda, ular cho‘ziqroq talaffuz qilinadi, masalan: [roŋ:], [soŋ:], [dʌn:], [dim:]. Qisqa unlidan keyin kelgan ikkinchi jarangli undosh jaranglilikicha qoladi: [soŋ:z], [θiŋ:z], [sʌm:z], lekin зонд [зонт], ринг [ринк].

Ingliz tili undoshlarining yana bir farqli tomonlaridan biri rus tilida т, д, н, л undoshlari til orqa-tish holatida talaffuz etilsa, ingliz tilida m, d, n, l undoshlari tanglay oldi holatida talaffuz etilishidadir. Shunday qilib, taqqoslanayotgan tillarning undosh fonemalar sistemasi o‘rtasida universal belgilarga nisbatan ko‘proq farqli belgilarga ega ekanliklarini ko‘ramiz.

Tayanch so‘z va iboralar

Fonetik kategoriyalar, idiomatiklik, fonetik sistema, artikulyatsiya, vokalizm, tilning vertikal holati, tilning gorizontol holati, monoftong, diftong, cho‘ziqlik, qisqalik, lablashgan va lablashmagan unlilar, jaranglilik, jarangsizlik.

Savollar

1. Ingliz va rus tillaridagi unli fonemalarni aytib bering.
2. Ko‘rsatilgan tillarda unli fonemalarni tasniflash printsiplarini taqqoslaymiz
3. Ingliz tilida nechta qisqa unli mavjud?
4. Rus tiliga qaraganda ingliz tilida urg‘usiz o‘rinda unli tovushlar talaffuzining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

5. Taqqoslanayotgan tillarda konsonantlar (undoshlar) sistamasida eng umumiy va farqli belgilari qaysilar?

Ma'ruza 2

Nutqdagi fonemalar

Reja

1. Nutqdagi tovushlar.
2. Akkomodatsiya.
3. Assimilyatsiya.
4. Bo'g'inning mohiyati.
5. Bo'g'in yasovchi unli fonemalar.
6. Bo'g'inning tuzilishi.

Nutqda tovushlar bir-biriga ta'sir etib, artikulyatsiyada turli xil o'zgarishlar keltirib chiqaradi. Har bir tilda ushbu turdagi o'zgarishlarni amalga oshiradigan o'z qonunlari mavjud. Ulardan asosiylari akkomodatsiya (fonetik adaptatsiya) va assimilyatsiya (fonetik o'xshatish) jarayonlarida amalga oshadi.

Akkomodatsiya unli va undoshlar o'rtasida sodir bo'lib, yonma-yon kelgan tovushlar artikulyatsiyasining qisman moslashuvi bilan belgilanadi. Hozirgi rus tili, masalan, unilarning yuqori darajada adaptatsiyalanish xususiyatiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi (Taqqoslaymiz: мал-мьял, рад-ряд, лук-люк, мил-мыл). Ingliz tili uchun esa adaptatsiyalanish xususiyati unchalik xos bo'lmaganligi sababli o'quvchilar ko'pincha uni payqamaydilar. Masalan, [l]dan oldin kelgan [e]ning ancha ochiq talaffuz qilinishi – [fel], [j]dan oldin kelgan [u:]ning talaffuzi – [nju:] sezilmaydi va hokazo.

Assimilyatsiya ikkita unli yoki ikkita undosh o'rtasida sodir bo'ladi. Assimilyatsiya to'liq yoki qisman, regressiv yoki progressiv bo'lishi mumkin. Assimilyatsiya hamma tillarga xos bo'lsada, har bir tilda turlicha amalga oshiriladi. Qiyoslanayotgan tillarda assimilyatsiya ko'proq undoshlar o'rtasida sodir bo'ladi.

Ingliz tilida assimilyatsiyaning ikki turi ham faoldir: progressiv assimilyatsiya - what's this [wɒts ðɪs], va regressiv assimilyatsiya – newspaper [nju:sp'eɪpə]. Aytish joizki, undoshlarning progressiv assimilyatsiyasi ko'proq uchraydi.

Rus tilida esa, aksincha, regressiv assimilyatsiya ko'p kuzatiladi. Ayniqsa undoshlarning jaranglilik va jarangsizlik xususiyatlariga ko'ra assimilyatsiya keng tarqalgan. Masalan: rus. сдал [здал], под стулом [пат стульм], ложка [лошкѣ]. Ingliz tilida o'xshash assimilyatsiya uchramaydi: a big table so'z birikmasini [ə big teɪbl] tarzida talaffuz qilamiz. Lekin ingliz tilida rus tilidagi singari so'zlar birikkanda [s-ʃ] va [z-ʃ] tovushlari ketma-ket kelsa, regressiv assimilyatsiya sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida does she iborasi [dʌʃi] tarzida talaffuz qilinadi. Bundan tashqari, rus tilida undoshlarning palatizatsiyalanishi bilan bog'liq bo'lgan assimilyativ o'zgarishlar sodir bo'ladi: rus. гвозди [гвоз'ди], зонтик [зон'тик].

Shunday qilib, o'rganilayotgan va ona tillar nutqida tovushlarning tabiatida sezilarli darajada tafovutlar kuzatiladi. Ingliz tili talaffuziga o'rgatishda bunday o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Bo'g'inning tuzilishi

Bo'g'inning mohiyati va chegarasi kabi masalalar fonetikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bo'g'in odatda ikki jihatdan farqlanadi: fiziologik va akustik. Fiziologik jihatdan bo'g'in tashqariga ma'lum bir kuch bilan chiqarilayotgan havo yordamida talaffuz qilinadigan bir yoki bir necha tovushdan iboratdir. Akustik jihatdan esa bir tovush boshqa tovushlarga nisbatan o'zining jaranglilik bilan ajralib turadi.

Odatda unli fonemalar monoftonglar ham diftonglar ham bo'g'in yasaydi. Rus tilida bo'g'in, asosan, unli fonemalarsiz mavjud bo'lmaydi. Lekin ingliz tilida bo'g'in yasashning farqli tomoni shundaki, unilardan tashqari l, n, ba'zi holatlarda m o'zining oldidan kelgan undosh bilan bo'g'in yasashi mumkin. Masalan: table [teɪ-bl], garden [ga:dn], rhythm [ri-ðm], curtain [kɜ:-tn] va hokazo. Rus tilida so'z oxirida kelgan bo'g'in tarkibida ikki undosh qo'llanilishi mumkin. (rus. Воль, песнь, жизнь). Lekin undosh bo'g'in yasovchi hisoblanmaydi.

O'z tuzilishiga ko'ra bo'g'inlar ochiq (bo'g'in hosil qiluvchi tovush bilan tugaydigan) va yopiq (bo'g'in hosil qilmaydigan tovush bilan tugaydigan) bo'g'inlarga ajratiladi: кни-га, де-ре-во, там, бан-тик.

Shu narsani esda tutish kerakki, ingliz tilidagi cho‘ziq monoftong va diftonglar yopiq bo‘g‘inda ham ochiq bo‘g‘inda ham uchraydi: be [bi:], beat [bi:t], may [mei], mine [main]. Qisqa unlilar esa, ba‘zi birlaridan tashqari, faqat yopiq bo‘g‘inlarda keladi: lot [lot], book [buk], cup [kʌp].

Yopiq bo‘g‘in ko‘proq ingliz tili uchun xarakterlidir. Amalga oshirilgan statistik tahlil taqqoslanayotgan tillarda ochiq va yopiq bo‘g‘inlar nisbati haqida aniq xulosa qilishga imkon beradi.

Material yig‘ish (hozirgi ingliz va rus yozuvchilarining asarlaridan 2000 tadan so‘z olindi) uzluksiz, yalpi tanlash metodi asosida olib borildi (yuklamalar, predloglar, bog‘lovchilar, artikllar hisobga olinmadi). Ochiq va yopiq bo‘g‘inlarning o‘rtacha ishlatilish chastotasini aniqlab, ingliz tilida ochiq bo‘g‘in 63%, yopiq bo‘g‘in 37 %ni tashkil etishi aniqlandi. Rus va ukrain tillarida esa teskari holat kuzatildi: ochiq bo‘g‘inlar 66 va 73 %ni, yopiq bo‘g‘inlar esa 34 va 27 % ni tashkil qildi.

Olingan so‘z formalaridagi bo‘g‘inlar sonini sanash taqqoslanayotgan tillarda qanaqa bo‘g‘in tuplari mavjudligi haqidagi savolga javob berishga imkon yaratdi. Ingliz tili ko‘proq bir bo‘g‘inli so‘zlardan tashkil topganligi aniqlandi. Ingliz tilida har bir 100 ta so‘zga 56 ta bir bo‘g‘inli so‘z to‘g‘ri kelsa, rus tilida esa ularning soni 10 taga to‘g‘ri keladi..Taqqoslashda qulaylik yaratish uchun bir, ikki, uch, to‘rt, besh va undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarning tillarda o‘rtacha ishlatilish chastotasi jadvalini keltiramiz.

Jadval 3. Bo‘g‘in turlariga ajratish

Tillar	Bo‘g‘inlar soni					
	1	2	3	4	5	6
Ingliz tili	55,6	30,1	11,0	2,7	0,6	-
Rus tili	10,1	38,0	29,5	15	5,7	1,7

Shunday qilib, aytish mumkinki, ingliz tilida yopiq bo‘g‘inlarning katta salmoqqa ega ekanligi unda bir bo‘g‘inli so‘zlarning ko‘pligidandir. Rus tilida esa bu aksincha bo‘lib, ikki va uch bo‘g‘inli so‘zlar sonining ko‘pligi unda ochiq bo‘g‘inli so‘zlar sonining ko‘pligi bilan izohlanadi. Qiyoslanayotgan tillarda bo‘g‘inlar xarakteri bilan so‘zlarning uzunligi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligi kuzatiladi.

Tipologik nuqtai nazardan bo‘g‘inga ajratish usullarini taqqoslash ham katta qiziqish uyg‘otadi. Odatda bo‘g‘inga ajratilganda bo‘g‘in chegarasida undosh harf turadi: ingl. later [lei-tɔ]; rus. по-го-да. Bo‘g‘inga ajratishda so‘zning orfografik ko‘rinishini emas, balki uning aniq zarb bilan aytilishini ham hisobga olishimiz kerak. Rus tili uchun bo‘g‘inga ajratishning asosiy qonunlaridan biri – bu ko‘tariluvchi ohang bilan aytilish qonunidir. Ya‘ni, bo‘g‘indagi tovushlar kuchsiz zarb bilan aytiluvchilardan kuchli zarb bilan aytiluvchilarga qarab joylashadi. Masalan: rus: па-трон, ма-сло, ка-па, вой-на.

Ingliz tilida esa so‘zlarni bo‘g‘inga ajratishda unlilarning cho‘ziqlik va qisqaligi bilan bog‘liq boshqacha vaziyat kuzatiladi. Bo‘g‘inning fonetik chegarasi cho‘ziq unlidan keyinga o‘tib, undan keyin kelgan undosh yangi bo‘g‘in hosil qiladi. Agar unli qisqa bo‘lsa, u holda undosh ushbu unliga qo‘shilib keladi. Taqqoslaymiz: farmer [fa:-mɔ], water [wo:-tɔ], ruby [ru:-bi], boozy [bu:-zi], naughty [no:-ti], forty [fo:ti], lekin funny [fʌn-i], body [bod-i], busy [biz-i], city [sit-i], money [mʌn-i], letter [let-ɔ]. Yuqoridagi birinchi holatda avval ochiq bo‘g‘in, keyin esa yopiq bo‘g‘in yasalyapti.

Rus tilida bunday holatlarda ochiq bo‘g‘in keladi: rus. во-да, си-то, ре-ка, мя-та.

Rus tilida bo‘g‘in chegarasi unlidan keyin, undoshdan oldin o‘tadi. Ushbu hodisa taqqoslanayotgan tillarda bo‘g‘in tuzilishidagi asosiy farqlar hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

Akkomodatsiya, assimilyatsiya, progressiv assimilyatsiya, regressiv assimilyatsiya, bo‘g‘in, bo‘g‘inning tuzilishi, tovushning balandligi.

Savol va topshiriqlar

1. Palatalizatsiya nima?
2. Assimilyatsiya nima? Ikki tilda assimilyatsiya hodisasini taqqoslaymiz.
3. Ingliz va rus tillarida bo‘g‘inlar tuzilishi va bo‘g‘inlarga ajratish yo‘llarini taqqoslaymiz.
4. Bo‘g‘inlar necha turga ajraladi?
5. Taqqoslanayotgan tillarda bo‘g‘in turlari va so‘zlar uzunligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa darajasini miqdor jihatdan aniqlang.

Ma'ruza 3

Urg'u va intonatsiya

Reja

1. Urg'u va uning turlari.
2. Ingliz tili so'z urg'usining rus tili so'z urg'usidan farqi.
3. Erkin va muqim urg'u.
4. Gap urg'usi.
5. Urg'uning ma'no ajratishda ahamiyati.
6. Intonatsiya
7. Intonatsiyaning funksiyalari.

So'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishi yoki ma'lum bir butun so'z birikmasining gapda ma'no yadrosi sifatida kuchliroq aytilishi urg'udir.

Ko'pgina tillarning fonetikasida keng tarqalgan urg'u - bu dinamik urg'udir. U rus tiliga ham, ingliz tiliga ham xos. Bu tillarda urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'inga nisbatan kuchliroq aytiladi. Rus tilida unlining cho'ziq yoki qisqa bo'lishi urg'uga bog'liq bo'ladi. Bunday xususiyat ingliz tiliga xos emas. Ingliz tilida cho'ziq unlilar urg'u tushgan yoki tushmaganligidan qat'iy nazar qisqa unlilarga qarama-qarshi qo'yiladi (lekin urg'uli bo'g'inda unli biroz cho'ziqroq bo'ladi). Tovush sifatining urg'u tushganda o'zgarishi borasida shuni aytish kerakki, ko'pgina hollarda ular urg'usiz vaziyatda reduktsiyaga uchrab, unlilar sifatining o'zgarishi yuzaga keladi. Lekin unlilar o'zlarining sifatini saqlab qolgan holatlari ham mavjud, masalan: import ['impɔ:t], transport ['trænsɒ:t], increase ['inkri:s], blackboard ['blækbo:d], meadow ['medov].

Rus tilida unlilar urg'usiz holatlarda kuchli reduktsiyaga uchraydi: вода [вда], водовоз [вдвос], несут [н'исут], красота [кръсата], постановили [пъстънав'ил'и].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ingliz tili so'z urg'usi rus tili so'z urg'usidan urg'usiz unlilar xarakteri bilan farq qilyapti. Ingliz tilida so'zda ikki urg'uli bo'g'inlarning ko'pligi urg'uning yana bir farq qiluvchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi: ice-cream ['ais'kri:m], prewar ['pri:wo], nevermore ['nevə'mo:], new-born ['nju: 'bo:n], hamda negotiation [nigouli'eijn], demonstration [demən'strei:n], peculiarity [pi'kju:li'æriti] va hokazo. Bunday holatlar rus tilida juda kamdan-kam uchraydi.

So'z urg'usi erkin (har joyda) yoki bog'liq (muqim) bo'lishi mumkin. Erkin urg'uli tillarda urg'u so'zning istagan bo'g'iniga va turli morfologik unsurlariga tushishi mumkin. Rus tili ham, ingliz tili ham erkin urg'uli tillardir. Muqim urg'u polyak tiliga (oxiridan oldingi bo'g'in) chex tiliga (birinchi bo'g'inda) arman tiliga (oxirgi bo'g'inda) xos.

Hozirgi zamon rus va ingliz tillarida urg'u istagan bo'g'inga, yani so'z boshidagi, o'rtasidagi va oxiridagi bo'g'inga tushishi mumkin. Masalan: ingliz. 'evening, in'vestigate, de'fy; rus.дéвочка, делáми, молóкó. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida urg'uning tushish o'rniga nisbatan ba'zi qonunlar saqlanib qolgan: ko'pgina hollarda ildizning birinchi bo'g'iniga urg'uning tushish prinsipi, ya'ni qadimgi ingliz tili (aniqrog'i umumgerman) prinsipi saqlanib qolgan ('mother, 'husband, 'children, 'prison); ma'lum bir suffiks va prefekslarning mavjudligi so'z urg'usining o'zgarishiga olib keladi (be'gin, o'ccasion, sta'bility, senti'mental) (V.A.Vasilyev, 1962, 123-129 b.).

Taqqoslanayotgan tillarda urg'u ko'chishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir so'zning turli grammatik shakllarini yasashda so'zning bir qismidan ikkinchi bir qismiga ko'chishi mumkin. Demak, bunday vaziyatlarda urg'u fonologik vazifani bajaradi. Ingliz tilida urg'u ot va fe'lni farqlash uchun xizmat qiladi.

'object – to ob'ject

'contrast – to con'trast

'conduct – to con'duct

'increase – to in'crease

Rus tilidagi so'zlarda urg'uning ko'chishi natijasida so'zlarning grammatik ma'nosi o'zgarishi mumkin: воды – водý, рýки – руки, дóма – домá. Ba'zi so'zlar urg'uning tushish o'rniga ko'ra o'zining leksik ma'nosini o'zgartiradi: зáмок – замóк, гвóздики – гвоздики.

Shunday qilib, taqqoslanayotgan tillarda so'z urg'usi erkin bo'lishi bilan bir qatorda bir qancha o'xshash xususiyatlarga ega ekanligini ko'ramiz.

Gap urg'usi ham so'z urg'usi kabi har bir tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Rus tilidagi gapda barcha so'zlarga urg'u tushishi mumkin. Lekin gapda urg'u tushmaydigan predlog, bog'lovchi va mustaqil so'zlarning old tomondan birikadigan so'zlar (proklitiklar) yoki so'zlarning orqa

tomonidan birikadiggan soʻzlar (enklitiklar) bu qatorga kirmaydi. Misol tariqasida quyidagi gapni olamiz: Мы работаем в читальном зале каждый день. Bu gapda **в** predlogidan tashqari hamma soʻzlar urgʻulidir. Ingliz tilida barcha soʻzlarning urgʻuli boʻlishi gapda mustasno sifatida uchrashi mumkin. Urgʻu yordamida ingliz tilida soʻzlar emas, balki soʻz guruhlari ajratilib, ular oʻzlarining enklitik va proklitiklari bilan kelgan mustaqil soʻzlardan tashkil topadi. Masalan, Our 'work had been 'done in time gapida faqat mustaqil maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarga sintagma ichida urgʻuli boʻlib, koʻmakchi, feʼl, egalik olmoshi va predlog urgʻusiz kelyapti. Bundan tashqari ingliz tilida artikl, bogʻlovchi, bogʻlovchi feʼl hamda koʻpchilik olmoshlar urgʻusiz boʻladi. Ingliz tili ritmikasi sintagmaning urgʻuli boʻgʻinlari bilan bogʻliq boʻlib, ularning oʻrtasida mavjud boʻlgan vaqt maʼlum darajada muntazam holatda boʻladi (stress-timed rhythm deb ataluvchi holat). Rus tilining ritmik strukturasi esa soʻzlarning aktsentuatsiyasi (urgʻular sistemasi) bilan bogʻliq emas, balki boʻgʻinlarning choʻziqligiga asoslanadi (syllable-timed rhythm).

Soʻz maʼnosining shaklanishida urgʻu muhim ahamiyatga ega. Soʻzning urgʻuli yoki urgʻusiz aytilishi jumla maʼnosini oʻzgartirib yuborishi mumkin. Maʼno jihatdan muhim sanalgan soʻzni alohida ajratib koʻrsatish logik (mantiqiy) urgʻu deyiladi. Logik urgʻu gapdagi istalgan soʻzga tushishi mumkin. Logik urgʻu hamma tillarga xos hodisadir.

Intonatsiya (melodika) ham maʼno oʻzgartirish xususiyatiga ega. Intonatsiya – bu jumla talaffuz etilganda intonatsion ohangning balandligi modulyatsiyasidir (oʻzgarishidir). “Modomiki tildan foydalanish erkinligi nihoyatda chegaralangan ekan, melodiya tabiati va mazmuni bilan maʼlum bir darajada tildan-tilga koʻchadigan hodisalar qatoriga kirmaydi” (A.Martine,1963, c.433) Har holda har bir tilda har qanday gap turi oʻziga xos intonatsiya bilan aytiladi. Sintagmaning birinchi urgʻuli boʻgʻindan oxirgi boʻgʻinga qarab ohangning pasayish holati ingliz tili uchun xos boʻlsa, rus tili oʻzgarib turuvchi intonatsion strukturasi bilan ajralib turadi.

Intonatsiya nutqda turli funktsiyalarni bajaradi. Ularning eng asosiylaridan biri – uning sintaktik funktsiyasidir. Bir xil sintaktik strukturaga ega boʻlgan jumla oʻzining melodik xususiyatiga koʻra turli maʼnolarni anglatishi mumkin. Masalan: Он не пришёл. Он не пришёл? Он не пришёл!

Bundan tashqari nutqning emotsional rang-barangligi ham intonatsiyaga bogʻliqdir. Sintaktik melodika singari emotsional melodika ham turli tillarda oʻziga xos hususiyatlarga ega boʻlishi mumkin. “Gap melodikasi ham oʻzining sintaktik, morfologik va boshqa xususiyatlari bilan bir qatorda boshqa bir necha tillar bilan taqqoslaymizanda hisobga olinishi kerak boʻlgan belgilar majmuiga kiradi. Intonatsiyaga qarab soʻzni eshitmagan holda qaysi tilda gapirayotganliklarini aniqlash mumkin” (M .I.Matusevich,1948, c.76)

Rus va ingliz tillari fonologik sistemasini taqqoslashga qisqacha xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadqiq qilinayotgan tillarning turli genetik guruhlariga tegishli boʻlishiga qaramay ularda anchagina tipologik oʻxshash xususiyatlar borligi maʼlum boʻldi.

Tayanch soʻz va iboralar

soʻz urgʻusi, gap urgʻusi, intonatsiya, urgʻuli boʻgʻin, urgʻusiz boʻgʻin, erkin urgʻu, muqim urgʻu, proklitika, enklitika.

Savol va topshiriqlar

1. Taqqoslanayotgan tillarda soʻz urgʻusining ifodalanishida qanaqa umumiy va farqli belgilar bor?
2. Nima uchun taqqoslanayotgan tillarda urgʻu oʻzgaruvchan hisoblanadi?
3. Ingliz va rus tillarida nutqning intonatsion strukturasi qiyoslang.

Ingliz va rus tillari fonologik tipologiyasi boʻyicha adabiyotlar

1. Аванесов Р.И. Фонетика современного русского литературного языка. –М., 1956.
2. Аванесов Р.И. Ударение в современном русском литературном языке. –М., 1955.
3. Аракин В.Д. Сравнительная типология родного и иностранного языка. – В кн.: Всесоюзный семинар по вопросам методики преподавания новых дисциплин. Тезисы докладов. - Ташкент, 1973.
4. Булаховский Л.А. Курс русского литературного языка, т. 1. – Киев, 1952.
5. Валгина Н.С. и др. Современный русский язык. – М., 1971.
6. Васильев В.А. и др. Фонетика английского языка. – Л., 1962.
7. Витомская В.Н. Основы английской фонетики. – М., 1948.
8. Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М., 1973.

9. Дикушина О.И. Фонетика английского языка. – М., 1965.
10. Ломтев Т.П. Фонология современного русского языка. – М., 1965.
11. Мартине А. Основы общей лингвистики. – В сб.: Новое в лингвистике.- Вып. III. – М., 1963.
12. Матусевич М.И. Введение в общую фонетику. –Л., 1948.
13. Реформатский А.А. Введение в языкознание. –М., 1967.
14. Реформатский А.А Из истории отечественной фонологии. –М., 1970.
15. Торсуев Т.П. Разновидности типологии языков и показатели фонетической и фонологической типологии. – В кн.: Структурно-типологическое описание современных германских языков. –М., 1966.

Ma'ruza 4

So'z yasash tipologiyasi: So'z yasash usullari va vositalari

Reja

1. So'z yasash nazariyasi.
2. So'z hosil qilish usullari va vositalarini qiyosiy o'rganish.
3. So'z hosil qilishda asosiy usullar.

Til haqidagi fanlar sistemasida so'z yasalishi nazariyasining o'rni masalasi uzoq vaqtlardan beri barcha tilshunoslar uchun bahsli munoza manbai bo'lib kelmoqda. So'z yasalishi tilshunoslar tomonidan goh morfologiya sohasiga, goh leksikologiya sohasiga kiritilib kelgan.

Tilshunoslikda so'z yasalishining o'rni haqida V.V.Vinogradov tomonidan aytilgan fikr ibratlidir. Unga ko'ra, so'z yasalishi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u leksikologiya - tilning lug'at tarkibi haqidagi fan bilan, o'z o'rnida grammatika bilan yaqinlashar ekan - shakl yasash ta'limoti hamda so'z birikmasi sintaksisi bilan ham bo'g'liqdir. Bunday nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlovchilar soni kun sayin ortib bormoqda.

Hozirgi paytda so'z yasalishi nazariyasini mustaqil fan sifatida rasmiylashtirish jarayoni bu sohadagi ba'zi tushunchalarga yangicha yondashish, ba'zi so'z yasovchi vositalarni uzil-kesil tasdiqlash va ushbu sohaga tegishli tahlil metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Har bir tilda so'z yasashning usullari va vositalariga etarlicha e'tibor qaratilsa-da, mazkur masalani qiyosiy o'rganish nisbatan kam ishlangan. Hatto yaxshi o'rganilgan tillarda ham so'z yasovchi vositalar atroflicha o'z ifodasini topmagan. Bundan tashqari, bu sohada qilingan ishlar turli tadqiqot metodlarini qo'llash orqali, har xil maqsadni ko'zlagan va o'rganilayotgan hodisaga turlicha yondashgan holda amalga oshirilganligi ma'lum tillar guruhi uchun tadqiqot natijalarini qiyoslash imkoniyatini qiyinlashtiradi yoki umuman iloji bo'lmaydi. Tipologik tahlil muammolari, asosan, turli tillarning morfologik xususiyatlarini tadqiq etishda vujudga keladi. Til strukturasi boshqa tomonlari bu nuqtai nazardan nisbatan kam o'rganilgan. Masalan, leksika va semantika sohasida universal hodisalar tadqiqi birinchi bosqichda turibdi. "Konkret leksik tarkibning mavjud bo'lishiga qaramay, bir necha tillar guruhiga xos bo'lgan umumiy leksik-semantik modellar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash kerak. Agar mavjud bo'lsa, ularning qonuniyatlari va xususiyatlariga oidlik kiritish kerak bo'ladi" (M.M.Маковский, 1969, c.24). Tipologik tadqiqotning asosiy vazifasi - har bir alohida olingan til sistemasi uchun umumiy bo'lgan modellar munosabatini o'rnatishdan iboratdir.

So'z yasalishini ko'rib chiqish davomida, bu sohada tillarning tipologik o'xshashligi yaqqol ko'zga tashlanganidek, ularning farqlari ham shunchalik aniq-ravshan ko'rinib turishining guvohi bo'lish mumkin. Bu fikrning tasdig'i sifatida beshta slavyan tillari ustida (V.A.Nikonov 1962, c. 103-116) va uchta german tillari ustida olib borilgan (V.V.Gurevich 1970) tadqiqot natijalarini keltirish mumkin.

Ingliz va rus tillari hind-ovrupa tillariga mansub bo'lganliklari uchun ularning so'z yasashda ko'pgina o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi tabiiydir. Ammo shu bilan birga, yuqorida aytilgan tillarning alohida so'z yasovchi vositalar o'rtasidagi munosabatlarning turli xususiyatlarga egaligi, o'ziga xos so'z yasash usullari mavjudligi hamda har bir tilda so'z yasashning u yoki bu usullarining mahsuldorligi darajasi bilan namoyon bo'ladigan individualligi bilan ajralib turadi.

So'z yasashda asosan morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-semantik va leksik-sintaktik usullar mavjud. Hozirgi zamon ingliz va rus tillari leksikasini boyituvchi eng mahsuldor usullardan biri - bu so'z yasashning morfologik usulidir. Bu usul affikslar va so'z qo'shish yordamida hamda affikslarsiz so'z yasash orqali amalga oshiriladi. Affikslarsiz so'z yasashda tovushlar almashinuvi va so'z yasash vositasi sifatida urg'uni ko'chirish orqali amalga oshiriladi. Lekin so'z yasashning bu usuli ko'p tarqalmagan. U ayniqsa fe'llardan va sifatlardan ot yasashda ko'proq kuzatiladi. Masalan: рус. свистеть - свист, звать - зов, глухой-глушь, тихий - тишь; ингл. to lose-loss, to bleed-blood, to live-life, to ob'ject-object, to pre'sent-present.

Affikslarsiz so'z yasash usuliga ingliz tilida keng tarqalgan konversiyani, ya'ni berilgan o'zakni so'z o'zgartirishning boshqa paradigmasiga ko'chirish orqali so'z yasash usulini kiritish mumkin. Bunda yangi so'zning sintaktik birikuvi o'zgargani sababli konversiya so'z yasashning morfologik-sintaktik usulini taqozo etadi. Konversiya yo'li bilan yasalgan so'zlarning ko'pchiligini fe'llar tashkil qiladi: chair - to chair, light - to light, free - to free, wet - to wet, down - to down va hokazo. Yuqorida keltirilgan misollardan fe'llar turli so'z

turkumlaridan, ya'ni otlardan, sifatlardan va ravishlardan yasalishi mumkinligi ko'rinib turibdi. Konversiya yordamida boshqa so'z turkumlari, masalan, ot yasalishi mumkin: to run – run, to work – work, native – a native va hokazo. Konversiya hodisasi ingliz tilini rus tilidan ajratib turadigan uning xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan tillarda affiksasiya va so'z qo'shish so'z yasashda eng universal vositalar hisoblanadi. Affiksasiya – bu o'zakka u yoki bu so'z yasovchi vositalarni qo'shish orqali so'z yasashdir. Affikslar yordamida so'z yasashning uch turi mavjud: suffikslar yordamida, prefikslar yordamida va suffiks-prefikslar yordamida.

Tayanch so'z va iboralar

So'z yasash, so'z hosil qilishda asosiy usullar va vositalar, konversiya

Savol va topshiriqlar

1. So'z yasash deb nimaga aytiladi?
2. So'z yasash borasida V.V.Vinogradov qanday fikrlarni olg'a suradi?
3. So'z yasashda, asosan, qanday usullar mavjud?
4. Konversiya nima?
5. Konversiya nima uchun so'z yasashning leksik-morfologik usuliga kiritiladi?

Ma'ruza 5

So'z yasash tipologiyasi: Prefiksatsiya. Suffiksatsiya. Kompozitsiya.

Reja

1. Prefiksatsiya mohiyati.
2. Prefikslarning semantik xususiyatlari.
3. Prefikslar yordamida ot va fe'llarning yasalishi.
4. Suffiksatsiya-prefiksatsiya so'z yasash usuli.
5. Qo'shma so'zlar tuzilishini qiyoshlash.
6. Qo'shma so'zlar sistemasi umumiy tavsifi.

Prefiksatsiya

Prefiksatsiyada suffiksatsiyadek o'zakka qo'shish orqali emas, balki so'z yasashda prefiks butun bir so'zga qo'shish orqali yangi so'z yasaladi. Prefikslar yordamida bir xil so'z turkumiga taalluqli bo'lgan yangi so'zlar yasaladi: otlardan otlar (ученик-соученик), fe'llardan fe'llar (готовить - приготовить) yasaladi va hokazo.

Agar suffiksatsiya ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'zlarni yasashga xos bo'lsa, prefiksatsiya ingliz tilida ham, rus tilida ham fe'llarni yasashda mahsulдор vosita hisoblanadi. Prefiks yordamida yasalgan otlar va sifatlar soni juda kam.

Semantik belgisiga ko'ra prefikslarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Inkori va qarama-qarshilik ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan prefikslar soni jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Ulardan keyin soni jihatdan zamon va makon munosabatlarini hamda ish-harakatning takrorlanishini ifodalovchi prefikslar turadi.

Har bir til o'z prefikslariga hamda boshqa tildan o'zlashtirgan prefikslariga ega. Kirib kelgan prefikslarning bir qismi (roman va grek tillariga tegishli bo'lgan) baynalminal xarakterlidir. Shuning uchun ular ham rus tilida, ham ingliz tilida o'z aksini topgan. Bular quyidagi ot yasovchi prefikslarlardir: anti – (anticyclone, антифашист), ultra – (ultramodern, ультрафиолетовый), a – (anomalous, аморальный), inter – (international, интерполяция) va hokazo.

Ingliz tilidagi ko'pgina ot yasovchi prefikslar leksik jihatdan rus tilidagi prefikslarga mos keladi: in-, un-, не – (unpleasant - неприятный), pre-, до- (prehistoric - доисторический), sub-, под- (subdivision - подразделение), past-, после- (postwar - послевоенный), counter-, против- (counterbalance - противовес).

Fe'l prefikslari sistemasi har bir tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida fe'l yasovchi mahsulдор prefikslarga quyidagilarni kiritish mumkin: de- (deform, detune), dis- (dislike, disapprove), un- (unfasten, unfold), mis – (mistrust, misjudge), re- (rewrite, re-elect), up- (uplift, uprise), under – (underline, underrate), over- (overcloud, overdo) va hokazo.

Prefikslar yordamida fe'l yasash nafaqat ingliz tilida mahsuldor bo'lmay, u rus tilida ham mahsuldor hisoblanadi. Ammo rus tilining farqli tomoni shundan iboratki, prefikslar yordamida biror old qo'shimcha ishlatilmagan fe'ldan leksik ma'nosida qo'shimcha ma'no o'ttenkasi paydo bo'ladigan yangi fe'l (ko'pincha bir qator fe'llar) yasash mumkin. Masalan: рус. бежать – вбежать, взбежать, выбежать, добежать, забежать, отбежать, перебежать, побежать, прибежать пробежать, сбежать, убежать.

Umuman olganda, rus tilida prefiksatsiya so'z yasash vositasi singari suffiksatsiyadek ingliz tilidan shaklining turli-tumanligi va ko'pligi bilan farq qiladi.

Suffiksatsiya-prefiksatsiya.

So'z yasashning bu turi o'zak-negizga bir vaqtning o'zida ham prefiks, ham suffiks qo'shish orqali yangi so'z yasaydi. Fe'llardan fe'llar yasaladi, otlardan otlar va boshqa so'z turkumlari yasaladi (петь-подпевать, работа-безработица, дом-бездомный).

Kuzatishlar so'z yasashning prefiksatsiya-suffiksatsiya usuli rus tilida mahsuldor ekanligini ko'rsatdi. U ot va sifatlarni yasashda ko'proq ishlatiladi (рус. бесстрашие, безумство, огарок, обноски, переулоч, безводный, заграничный, настольный, надстрочный, приморский).

Ingliz tili so'z yasash sistemasida prefiksatsiya-suffiksatsiya usuli unchalik ko'p ishlatilmaydi (superannuation, unworthiness, superficial).

Matn statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, 100 ta otdan ingliz tilida prefiks va suffiks yordamida yasalgan atigi bitta yoki ikkita ot uchrasa, rus tilida bu ko'rsatgich to'rt yoki beshtani tashkil etadi, ya'ni rus tilida ikki barobar ko'p uchraydi.

Kompozitsiya

So'z qo'shish – hind-ovrupa tillari uchun umumiy bo'lgan morfologik so'z yasash tupi bo'lib, unda yangi qo'shma yoki qisqartma so'z ikki yoki undan ortiq o'zak yoki so'zning qo'shilishidan yasaladi. Shuni inobatga olish kerakki, qo'shma so'zlar ikkita to'liq negizning qo'shilishidan yasaladi: водопровод, книготорговля; qisqartma so'zlar esa to'liq negizga qisqartirilgan negizning qo'shilishidan yasaladi: пединститут.

So'z qo'shish orqali so'z yasash hozirgi zamon ingliz va rus tillarida ot va sifat yasashda anchagina mahsuldordir. Hozirgi zamon yozuvchilari badiiy asarlarida qo'shma, prefiksli va suffiksli otlarning ishlatilish chastotasi hisoblanganda, ko'rib chiqilgan otlarning ingliz tilida qo'shma so'zlar 20% ni, rus tilida esa 10% ni tashkil qilishini ko'rsatdi. Shunday qilib, ingliz tilida yasama so'zlarning ishlatilish chastotasi rus tiliga nisbatan ikki barobar ko'p.

Yasama so'zlarning strukturalarini qiyoslash taqqoslanayotgan tillarning ba'zi izomorf va allomorf xususiyatlarini yoritishga imkoniyat yaratadi. Yasama so'z yasashda negizlarni qo'shish usuli asosiy farqlovchi belgilardan biri hisoblanadi. Rus tilida yasama so'zlar asosan birlashtiruvchi unlilar yordamida yasaladi: землекоп, лесостепь, пылесос, серо-зелёный. Birlashtiruvchi unlilar yordamisiz yasalgan yasama so'zlar kam uchraydi: ночлег, полуавтомат. Ingliz tilida esa bu holat aksincha bo'lib, unga birlashtiruvchi unlilar yordamisiz yasama so'z yasash ko'proq xosdir, masalan: red-hot, broadcast, blackboard, watch-maker va hokazo.

Yuqorida ko'rib chiqilayotgan tillarda o'tkazilgan qiyosiy tahlil natijasi ingliz va rus tillarida yasama so'zlar quyidagi strukturalarga ega ekanliklarini ko'rsatdi:

1) ot negizi + ot negizi: ingl. apple-pie, thunderstorm, ashtray; rus. домохозяйка, судоремонт, железобетон. Bu tipdagi yasama so'zlarda asosiy ma'noni ikkinchi unsur bersa, birinchi unsur esa so'zning aniq tarifini keltiradi.

2) sifat negiz + ot negiz: ingl. green-wood, sweet-heart, quicksand; rus. мелководье, молодожён.

3) fe'l negiz+ot negiz yoki aksincha: ingl. break-stone, cut-glass, floor-polisher, brick-layer; rus. вертихвост, сорвиголова, полотёр, пылесос.

4) olmosh negiz+ot negiz: ingl. self-assurance, he-dog; rus. самокритика, себестоимость;

5) son negiz+ot negiz: ingl. hundred weight, threelane; rus. триугольник;

6) ravish negiz+fe'l negiz: ingl. out-break, off-set, upkeep; rus. скороход, тяжеловоз.

Yuqorida sanab o'tilgan struktur tiplaridan tashqari ingliz tiliga birinchi unsuri sifatdosh yoki gerundi bo'lgan yasama so'zlar xosdir: reading-hall, dining-room, dancing-girl, walking-stick.

Shunday qilib, ingliz va rus tillarida yasama soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlaridan biri ularda birinchi unsur har qanday soʻz turkumi bilan, ikkinchi unsur esa koʻp holatlarda ot bilan ifodalanishi mumkin ekanligini koʻrishimiz.

Ingliz va rus tillarida yasama sifatlar strukturalari quyidagicha namoyon boʻlishi mumkin:

1) sifat negizi+ sifat negizi: ingl. white-hot, blue-black, red-ripe; rus. бледно-зелёный, белоснежный;

2) sifat negizi+ot negizi sifat yasovchi suffiks bilan: ingl. cold-blooded, light-hearted, sweet-tempered; rus. синеглазый, тяжеловесный, круглолицый;

3) olmosh negizi+ot negizi: ingl. five – year, three – act, two-shift; rus. пятилетний, трёхкратный, двухсменный;

4) ot negizi+sifat yoki ravish negizi: ingl. light-tight, blood-thirsty, peace-loving, power-drunk; rus. светонепроницающий, кровожадный, миролюбивый, болеутоляющий.

Aytib oʻtish joizki, ingliz tilida ot va sifatlash II birikmasi rus tiliga qaraganda anchagina mahsuldor hisoblanadi. Bu kabi yasama soʻzlarning soni ingliz fan-taxnika va ijtimoiy-siyosiy adabiyotida oshib bormoqda.

5) ravish negizi+sifat yoki ravish negizi: ingl. well-bred, ill-tempered, fast-setting; rus. многословный, здравомыслящий, слабодействующий;

6) olmosh negizi+sifat yoki ravish negizi: ingl. self-acting, all-absorbing; rus. всеобщий, самодовольный.

Shunday qilib, ingliz va rus tillari yasama sifatleri struktur tiplarining oʻxshash ekanligini xulosa qilish mumkin. Taqqoslanayotgan tillarda qolgan soʻz turkumlari uchun soʻz yasash unchalik xos boʻlmagani uchun ularda soʻz yasash usullari koʻrib chiqilmadi.

Ingliz va rus tillarida mahsuldor soʻz yasovchi vositalarning qiyosiy tahlili taqqoslanayotgan tillar anchagina tipologik oʻxshash xususiaytlarga ega ekanliklarini koʻrsatdi. Shu bilan birgalikda, ushbu tillarning oʻziga xos xususiyatlari, soʻz yasovchi vositalari mahsuldorligidagi baʼzi farqlar, yasalgan soʻzlarning tuzilishi jihatidan farqlari, soʻz yasovchi vositalarning son jihatidan farqlari haqida gapirib oʻtish oʻrinlidir. Ammo ingliz tilini rus tiliga qarama-qarshi qilib qoʻyadigan farqli belgilarning koʻpligiga qaramasdan tipologik oʻxshash xususiyatlarning mavjudligi ushbu tillarning soʻz yasash sohasida qandaydir yaqinlik borligidan dalolat beradi.

Tayach soʻz va iboralar

Prefiksatsiya, suffiksatsiya, suffiksatsiya-prefiksatsiya, prefikslarning semantik belgilari, oʻzlashtirilgan prefikslar, mahsuldor prefikslar, kompositsiya.

Savol va topshiriqlar

1. Ingliz va rus tillari lugʻat boyligini koʻpaytirishning qanaqa yoʻllari mavjud?
2. Morfologik yoʻl bilan soʻz yasashda qanday vositalardan foydalaniladi?
3. Affiksatsiya nima?
4. Ingliz va rus tillarida qaysi soʻz turkumlari koʻproq suffikslar yordamida soʻz yasashga moyil?
5. Taqqoslanayotgan tillarda shaxs otini bildiruvchi mahsuldor suffikslarni ayting. Umumiy va farqli belgilarini aniqlang.
6. Ingliz va rus tillarida subʼektiv baho ifodalovchi suffikslarni taqqoslaymiz.
7. Ingliz va rus tillari suffikslar tizimida qanaqa asosiy farqlar mavjud?
8. Ingliz va rus tillarida prefikslar yordamida soʻz yasashda asosiy farq qiluvchi belgilar nimalardan iborat?
9. Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan, lekin har ikkala til uchun umumiy boʻlgan prefikslarni aytib bering. Misollar keltiring.
10. Ingliz tilida feʼl yasovchi mahsuldor prefikslarni sanab bering.
11. Rus tilida maʼno jihatidan ingliz tili prefikslariga mos tushadigan prefikslarni ayting.
12. Suffiksatsiya-prefiksatsiya nima? Qaysi soʻz turkumlarini yasashda u koʻproq mahsuldor?
13. Taqqoslanayotgan tillardagi qoʻshma soʻzlar strukturasida asosiy farqlar nimalardan iborat?
14. Qoʻshma soʻzlarning tuzilishi jihatidan har ikkala til uchun umumiy boʻlgan qanday tiplari mavjud?
15. Qoʻshma sifatlarning tuzilishi jihatidan har ikkala til uchun umumiy boʻlgan tiplarini aytib bering.

Soʻz hosil tipologiyasi mavzulari boʻyicha adabiyotlar

1. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове.-М., 1972.

2. Зятковская Р.Г. Суффиксальная система современного английского языка.-М., 1971.
3. Ильиш Б.А. Современный английский язык. –М., 1948.
4. Карашук П.М. Аффиксальное словообразование в английском языке. – М., 1965.
5. Кубрякова Е.С. О путях изучения типологических особенностей языка в области словообразования. // Структурно-типологическое описание современных германских языков. –М., 1966.
6. Маковский М.М. Опыт типологической характеристики лексико-семантических систем // Вопросы языкознания, 1969.- №2.
7. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. – Л., 1972.
8. Развитие словообразования современного русского языка. – М., 1966.
9. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. –М., 1956.
10. Arnold I.V. The English Word.- Moscow-Leningrad, 1966.
11. Ginzburg R.S., Khidekel S.S., Knyazeva Y.Y., Sankin A.A. A Course in Modern English Lexicology.- Moscow, 1966.
12. Marchand H. The Categories and Types of Present –Day English Word. – Formation.// Readings in Modern English Lexicology. – Leningrad, 1969.
13. Rayevska N.M. English Lexicology. – Kiev, 1971.

Ma'ruza 6

Ingliz va rus tillari leksik tipologiyasi

Reja

1. So'z struktur unsur sifatida.
2. Leksik birliklar ma'no hajmi.
3. So'zlar semantikasining milliy xususiyati.
4. Mustaqil to'liq va to'liq bo'lmagan ma'noga ega so'zlar.
5. Leksik birliklarning ishlatilish chastotasi.
6. So'zlarning nomlanish tabiati.

Tilning hamma sathlarida tipologik tadqiqot olib borish mumkin bo'lganidek, leksik sathda, ya'ni so'z ustida ham tipologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish mumkin. So'z leksik tipologiyaning predmeti hisoblanadi.

So'zlar ingliz va rus tillarida hamma tillar uchun xos universal deb qabul qilingan xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Taqqoslanayotgan tillar boshqa tillardagidek mazmun planiga, ifoda planiga va distributsiyaga ega. "Quruq" so'z bo'lmaganidek, "ovoqsiz" so'z ham bo'lmaydi. Ushbuning isboti o'laroq ma'no va strukturaning buzilishiga olib keladigan so'zda harflarni almashtirish jarayonini (masalan, стол - лотс) misol tariqasida keltirish mumkin. Bu esa so'zning til birligi deb atalmish huquqidan mahrum qiladi.

So'z tilning stuktural unsuri sifatida ko'p o'lchamliligi bilan xarakterlanadi. Ularning ma'lum ma'noga hamda ma'lum struktur xususiyatlarga egaligi, o'xshash so'z qatorlarini tashkil etishi, semantik maydonlarga birika olishi, terminologik va noterminologik leksikada ishlatilishi, frazeologizmlar tashkil qila olishi, turli uslublarda qo'llanilishi, asl va o'zlashtirma leksika bilan munosabatda bo'lishi, konkret va mavhum so'zlarga bo'linishi, leksik-grammatik kategoriyalarga ajralishi taqqoslanayotgan tillar leksemalari uchun umumiy belgilar hisoblanadi.

Taqqoslanayotgan tillarning umumiylik xususiyatlarga ega bo'lishi ularning leksik sistemasi aynan bir xil degani emas. Chunki bu xususiyatlar har bir til sistemasida o'ziga xos holda namoyon bo'ladi.

Ingliz va rus tillarida leksik birliklarning ma'no hajmi

Tashqi ob'ektiv dunyo o'z in'ikosini ongda - inson fikrida topsa, ifodasini esa tilda topadi. Bir tilda ifodalangan fikr ikkinchi bir til vositalari orqali adekvat tarzda "qayta ifodalanishi" mumkin. Til, avvalombor, ma'lumot yuborish vositasi bo'lib, har bir til bir xil ma'lumotni konkret moddiy unsurlar bilan bog'lagan holda turlicha etkazishi mumkin. Tadqiqotlar natijalari, ingliz va rus tillarida o'z hajmiga ko'ra leksika yordamida ifodalangan ma'lum miqdorda tushunchalar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Masalan, ingliz tilidagi **by-line** so'zi muallifning, rassomning, suratkashning va hokazolarning ismi, sharifi yoziladigan qatorni bildiradi. Rus tilida esa biz **by-line** so'ziga taxminan mos keladigan **подпись** so'zini topamiz. Rus tilidagi **подросток** so'zi 12 dan 16 gacha bo'lgan yoshni ifodalasa, ingliz tilidagi **teenager** so'zi esa 13 dan 19 gacha bo'lgan yoshni ifodalaydi.

So'z ma'nosi doirasi (ko'lami) tilning milliylik xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, rus tilidagi **человек** so'zi ingliz tilida **man, person, woman** kabi birliklarga to'g'ri keladi. Lekin rus tilidagi bu so'z ingliz tilidagi so'zga nisbatan o'z ma'nosining kengligi bilan ajralib turadi.

Taqqoslanayotgan tillarda hajm jihatdan ma'nolarning mos tushmaydigan holatlariga misollar keltiramiz:

high, tall	высокий
finders, toes	пальцы
hand, arm	рука
foot, leg	нога
o'clock, hour	час
watch, clock	часы
to come, to go,	идти
to proceed	

So'z ma'nosi qisqarish holatlari rus tilida ham kuzatiladi, masalan:

лодка, пароход	boat
палто, пиджак	coat

парта, стол		desk
пол, этаж		floor
пушка, ружьё	gun	
кричать, плакать		cry
мечтать, видеть сны		dream
учить, узнавать		learn
пахнуть, нюхать		smell
синий, голубой		blue
молодой, неопытный		young
бежать, управлять	run	
летать, пилотировать		fly

Ingliz tilidagi ba'zi so'zlarda ish-harakat va uning natijasini ifodalovchi ma'nolarning "jamlanishi" kuzatiladi. Rus tilida esa bu ma'nolar alohida so'zlar bilan beriladi:

collection	сбор, коллекция
leakage	просачивание, утечка
settlement	устройство, поселение
pitiful	жалкий, жалостливый
respectable	почтительный, почтенный

Ingliz tilini o'rganishda talabalarga taqqoslanayotgan so'zlarning faqat ma'nolarining ko'pligi qiyinchilik tug'dirmasdan (taqqoslaymiz: rus. ещё, ingl. still, yet, else, more, another, other; rus. путешествие, ingl. trip, tour, voyage, cruise), balki ifoda planidagi o'xshashlik ma'nolarni to'g'ri tanlashda ham qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Taqqoslaymiz: rus. аспирант, ingl. aspirant – кандидат, претендент; rus. гениальный, ingl. genial – мягкий, добрый, плодотворный; rus. дата, ingl. data – статистические данные; rus. артист, ingl. artist – художник; rus. комплекция, ingl. complexion – цвет лица; rus. газета, ingl. gazette – бюллетень va hokazo.

Politic – political, black-blacken, suit-suite, human-humane, continual-continious, comprehensible-comprehensive, comical-comic tipidagi so'zlarni bir-biridan ajratishda qiyinchilik tug'ilishi shubhasizdir. Politic (political behavior, politic answer) so'zi rus tilida ловкий so'ziga, political (political power, political economy) so'zi esa rus tilida государственный so'ziga to'g'ri keladi. Continual (continual interruptions, continual reminders, continual reproaches, continual blows) so'zi rus tilida постоянный, беспрестанный so'ziga to'g'ri keladi. Bir xil o'zakdagi continious sifati (continious headache, continious range of mountains, continious rain) rus tilida непрекращающийся, сплошной, длительный ma'nolarini beradi. Comprehensible (comprehensible point of view) rus tilida понятный, постижимый; comprehensive (comprehensive school, comprehensive education, comprehensive mind) so'zi rus tilida обширный, всесторонний ma'nolarini beradi. Comical so'zi rus tilida комедийный, шуточный ma'nosini, comic so'zi esa комичный (непреднамеренный) ma'nosini beradi.

Ingliz va rus tillarida tushunchalar so'zlar orqali ifodalanishi bilan bir qatorda, so'z birikmalari bilan ham ifodalanadi. Bunday holatda taqqoslanayotgan tillarda ifoda vositalari bir-birlariga mos tushishi ham, farq qilishlari ham mumkin. Ingliz va rus tillarida ba'zi umumiy tushunchalarning strukturasiga ko'ra bir xil bo'lgan so'z va so'z birikmalari yordamida ifodalanishini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: house – rus. дом, palace - rus. дворец, white - rus. белый, black - rus. чёрный, two - rus. два, four - rus. четыре, look at -rus. смотреть на va hokazo. Ammo umuman teskari holat ham kuzatiladi. Bunda ingliz tilidagi sodda so'zlarga rus tilida qo'shma so'zlar yoki so'z birikmalari to'g'ri kelishi, yoki aksincha, rus tilidagi sodda so'zlarga ingliz tilida qo'shma so'zlar yoki so'z birikmalari to'g'ri keladi:

merry-go-round	карусель
never-do-well	бездельник
harness-marker	шорник
courtier	царедворец
figure skater	фигурист
become refined	утончиться
be ashamed	устыдиться
raw material	сырьё

residence	местопребывание
befriend	относиться дружески
snowstorm	метель
week-end	время отдыха от субботы до понедельника

Taqqoslanayotgan tillarda leksik birliklar ma'nolaridagi farqlar, asosan, mustaqil to'liq va to'liq bo'lmagan ma'noga ega so'zlarda namoyon bo'ladi.

Mustaqil to'liq va to'liq bo'lmagan ma'noga ega so'zlar

Ma'no va gapdagi bajargan vazifasiga ko'ra ingliz va rus tillari leksik birliklari to'rt guruhga bo'linadi (Уфимцева А.А. 1972, 394-451 b.).

Birinchi guruhga to'liq semantik strukturaga ega bo'lgan so'zlar: otlar, mustaqil fe'llar, sifatlar, sonlar, ba'zi ravishlar (nodeyktik) kiradi:

place	время
evening	последний
letter	состояние
succeed	мириться
thousand	тысяча
beautifully	навсегда
feel	чёрный
normal	безнадёжно
dog	совершать

Ikkinchi guruhga leksik to'liq bo'lmagan so'zlar: kishi ismlari, goeografik joy nomlari kiradi: ingl. John, London, Thames; rus. Иван, Ярославль va hokazo.

Uchinchi guruhga shaxs, predmet, o'rin-joy, yo'nalish ma'nolarini bildiradigan, predmetlik tushunchalarini ifodalamaydigan o'rindosh so'zlar kiradi. Adabiyotlarda ular deyktik belgilar nomi bilan yuritiladi: ingl. we, you, this, that, there, here, yesterday, today, tomorrow; rus. я, ты, он, там, здесь, сегодня, вчера va hokazo.

To'rtinchi guruhga bog'lovchi so'zlar, predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar, artikllar kiradi.

So'z guruhlari o'rtasidagi munosabat har bir tilning vokabulyar strukturasi aniqlab, ularning farqli belgilarini tashkil qiladi. Mustaqil to'liq va to'liq bo'lmagan ma'noga ega so'zlarning ishlatilish doirasi aniqlanganda, ko'rib chiqilayotgan leksik sistemalarning umumiy va farqli tomonlari yuzaga chiqadi. Shunday qilib, kishi nomlarining ishlatilish doirasi boshqa guruhdagi so'zlarga nisbatan juda kichik foizni tashkil etishi ma'lum bo'ldi (ingliz tili – 5,2%, rus tili – 3,4%). Kishi nomlarining kam ishlatilishi ularning leksik jihatdan “to'liq bo'lmaganligi” bilan izohlanadi. Kishi nomlarining ma'no anglatish imkoniyati katta emas, chunki ular umumiy tushuncha ifodalamaydilar.

Deyktik so'zlar nisbatan ko'proq islatililadi (ingliz tili – 14,2%, rus tili – 15,8%), chunki o'rindosh so'zlar kishi nomlaridan farqli o'laroq, nutqda individual ma'no kasb etadi. Masalan, kishilik olmoshlari ma'lum shaxs nomi bilan, **здесь, там** ravishlari aniq bir joy bilan, **сейчас, потом** esa ish-harakatning amalga oshish payti bilan bog'liqdir.

So'zlarning nutqda ishlatilish darajasining oshib borishiga ko'ra keyingi navbatda bog'lovchi so'zlar turadi. Ular ingliz tilida 36,5% ni, rys tilida esa 26,4% ni tashkil etadi.. Kuzatishlar natijasi bog'lovchi so'zlarning ishlatilish darajasi ingliz tilida rus tiliga nisbatan 10% ko'p ekanligini ko'rsatdi.

Tub so'zlar nutqda ko'p qo'llanilishi bilan ajralib turadi (ingliz tili – 44,1%, rus tili – 54,4%).

Mustaqil to'liq va to'liq bo'lmagan ma'noga ega so'zlar tahlil qilinayotgan tillarda ko'p ishlatilishi, xabar berish xususiyatiga hamda mustaqil leksik ma'noga ega ekanliklari bilan izohlanadi. Ingliz tilida tub so'zlarning ishlatilish darajasi rus tiliga nisbatan 10% kam (taqqoslaymiz: bog'lovchi so'zlar 10% ga ko'p). Tub va yasma so'zlarning nutqda son jihatdan ishlatilish xususiyati taqqoslanayotgan har bir tildan olingan 33 ta matnni tahlil qilish natijasida aniqlandi. Har bir tilda 300 ta so'zdan iborat matnlar tanlandi. Tahlil natijalari jadvalda keltirilgan.

Leksik birliklarning ishlatilish darajasi

So'zlar soni	So'z sinflari Tillar	Tub so'zlar	Kishi nomlari	O'rindosh so'zlar	Bog'lovchi so'zlar
--------------	----------------------	-------------	---------------	-------------------	--------------------

9900	Ingliz tili	4367	514	1407	3612
9900	Rus tili	5381	351	1567	2601

Shunday qilib, ingliz va rus tillarning har ikkisi ham mustaqil ma'noga ega so'zlar, kishi va joy nomlari, o'rindosh so'zlar va bog'lovchi so'zlar xos ekanligini ko'ramiz. Ulardan mustaqil ma'noga ega so'zlar va bog'lovchi so'zlar eng ko'p ishlatiladi. Ingliz tilida rus tiliga nisbatan bog'lovchi so'zlarning ko'proq qo'llanilishi uning analitik til ekanligidan dalolat beradi.

So'zlarning belgilanganligi

So'zlarning xususiyatlariga ko'ra nomlanishi so'z ma'nosi bilan ifoda plani o'rtasidagi munosabatda namoyon bo'ladi. Ingliz va rus tillarida so'zlarning xususiyatlariga ko'ra nomlanishining uch xil usuli o'z aksini topgan: morfologik, fonetik va semantik. Masalan:

morfologik tipi	fonetik tipi	stmanik tipi
Ingliz tili		
wisdom	drizzle	mouth (of a river)
beautiful	whistle	hand (of a watch)
teacher	drop	face (of a building)
skater	flop	leg (of a table)
Rus tili		
искусствовед	шипеть	ручка (кресла)
ученик	свистеть	дорога (в жизнь)
работник	дребезжать	согреть (сердце)
переплыть	хлопать	крыло (самолёта)

Tilda xususiyatlari inobatga olinmasdan belgilangan so'zlar, ya'ni leksik morfemalarga bo'linmaydigan yaxlit semantik strukturaga ham ega bo'lmagan so'zlar uchraydi.

Leksik tipologiya uchun xususiyatlariga ko'ra belgilangan va xususiyatlari inobatga olinmasdan belgilangan so'zlar o'rtasidagi munosabat, ma'lum bir tilda nomlanishning morfologik, fonetik, semantik tiplari hamda bu munosabatlarning bir necha til darajasida qiyoslash juda ahamiyatlidir. Faknik materiallardan olingan ma'lumotlar ushbu planda ingliz va rus tillariga xos umumiy va o'xshash belgilarning mavjudligiga ishonch hosil qilishga imkon yaratadi.

Badiiy adabiyotdan olingan 25 ta matn tahlili (matnlar kattaligi har bir matnda 100 ta so'zning ishtirok etishi bilan belgilandi) natijasi ingliz va rus tillarida belgilangan va belgilanmagan so'zlar nisbati bir xil emasligini ko'rsatdi. Ingliz tilida har bir belgilangan so'zga 14 ta belgilanmagan so'z to'g'ri kelishi aniqlandi. Rus tilida belgilangan so'zlar ko'proq uchraydi.

Belgilangan va belgilanmagan so'zlarning miqdoriy nisbati

Tillar	Xususiyatlariga ko'ra belgilangan so'zlar	Xususiyatlari inobatga olinmasdan belgilangan so'zlar	Ularning nisbati
Ingliz tili	2500	34 557	1 : 13,8
Rus tili	2500	16 635	1 : 6,6

Belgilangan so'z tiplarini aniqlash uchun har birida 100 ta belgilangan so'z bo'lgan 30 ta matn tahlil qilindi. Jami 3000 ta birlikni tashkil etdi. Tahlil natijalari jadvalda keltirilgan.

Belgilangan so'z tiplari nisbati

Nomlanish tiplari Til	morfologik	fonetik	Semantik
Ingliz tili	2654 88,48%	41 1,36%	305 10,16%
Rus tili	2750 91,7%	10 0,3%	240 8%

Kuzatiuv natijalari belgilangan soʻzlarning morfologik tipi taqqoslanayotgan tillarda keng koʻlamda qullanilganligini koʻrsatdi. Shunga qaramay bu tip ingliz tiliga nisbatan rus tilida koʻproq qullanilishi maʼlum boʻldi. Fonetik va semantik jihatdan belgilangan soʻzlarga keladigan boʻlsak, ular rus tiliga nisbatan ingliz tilida koʻproq qullanilishini koʻramiz.

Soʻzlarni nomlash hodisasini oʻrganish katta ahamiyatga ega. Chunki u predmetlarning nomlanish jarayonini bilishga imkoniyat yaratadi.

“Soʻz – bu predmet izohi boʻlib, bizning predmetga nisbatan boʻlgan fikrimiz ifodasidir... Muhimi shundaki, bitta predmetning turli xil fodalanishidir. Masalan, sanskritda fil baʼzan *suv ichuvchi* yoki *ikki tishli*, baʼzan esa *qoʻli bor hayvon* deb ataladi. Bu nomlarning har biri, albatta, maʼlum bir tushuncha anglatganda, baribir ular bitta predmeni bildiradi” (B.Гумбольдт 1956, с.85).

Turli tillarda nomlanish asosini predmet va hodisalarning turli belgilari tashkil etadi. Masalan, rus tilidagi **о́кно** soʻzi **о́ко** otidan olingan. Ingliz tilidagi **window** esa **wind** **eye** til birliklaridan tashkil topgandir. Yoki rus tilidagi **подснежник** soʻzi gulning paydo boʻlish payti bilan bogʻli boʻlsa, ingliz tilidagi **snowdrop** soʻzi gulning shakli va oppoq rangi bilan bogʻliqdir. Rus tilidagi **снегирь** soʻzi yil fasli bilan, ingliz tilidagi **bullfinch** soʻzi esa finch nomli qush birga yuradigan pada bilan, rus tilidagi **одуванчик** soʻzi одувать feʼli bilan, ingliz tilidagi **dandelion** soʻzi зуб льва (sherning tishi) bilan bogʻliqdir.

Rus tilidagi baʼzi soʻzlarning ingliz tilida bir xil aks etishi holatlari ham kuzatiladi. Misol tariqasida rus tilidagi yil fasllari nomlarini keltirish mumkin: January - январь, February - февраль, March - март, April - апрель, May - май, June - июнь, July - июль, August - август, September - сентябрь, October - октябрь, November - ноябрь, December - декабрь.

Taqqoslanayotgan tillarda umumiy nomlanish holatlari ham kuzatiladi. Masalan, quduqdan suv olish uchun qurilgan moslama ingliz tilda **crane**, rus tilida esa **журавль** deb atalishi bunga yaqqol misol boʻla oladi. Bunday nomlanishga moslamaning qushga oʻxshashligi asos qilib olingan.

Soʻzlarning nomlanish jarayonini oʻrganish faqat predmet va hodisalarning nomlanish mexanizmini ochmasdan, balki konkret til sistemasida mavjud soʻz yasash tendensiyalarini ochib beradi.

Tadqiqot natijalariga koʻra ingliz tilida rus tiliga nisbatan semantik derivatsiya (konversiya), yaʼni berilgan asosni soʻz oʻzgartirishning boshqa paradigmasiga koʻchirish orqali soʻz yasash holatlari koʻp uchraydi. Ingliz tilida polisemiya hodisasining faolligi shu bilan bogʻliqdir. “Koʻp maʼnolilik barcha tillardagi soʻzlarga xos boʻlib, ingliz tilida bir boʻgʻinli soʻzlarning koʻpligi evaziga rus tiliga nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Ayniqsa, tilda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan soʻzlar koʻp maʼnolilik xususiyatiga egadir. Masalan, **strike** soʻzining oʻttizdan ortiq maʼnosi mavjud (ударить, поразить, столкнуться, бить, звонить, пронзать, чеканить, бастовать, нажать va horazo). Ingliz tilida eng koʻp ishlatiladigan mingga yaqin soʻzlarning Katta Oksford lugʻatida qariyb 25 000 tagacha maʼnosi mavjudligi sanab chiqilgan” (I.V.Arnold, 1959, 56 b.).

Taqqoslanayotgan tillarda fonetik belgilangan soʻzlar koʻpchilikni tashkil etmaydi. Ular, asosan, ovozga taqlid qilish va bolalar leksikasiga asoslanadi: ingl. whistle – rus. свистеть; ingl. grumble - rus. ворчать; ingl. flop - rus. шлепнуться; ingl. drop -rus. капать; ingl. neigh -rus. ржать; ingl. bark - rus. гавкать.

Baʼzan soʻzlarning maʼnolari faqat kontekstdagina maʼlum boʻladi: А в небе, ко всему приученный, бессмысленно кривится **диск** (А.Блок). The Importance of Being Earnest (O.Wilde).

Xalq etimologiyasi bilan bogʻliq boʻlgan, semantik jihatiga koʻra xalq tomonidan belgilangan soʻzlarning mavjudligi taqqoslanayotgan tillarning lugʻat tarkibi uchun umumiy hodisa hisoblanadi: фельетон-клеветон, пиджак-спинджак, поликлиника-полуклиника, walnut (Welsh -nut) – wall nut, barrery (lot. Botaria “barrel”)-butter, standard (fr. estandard)-stand va hokazolar. Xalq etimologiyasi **стол** (стлать) soʻzini стоять maʼnosi bilan, **ясень** soʻzini ясно maʼnosi, **солист** soʻzini солить maʼnosi bilan bogʻlaydi.

Nomlanishi noaniq qolgan soʻzlar har ikki til uchun ham xos boʻlgan xususiyatdir: nonce, sir, lady, lord; rus. спасибо, дотла, масло.

Emotsional leksika

Tilda soʻzlar obʼektiv dunyodagi predmet va hodisalarni bildiradi, tushunchalar shakllantiradi va ifodalaydi, boshqa soʻzlar bilan boʻlgan aloqalarini koʻrsatish bilan bir qatorda, insonning makonga subʼektiv munosabatini ifodalash vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Rus tili emotsional xususiyatlarni ifodalash vositalariga juda boy. Unda suffikslar yordamida sub'ektiv baho ifodalovchi, ya'ni kichraytirish, erkalsh, hamdardlik, yuvoshlik, nafrat, past ketish, kinoya, pisand qilmaslik, ko'paytirish ma'nolariga ega bo'lgan juda ko'p so'zlar yasash mumkin. Taqqoslaymiz: rus. алмазец, братец, билетик, дружок, замочек, диванчик, годик, сестрица, головка, соломенка, хохотушка, печечка, дедушка, калинушка, молочишко, дяденька, лошаdёнка, зеркальце, домина, лбина, уродина, арбузище, бацище, грязище, ручище va hokazo.

Ingliz tilida suffikslarning keng rivojlanmaganligi sababli emotsionallik, asosan, leksik birliklar yordamida ifodalanadi.

Demak, taqqoslanayotgan tillarda emotsionallik turli vositalar yordamida voqiyalanadi. Bu esa har bir til o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, ingl. a little house – rus. домик; ingl. a little cat – rus. кошечка; ingl. petty people – rus. людишки.

Sub'ektiv munosabatni ifodalash vositasi sifatida o'zining emotsional buyoqdorligini yo'qotgan tovushga taqlid qilish asosida yasalgan so'zlar sinonimlari xizmat qilishlari mumkin: ingl. grumble, mumble, crash, smash, clang, twitter, mutter, jingle; rus. ржать, скрежетать, ворчать, визжать, рычать, тарыхтеть.

Ingliz va rus tillari uchun umumiy bo'lgan xususiyatlardan yana biri bu odamlar xarakteriga baho berishda hayvon nomlarining ishlatilishidir. Masalan, berahm odamlarga nisbatan ingliz tilida **a wolf, animal** so'zlari ishlatilsa, rus tilida esa **звер, волк** so'zlari ishlatiladi. Tadbirkor odam uchun ingl. **a fox, ass**, rus tilida **осёл**; kichkina bola uchun ingliz tilida **a kid**, rus tilida **цыплёнок**; imillagan, sekin qimirlaydigan odam uchun ingliz tilida **a bull**, rus tilida **медведь** so'zlari ishlatiladi.

Atrof-muhitga sub'ektiv munosabat maxsus stilistik vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Ular orasida asosan mubolag'a, litota va kinoya katta o'rinni egallaydi. A.A.Potebnyaning (1905, 355 b.) ta'kidlashicha, inson hissiyotining sarhush bo'lishi natijasida predmetni asl o'lchamida ko'rish qobiliyatini yuqotishi mubolag'a hisoblanadi. Mubolag'a gapiruvchining aytilayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi, tinglovchining diqqatini jalb qiladi: ingl. thunderstruck, rus. двенадцатиголовый (змея). Mubolag'a fikrning ta'sirchanligini oshiradi, unga emfatik xususiyat beradi.

Litota – bu antonimning inkor yo'li bilan qo'llanilishi bo'lib, biror predmet, narsa, voqea-hodisaning ijobiy belgisini "kuchsizlantirishdir": ingl. good – not bad, wise – not foolish, nice – not ugly, rus. хороший – не/плохой, умный - не/глупый, чистый - не/грязный, добрый - не/злой va hokazo.

Keltirilgan misollarda ikkita inkor ishlatilgan: ulardan biri formal belgilar (ingl. not, rus. не) bilan ifodilangan bo'lsa, ikkinchisi so'zning o'zida mujassamlangandir (ingl. bad, foolish, ugly; rus. плохой, глупый, грязный, злой). Lekin bu misollardagi ikkita inkor fikrga ijobiy baho bersa-da, gapiruvchining aytilayotgan fikrga nisbatan munosabati unchalik yaxshi emasligi sezilib turadi.

Kinoya – nozik yoki yashirin kesatish maqsadida so'zning asl ma'nosiga qarama-qarshi ishlatilishidir. Kinoya gapiruvchining aytilayotgan fikrga tanqidiy istehzoli munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. So'zga yangi bunday ma'noni, asosan, uni o'rab turgan kontekst beradi: It must be delightful to find oneself in the foreign country without a penny in one's pocket (Ch.Dickens). Rus. Отколе, умная, бредёшь ты голова? Ай, Моська! знать она сильна, что лает на слона! Сильнее кошки зверя нет (I.Krilov).

Bu misollardagi kinoya so'zning nutq va kontekstdagi ma'nosini amalga oshirishga qaratilgan: ingl. delightful; rus. умная, сильна.

Demak, morfologik va semantik usullar yordamida yangi so'zlarning yasalishi asosida ingliz va rus tillarida so'zlar derivatsion ma'no (sub'ektiv baho va sub'ektiv munosabatni ifodalash uchun) kasb etadi. Bu borada ingliz tiliga semantik usul (konversiya) ko'proq qo'l keladi.

Tayanch so'z va iboralar

leksik tipologiya, deyklik so'zlar, so'zlarning belgilanganligi, semantik derivatsiya, emotsional leksika, mubolag'a, kinoya, litota.

Savol va topshiriqlar

1. Ingliz va rus tillari leksik tipologiyasi o'rganish ob'ekti nima?
2. "Belgilanganlik" atamasi nimani bildiradi?
3. "Belgilanganlik" til sistemalarida so'z yasash an'alariga ta'sir etishi mumkinmi?
4. Ingliz va rus tillarida belgilanganlikning qaysi tiplari kuzatiladi?
5. Taqqoslanayotgan tillarning qaysi birida belgilangan so'zlar ko'p uchraydi?

6. Ingliz va rus tillarida fonetik belgilangan soʻzlarning kam uchrashi nima bilan izohlanadi?
7. Ingliz va rus tillarida strukturasiga koʻra qaysi soʻzlar koʻproq uchraydi?
8. Bir boʻgʻinli soʻzlar taqqoslanayotgan tillarning qaysi birida koʻproq uchraydi?
9. Kishi nomlarining leksik jihatdan toʻliq maʼnoga ega emasligi nimadan iborat? Nutqda ular koʻp ishlatiladimi?
10. Bogʻlovchi soʻzlarning asosiy vazifasi nimadan iborat. Har ikkala tilda ularning roli va oʻrnini koʻrsating.
11. Nima uchun baʼzi olmoshlar oʻrindosh soʻzlar deb ataladi?
12. Ingliz va rus tillarida oʻrindosh soʻzlarning asosiy vazifalari nimadan iborat?
13. Qanaqa soʻzlar deytik soʻzlar deb ataladi?
14. Ingliz va rus tillarida gapiruvchining berilayotgan xabarga nisbatan baho ifodalovchi munosabati qanaqa vositalar orqali beriladi?
15. Tovushga taqlid orqali yasalgan soʻzlar his-tuygʻu maʼnosini ifodalash vositasi boʻlib xizmat qilishi mumkinmi?

Maʼruza 7

Tillarning leksik sistemasi

Reja

1. Sinonimlar.
2. Antonimlar.
3. Omonimlar.

Sinonimlar

Tillarda soʻzlar bir-birlari bilan munosabatda boʻlishlari bilan ajralib turadi. Bu munosabatlar sinonimik, antonimik va omonimik xususiyatlarga ega boʻlishi mumkin

Sinonimik qatorlar maʼlum soʻz turkumlarida namoyon boʻlishi taqqoslanayotgan tillar uchun umumiy hodisadir: ingl. all, whole (olmosh), attempt, trial, endeavour, effort (ot); rus. путь, дорога (ot), научить, наставить, вразумить (feʼl).

Taqqoslanayotgan tillarda oʻxshash belgilariga koʻra asosan absolyut sinonimlar farqlanadi (ingl. motherland-fatherland, breathead – voiced; rus. языкознание – языковедение, естествознание-естествоведение; ingl. perfect – wonderful-divine-beautiful, rus. обычный – будничный – рядовой – заурядный; ingl. to die-to pass, rus. смотреть, глазеть).

Ingliz va rus tillari sinonimik qatorlarida dominantaning mavjudligi bilan ajralib turadi: ingl. to ask – to beg, to request, to implore, to inquire, to claim, to demand, to question, to interrogate; rus. вид – панорама, картина, пейзаж, ландшафт.

Taqqoslanayotgan tillar uchun umumiy belgilardan biri sinonimiyaning asosan kontekstda namoyon boʻlishi hisoblanadi: ingl. Many a man has ability of managing a concert, but a few have capacity of conducting it (G.Grabb). Rus. Уж как нынешние люди догадливые, переводливые, накутят, намутят, с тобой, милый, разлучат (Народная песня). Bundan tashqari, bu ikki tilda baʼzi situativ sinonimlarning nutqda ishlatiladigan sinonimlarga aylanish holatlari kuzatiladi: ingl. a rubber neck (curious man).

Sinonimiya tilda katta rol oʻynaydi, chunki sinonimlar maʼnoning nozik tomonlarini ochishga yordam beradi. Leksik sinonimlar esa aniqlik, ifodalilik va buyoqdorlik xarakteriga ega boʻladi.

Rus tili sinonimlariga pleonazm xususiyati xos. Buni quyidagi misollarda koʻrishimiz mumkin: rus. вор-разбойник, травушка-муравушка, разлучила – развела. Ingliz tilida bunday holatlarda frazeologik birliklar ishlatiladi, masalan: sick and tired, clean and neat, really and truly, well and good, weak and feeble, aim and object va hokazo.

Sinonimlarning parallel ishlatilishi uslubiy sinonimikaning oʻziga xos xususiyatlaridan biridir. Masalan, ingliz tilidagi cripple soʻzining shunday sinonimik parallellari mavjud: 1) to make a cripple of, to lame, to wound, to mutilate, to maim; 2) to damage, to weaken. Gaplarni taqqoslaymiz: Smith was crippled in the war. Reactionaries cripple the national movement in the colonies. Rus tilida esa калечить feʼlining mos parallellari rivojlanmagan (подрывать, ослаблять).

Ingliz tilida kuchlilik tushunchasi aniqlanmishning tabiatiga koʻra turli sinonimlar bilan ifodalanadi: powerful machine, fierce heart, keen appetite, intense feeling, violent anger, potent argument, hard frost, heavy rain, strong smell, violent passion, strong will, good at English va hokazo. Xuddi shu holat boʻlak

tushunchasiga ham tegishli bo‘lib, u ingliz tilida bir necha so‘zlar orqali berilishi mumkin: a piece of news, a lump of sugar, a cake of soap, a slice of cheese, a bar of chocolate, a morsel of bread, a chunk of wood: rus. кусок, ломоть, лоскут.

Rus tili sinonimik qatorlarga kiradigan so‘zlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi: сказал – брякнул, бухнул, выдавил, завопил, загвоздил, замямлил, пикнул, рывкнул, процедил; научил – наставил, вразумил, образумил, направил, натолкнул, вывел; ввойти – ввалиться, втащиться, втиснуться, влететь; борьба – бой, битва, сражение, стычка, схватка, единоборство, поединок va hokazo.

Rus tilida sinonimik shakllanish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

a) so‘z yasash: rus. упрямый – волевой<воля, обычный – будничный<будни, рядовой<ряд, красивый – изумительный<изумить;

b) o‘zlashtirma so‘zlar: rus. мечтать – фантазировать, прогресс – успехи, транспортировать – перевозить, лексический – словесный va hokazo;

v) ma’nolarning semantik ko‘chishi: rus. умный – блестящий, яркий – живой, глупый – тупой, бояться – терпеть va hokazo.

Ingliz tilida ham sinonimlar rus tilidagi singari, ya’ni so‘z yasash, o‘zlashtirish va ma’nolarning semantik ko‘chishi kabi yo‘llar bilan yasaladi. O‘z navbatida har bir modelning o‘rni va qo‘llanilishi konkret til sistemasiga bog‘liq bo‘ladi.

So‘z yasash: to listen – to ear, to pass – to hand, to bear – to stomach, to glance – to look, to eye, to write – to pen, changeable – changeful, middle-midst, political-politic, bicycle-bike, vacation-vac va hokazo.

So‘z o‘zlashtirish: to ask – to question, to interrogate; teaching – guidance, instruction, to gather – to assemble, to collect.

Ma’nolarning semantik ko‘chishi: hand – worker, writer-pen, glasses-spectacles, dress – coat, tongue – language, men – soldiers, table – scheme va hokazo.

Antonimlar

Antonim so‘zlar ingliz va rus tillariga xos bo‘lib, konkret til asosida yaratiladi. Ular mazmunan qarama-qarshi xususiyatga ega bo‘lib, tilda va nutqda uchraydi. Antonimik munosabatlar bir xil so‘z turkumiga tegishli so‘zlar o‘rtasida vujudga keladi: ingl. abashed-unabashed, with-without, rise-sink, rough-smooth, poor-wealthy, right-wrong, private-public; rus. правда-ложь, говорить-молчать, близко-далеко, друг-враг va hokazo. Antonim so‘zlar ma’nolarining qarama-qarshiligi ularning semantik jihatdan uzoqlashganligini emas, aksincha, ma’lum darajada yaqinliklarini bildiradi. Chunki ular bir xil tushuncha asosida ish ko‘radi: ingl. long-short (day), black-white (people); rus. тёплый-холодный (климат), первый-последний (вагон) va hokazo.

Antonimlar, asosan, kontekstda ochiq – ravshan namoyon bo‘ladi. Masalan, rus tilida глубокие знания – поверхностные знания, глубокое озеро – мелкое озеро; ingliz tilida a high tree – a low tree, a tall man – a short man, hard times – good times, a good person – an ill person, a hard word – a soft word va hokazo.

Taqqoslanayotgan tillarda o‘zak antonimlar mavjud bo‘lib, ularning qarama-qarshi ma’nolari semantik jihatdan namoyon bo‘ladi: ingl. clear-vague, even-odd, low-high; rus. большой-маленький, родной-чужой.

Agar o‘zak (har xil o‘zaklar) antonimlar ma’noning qarama-qarshiligini implisit tarzda ifodalasa, bir o‘zakli (yasama) antonimlar esa eksplisit tarzda ifodalaydi. Rus tilida **не+ qarama-qarshi qo‘yilayotgan so‘zning asosi** modeli bo‘yicha yasaladigan antonimlarning katta guruhi mavjud: rus. честный-нечестный, бедный-небедный, глубокий – неглубокий, далёкий-недалёкий. Ushbu tipdagi modelga беспокойный, бесподобный, бесчисленный, бесчувственный, бестолковый tipidagi so‘zlarning derivatlari ham kiradi.

Ingliz tilidagi **un-**inkor prefiksining ba’zi morfemalar orqali beriladigan bir necha variantlari bor: unpleasant, indefinite, irregular, illegible, impossible.

Ma’nolarning qarama-qarshiligi dis-, a-, extra- prefikslari bilan ham ifodalanishi mumkin: organize-disorganize, honest-dishonest, ordinary-extraordinary, symmetrical-assymmetrical. Bundan tashqari ma’nolar o‘rtasidagi ziddiyat –ful va –less suffikslari orqali ham voqiyalanadi. Taqqoslaymiz: fearful-fearless, useful-useless, hopeful-hopeless va hokazo.

Qiyoslanayotgan tillar uchun umumiy bo‘lgan hodisa – bu ko‘p ma’noli antonim-so‘zlarning bir nechta qarama-qarshi ma’nolarni ifodalashidir: ingl. (to look) old – (to look) young, old (clothes) – new (clothes),

old (times) – present (times), old (masters) – modern (masters), old (world) – new (world); rus. свежий (хлеб) – чёрствый (хлеб), свежиу (новости) – запоздалые (новости), свежая (рыба) – мороженная (рыба).

Ingliz va rus tillarida nutqqa va tilga xos antonimlar farqlanadi. Nutqqa xos antonimlar kontekstdan tashqari o‘zining antonimlik xususiyatini yo‘qatadi: ingl. Youth is full of pleasure, age is full of care. Youth like summer morn, age like winter weather (W.Shakespear). Rus. Волна и камень, стихи и проза, лёд и пламень не столь различны меж собой (A.Pushkin).

Taqqoslanayotgan tillar uchun umumiy bo‘lgan yana bir hodisa bu antonimlarning stilistik ifoda vositalarida (masalan, antiteza va kinoyada) ishlatilishi hisoblanadi: ingl. Give him an inch and he will take an ell. Rus. Мягко стелет, да жёстко спать.

Ingliz tilida tarkibida antonimlar bo‘lgan ko‘pgina frazeologik birliklar mavjud. Masalan: the long and the short, to search high and low, now or never, to play fast and loose, to sink and swim. Ingliz tilida qarama-qarshilik ma‘nosi bir o‘zakdan tuzilgan so‘zlar orqali ham ifodalanadi: to work hard – to work hardly, to get on – to get off, to turn on – to turn off, to let in – to let out, to include in – to include out.

Shunday qilib, ingliz va rus tillari antonimlar qatorida umumiylik xususiyatlari qarama-qarshi ma‘nolarga ega bo‘lgan so‘zlarning hamda ularning o‘ziga xos qo‘llanilish va yasaliish usullari mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shuni aytib o‘tish joizki, taqqoslanayotgan tillarda ma‘noning qarama-qarshiligi nafaqat turli so‘zlar bilan ifodalanmasdan, balki bitta so‘zning qarama-qarshi ma‘nolari orqali ham berilishi mumkindir: ingl. priceless – beyond price, invaluable; rus. бесценный – очень дорогой, не имеющий цены.

Omonimlar

Ingliz va rus tillari uchun umumiy bo‘lgan xususiylardan biri - bu omonimiya hodisasi bo‘lib, tilda til birliklarining ifoda planida to‘liq yoki qisman mos tushishi (to‘liq (sof) yoki funksional omonimlar) bilan izohlanadi.

Sof (to‘liq) va to‘liq bo‘lmagan (funktional) omonimlar

Sof (to‘liq) omonimlar	Funktional omonimlar	
	Omofonemalar	Omograflar
Ingliz tili		
arms (human upper limbs) – arms (weapons), angle (fish-hook)-angle (corner)	he likes-his likes, son-sun, pair-pear, bound (bound)–bound (to bind), found (to find)-found (to found), eye-to eye, look-to look, sea-to see.	Bow (yoy)-bow (ta‘zim), row (qator)-row(shovqin) saw (arra) - saw (to see)
Rus tili		
Лук (оружие) Лук (растение) Ключ(от двери) Ключ (источник)	тоскуя-(разгону) тоску я кос(коса)-кос (косой); лук-луг, паз-пасс, засаливать<засолить- засаливать-засалить	Замок (дворец)-замок (на двери), мука (продукт) – мука (мучение)

Omonimlarning ma‘nolari kontekstda aniq-ravshan namoyon bo‘ladi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin: ingl. She brought me my coffee and a piece of bread (Ch.Bronte). To live at peace. He went to the dining –room to wait for dinner (J.Galsworthy). He lost seven pounds in weight (Ch.Dickens). Rus. Ем ли суп из манных круп, или конский вижу круп, Мне на ум приходит Круш. А за ним большая масса, гряда пушечного мяса.

Taqqoslanayotgan ikki til leksik sistemalarida omonimik qatorlar lingvistik va ekstralingvistik omillar ta‘siri natijasida vujudga keladi. Ularning qatori tasodifiy fonetik mos tushishlar orqali ham kengayishi mumkin: ingl. sun-son, knight-night, two-too, hair-hare, hear-here, write-right; rus. своя-свая, мой (глагол) – мой (местоимение), три (числительное)-три (глагол). V.Arnoldning (1959, 289 b.) ta‘kidlashicha omonimlar tasodifiy xarakterga ega bo‘lib, har bir tilga xosdir.

Omonimlarning kelib chiqishi usullari har ikki til uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlardan biridir. Taqqoslanayotgan tillarda omonimlar quyidagilar natijasida vujudga keladi:

a) so‘z yasash orqali: ingl. back (n) – back (v), run (n) – run (v) < advertisement; rus. копа (мера) – копа (о человеке) <копошиться, моль (насекомое)-моль<малёк, моня (молоко) - Моня< Митрофан.

b) o'zlashtirish orqali: ingl. peace-piece, ball-ball, match-match, rain-reign; rus. бос –бос (босой), брак-брак, клуб-клуб.

v) so'z ma'nosining semantik ko'chishi orqali: ingl. capital (poytaxt)- capital (bosh harf) – capital (kapital), air (havo)-air (tashqi ko'rinish); rus. молот (инструмент) – молот (рыба), союз (объединение)-союз (лингв.) va hokazo.

Rus tilida sodda omonimlar kam uchraydi. Ingliz tilida esa ular keng tarqalgan. Ingliz tilida konversiya hisobiga omonimlar soni oshib boryapti. Konversiya yordamida turli vazifalarni bajaruvchi so'zlar, asosan, fe'llar yasalyapti: to elbow, to head, to tail, to paper, to ear, to foot, to lip, to knee, to skin, to stomach.

Rus tilida konversiya so'z yasashda mahsuldor vosita hisoblanmaydi. Bu, albatta, omonim so'zlar soniga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. So'z turkumlarining biridan ikkinchisiga o'tish holatini quyidagi misollarda kuzatish mumkin: rus. относительно (нареч)-относительно (предлог), благодаря (деепричание)-благодаря (предлог).

Tilda so'z o'yini tasvirlanganda omonimlardan foydalanilgan holatlar ham uchraydi: rus. Нёс медведь, шагая к рынку, На продажу мёду к рынку, Вдруг на Мишку, вот напасть, осы вздумали напасть. Это кто стрелой из лука, Прострелил головку лука? Я ни слова, как немой, Словно выстрел был не мой (Я.Козловский).

Ingliz tilida ham omonimlar so'z o'yinida (kalambur) ishlatiladi:

"Now", asked the teacher, "if I take three for seven what difference does it make?". "That's what I say", said the child. "Who cares?".

Wife: I am afraid the mountain climate disagrees with me.

Husband: It would not dare.

Feminine voice over the telephone: "Hello, are you Harry?". Masculine voice: "Not especially, lady, but I am far from bald".

Shunday qilib, ingliz va rus tillarida sinonimlar, antonimlar va omonimlarni qiyoslash natijasi taqqoslanayotgan sistemalardagi farqlar lisoniy xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Chunki ushbu mikrostrukturalarda aynan ingliz va rus tillariga xos xususiyatlar namoyon bo'lyapti.

Miqdorning semantik maydoni

B.Yu.Gorodetskoyni (1969, 10 b.) ta'kidlashicha, semantik-tipologik tadqiqot til bilan tafakkur o'rtasidagi munosabatni aniqlashda, tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun, chet tillarini o'rgatishda, ikki tilli lug'atlarni tuzishda umumiy mezonlarni ishlab chiqishda, semantik maydonlarni tadqiq etish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir til faqat formal farq qiluvchi o'ziga xos sistemaga ega bo'lmasdan, individual ma'no sistemasiga ham egadir. Bu universal xususiyat ingliz va rus tillariga ham xosdir.

Mazku tillar ko'pgina semantik maydonlarga egaligi bilan ham ajralib turadi. Semantik maydon deganda inson tajribasining ma'lum sohasi bilan aloqador bo'lgan ma'no birliklarinig yig'indisi nazarda tutiladi. Ingliz va rus tillarida semantik maydonning umumiylik xususiyatlar bo'lganidek, farqli tomonlari ham mavjud.

U yoki bu tilda semantik maydonning mavjud yoki mavjud emasligi ob'ektiv omillarning ta'siri, tasvirlanayotgan predmetlarning hamda voqea-hodisalarning sodir bo'lish yoki bo'lmasligi bilan izohlanadi. Semantik maydonlar ichida ingliz va rus tillari uchun umumiy bo'lgan miqdor semantik maydon farqlanadi.

Insonni mavjud ob'ektiv moddiy dunyo o'rab turadi. Buni moddy dunyoda makon va zamonning cheksizligi, undagi harakatning tuganmas va abadiy ekanligini tan olmasdan tushunib bo'lmaydi. Har qanday moddiy ob'ekt o'z o'lchamiga ega bo'ladi, ya'ni u uzun yoki qisqa, keng yoki tor, baland yoki past bo'ladi. Ushbu o'lchamlarning birortasiga ega bo'lmagan hech qanday ob'ekt mavjud emas. Har bir narsa, hodisa, predmet vaqt bilan bog'liq xususiyatga ega: kelib chiqish payti, qancha vaqtdan beri mavjudligi, jarayonlarning qancha davom etganligi va hokazo.

Miqdor semantik maydon taqqoslanayotgan tillarda umumiy til vositalari – morfemalar, grammatik kategoriyalar, leksik va frazeologik birliklar yordamida namoyon bo'ladi. Ingliz va rus tillarida miqdor tushunchasi morfema darajasida affiksalar va o'zaklar orqali ifodaladi:

unilateral	трилогия
binocular	двусложный

decimal	макросфера
centigrade	пятикратный
polyglot	столик
hillock	облачко
cloudlet	книжка
streamlet	девушка
birdie	пятачок
fiver	единомышленник

Yuqorida keltirilgan misollarga ko'ra miqdoriy xususiyatlar morfemalar yordamida aniq va taxminiy ifodalanishi mumkin. Taqqoslanayotgan tillarda morfemalar yordamida aniqlik son bilan miqdorni bildiruvchi affikslarning qo'shilishi orqali ifodalanadi: ingl. tripartite, bilateral, unilateral; rus. трилогия, двусложный, монолог. Taxminiy miqdorni bildiruvchi so'zlar miqdorni bildirmaydigan affikslar yordamida ifodalandi: ingl. polysemy, Pan-American; rus. всеильный, микротекст va hokazo.

Ingliz va rus tillarida birlik (yakka) va ko'plik ma'nolari son kategoriyasi shakllari orqali beriladi. Rus tilida otlarning kelishik qo'shimchalari boy sistamsi ingliz tilidagi ko'plikni ko'rsatuvchi -(e)s suffikslariga qarama-qarshi qo'yiladi. Rus tilida miqdorni ifodalovchi grammatik vosita sifatida son kategoriyasi ot, olmosh, fe'l va sifat kabi so'z turkumlarida mavjuddir: rus. красный-красные, пишу-пишем, пишешь-пишете, книга-книги, мой-мои, твой-твои.

Ingliz tilida son kategoriyasi, asosan, otlarda (book-books, pen-pens), ba'zi olmoshlarda (one-ones, other-others, myself-ourselves, himself, herself-themselves) va fe'llarda (he studies-we study, he plays-they play, he has written-we have written, I am playing-you are playing) kuzatiladi.

Sifat darajalari ham miqdorni, gradatsiyani ifodalashning grammatik vositasi hisoblanadi (I.V.Arnold, 1959, 53 b.). Taqqoslaymiz: ingl. red-redder-the redder, important-more important-the most important; rus. выгодный-более выгодный-самый выгодный, плохо-хуже-худший.

Miqdor ma'nosi turli so'z turkumlarida leksik vositakar orqali ham berilishi mumkin: ingl. twice, rus. дважды; ingl. ten, rus. десять; ingl. ton, rus. тонна.

Sonlar va o'lchov birliklarini bildiruvchi so'zlar miqdor ma'nosini ifodalovchi universal vosita hisoblanadi. O'lchov birliklarini bildiruvchi so'zlar amorf, diskrit bo'lmagan, ya'ni ajralmas predmetlarning miqdoriy xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilsa, sonlar esa alohida mavjud bo'la oladigan, diskrit predmetlarning miqdoriy xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llaniladi.

Ingliz va rus tillari uchun umumiy bo'lgan hodisa bu o'lchov birliklarini bildiruvchi so'zlarning aniq sonni ifodalash uchun ishlatilishidir. Twenty yards of silk; rus. десять пудов картофеля, семь мешков зерна. Lekin ushbu so'zlar ba'zi birikmalarda taxminiy miqdor ma'nosini ifodab keladi: ingl. three or five of inches; rus. пять – шесть пудов яблок, несколько километров, добрых два гектара, тысячи миль. O'lchov birliklarini bildiruvchi so'zlar son bilan, ba'zi olmoshlar bilan, aniqlik ma'nosini yo'qotgan otlashgan sonlar bilan birikib kelganda taxminiy miqdor ma'nosini anglatadi. Bu yerda har ikkala til uchun umumiy hodisa - bu so'zlarning ko'p yoki kam ma'nolarini ifodalashidir: ingl. tons (of history), acres (of lace), ounce (of love), loads (of friends), a dram (of learning); rus. бочка мёду (а ложка дёгтя), (сам) с ноготок, (а борода) с локоток.

Yuqorida aytub o'tilganidek, ingliz va rus tillarida o'lchov birliklarini bildiruvchi so'zlar amorf, diskrit bo'lmagan, ya'ni ajralmas predmetlarning miqdoriy xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilsa, sonlar esa alohida mavjud bo'la oladigan, diskrit predmetlarning miqdoriy xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilishi bu ikkala xususiyatning biri ikkinchisidan keskin farq qilishini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan esa, o'lchov birliklarini bildiruvchi so'zlar kabi sonlar ham aniq va taxminiy ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz va rus tillari uchun izomorf bo'lgan xususiyatlardan biri - bu sonlarning, asosan, aniqlik ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilishidir: ingl. two girls, three books, fourteen pencils; rus. триста лет, два города, три тополя. Lekin ba'zi hollarda bu so'zlar taxminiy ma'no ham kasb etishi mumkin: ingl. a pound or two, two or three people, perhaps sixty thousand acres; rus. часа два, градусов пятнадцать-двадцать, свыше двух тысяч студентов, лет под тридцать. **Ko'p** yoki **kam** ma'nolari maqol va matallarda ham ifodalanishi mumkin: ingl. a sitch in time saves nine; four eyes see better (more) than two; rus. двум смертям не бывать, а одной не миновать; за двумя зайцами погонишься, ни одного не поймаешь.

Один sonidan tashqari hamma miqdor sonlarining ko‘plikni ifodalashi taqqoslanayotgan tillar uchun universal bo‘lgan hodisadir: ingl. ten apples, two books, three girls; rus. два карандаша, четыре филма, семь деревьев.

Ushbu birikmalar har bir tilga xosdir. Ingliz tili birikmalarida ot grammatik va semantik markaz tashkil qilsa, rus tilida esa ot faqat semantik mustaqillikni saqlab qoladi. Grammatik jihatdan mustaqillik songa tegishlidir, chunki u otdan kerakli shaklni talab qiladi: rus. два студента, пять студентов.

Agar son birdan ortiq predmetni ifodalab kelsa, ingliz tilida otning shakli sonning shakliga bog‘liq bo‘lmaydi: ingl. three pens, four girls, ten tables. Bu iboralardagi sonlar **many** leksemasi bilan almashtirilishi mumkin.

Rus tilida son bilan aniqlanayotgan ot o‘rtasida boshqaruv va moslashuv aloqalari uchraydi. Rus tilida sonlar o‘zining tanlov xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi: rus. две книги – шесть книг.

Shunday qilib, ingliz va rus tillariga har bir tilga xos bo‘lgan vositalar orqali ifodalanadigan ma’nolar sistemasi xosdir. Moddiy dunyoning yagonaligi, fikrlash jarayonining mosligi, emotsional idrok etish bir xilligi, tillar tuzilish mezonlarining universalligi konkret tillarning leksik-semantik sistemalarini qiyoslash uchun asos bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar

sinonimlar, frazeologik birlik, antonimlar, omonimlar, sof (to‘liq) va qisman (funksional) omonimlar, omofonlar, omograflar, semantika, semantik maydon, son, birli va ko‘plik ma’nosi, diskrit va nodiskrit predmetlar.

Savollar va topshiriqlar

1. Qaysi tilda konversiya omonimlar qatorini to‘ldiradigan vosita hisoblanadi?
2. Nima uchun ingliz tilida bir bo‘g‘inli omonimlar ko‘pchilikni tashkil etadi?
3. Ingliz va rus tillari uchun miqdorni tasvirolovchi qanaqa umumiy ifoda vositalari mavjud?
4. Taqqoslanayotgan tillarda diskrit va diskrit bo‘lmagan predmetlarning miqdor xususiyatlari qanaqa vositalar bilan ifodalanadi?
5. Taqqoslanayotgan tillarning leksik sistemasida qanaqa izomorfik (o‘xshash) va allomorfik (farqli) tomonlarni ko‘rish mumkin?

Ma'ruza 8

Morfologik tipologiya: So'z turkumlari

Reja

1. So'z turkumi – so'zlarning leksik-grammatik guruhlarini sifatida.
2. So'z turkumlari ta'rif.
3. So'z turkumlari tasnifi.

So'z turkumlari atalmish so'zlarning leksik-grammatik guruhlarini dunyo tillarining tipologik universalialari jumlasiga kiradi (Yu.N.Abdullaev, A.M.Bushuy, 2001, 34-46 b.; Sh.Balli, 1955, 291-292 b.; L.Blumfeld, 1968, 442-443 b.; K.Koerner, 1999, 100-101 b.).

Tilshunoslar so'zlarni leksik-grammatik guruhlariga (so'z turkumlariga) bo'lishda nazarda tutiladigan mezonlarga turlicha baho berishadi (L.V.Sherba, 1957, 27-29 b.; V.V.Vinogradov, 1972, 342-344 b.; M.I.Zadorojniy, 2000, 96-97 b.; Duden, 1998, 34-42 b.; A.V.Tsimmerman, 2000, 129-130 b.).

Ingliz tilining ilmiy klassik grammatikasi asoschisi G.Suit (H.Sweet, 1955, 35 b.) bunday mezonlarga, avvalombor, so'zning vazifasini, keyin ifoda xususiyatlarini, oxirgi o'ringa so'zning ma'nosini kiritgan.

Amerika tilshunosi R.Long (R.B.Long, 1961, 30-42 b.) ushbu masalada asosiy ikkita mezonni tan oladi. Lekin ularning ikkalasi ham sintaktik tabiatga ega: bular so'zlarning vazifasi va xarakter modifikatorlaridir (modifiers). Ma'noning roli haqida gapirar ekan, R.Long bu mezonning "ba'zan foydali, lekin foydalanishga qiyinligini" ta'kidlaydi ("is" sometimes useful, but is hard to manipulate) (R.B.Long, 1961, 35 b.).

Rossiya tilshunosligida rus tili so'z tarkibini tasniflashda L.V.Sherbaning (1957) yozishicha, uchta belgi asos qilib olinadi:

1. Ma'no xususiyati (so'zning leksik ma'nosi)
2. Morfologik xususiyati (so'zlar va shakllar)
3. Sintaktik xususiyati (so'zning gapdagi vazifasi).

V.V.Vinogradov (1972, 38b.) esa bu belgilar sonini beshta hisoblaydi va ularni so'zning xarakteristikasiga binoan quyidagicha joylashtiradi:

- 1) sintaktik vazifalari,
- 2) morfologik qurilishi va shakllari,
- 3) leksik ma'nolari,
- 4) makonni ifodalash usullari,
- 5) ma'lum bir so'z turkumi bilan bog'liq bo'lgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu grammatik klassifikatsiyada so'zning sintaktik vazifasiga birinchi o'rin, leksik ma'nosiga esa atigi uchunchi o'rin ajratilgan.

Biroq hozirgi zamon adabiy rus tili grammatikasida so'z turkumlari ta'rif L.V.Sherbaning nazariyasidan, ya'ni uchta asosiy mezonidan kelib chiqadi. Ushbu so'z turkumlari ta'rif konsepsiyasini quyidagicha umumlashtiramiz:

- 1) ularda umumiy kategorial ma'noning, ya'ni, birinchidan, mazkur guruhga tegishli bo'lgan barcha so'zlar leksik ma'nosining, ikkinchidan, ushbu guruhga tegishli bo'lgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi;
- 2) paradigmaning umumiyli;
- 3) sintaktik funksiyalarning bir xilligi bilan xarakterlanadigan so'zlar guruhlaridir (Grammatika-1970, c.304).

Ingliz va rus tillarida so'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari darajasining grammatikachilar tomonidan turlicha tushunilishi, birinchi navbatda, so'z turkumlarining tillarda har xil ifodalanishi bilan izohlanadi (M.Aronoff, 1976, c.17-24; Th.Becker, 1993, c.19-21; H.Bochner, 1993, c.94-95; G.E.Booij, 1993, c.29-31; P.3.Мурясов, 2000, c.44-45.; Т.А.Майсак, 2000, c.11-12).

Sintetik tillar qatoriga kiruvchi rus tilida so'z turkumlarining sintaktik belgilari ingliz tilidan farqli o'laroq, morfologik tabiatga ega bo'lgan belgilar bilan to'ldiriladi (Грамматика– 1970, c.300-301; A.M.Bushuy, 1973, c.91-92; I.I.Meshaninov, 1975, 272-275b.; Русская грамматика – 1980, 1 т., c.450-557). Analitik tillar qatoriga kiruvchi ingliz tilida esa sintaktik belgilar, birinchi navbatda, gapda so'zlarning funksiyalari va ularning bir-birlari bilan bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi (S.Fagan, 1992, c.117-119; J.Rijkhoff, 1992, c.192-193; Th.Vennemann, 1977, c.620-622; 1984, c.593-594; W. Croft, c.19-22).

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ingliz tilida soʻz turkumlari taʼrifi qabul qilingan uchta umumiy xususiyatdan (maʼno, shakl, vazifa) tashqari, baʼzi olimlarning fikricha, soʻzlarning bir-birlari bilan bogʻlanishi, yaʼni soʻzning soʻz birikmasidagi funksiyasini ham qoʻshish kerak boʻladi (Б.А.Ильиш, 1971, c.28-30; A.I.Falilyayev, 2000, c.146-147; J.A.Hawkins, 1990, c.225-226).

Taqqoslanayotgan tillarda soʻz turkumlarining nechaga boʻlinishi masalasida ham umumiy fikr yoʻq (J.Z.Bybee, 1988, c.119-120; J.van Marle, c.99-101; 1990, c.267-268; W.Mayerthaler, 1987, c.25-28).

G.Suit (H.Sweet, 1955) va O.Yespersenlar (1958) ingliz tilida soʻzlarni turkumlarga quyidagicha ajratishadi: 1) ot, 2) sifat, 3) olmosh, 4) son, 5) feʼl, 6) ravish, 7) predlog, 8) bogʻlovchi, 9) undov soʻzlar.

R.Long (R.B.Long, 1961, 36b.) esa hozirgi ingliz tilida soʻzlarni oltita turkumga ajratadi: feʼllar, otlar, sifatlar, ravishlar, olmoshlar va absolyutlat yoki undov soʻzlar.

Soʻz turkumlarini ajratish muammosi hozirgacha ingliz tilidan mutaxassis olimlar diqqat markazidadir (Th.Becker, 1992, c.10-11; Th.Vennemann, 1974, c.346-347; W.U.Wurzel, 1987, c.59-61).

Rus tilshunosligida soʻz turkumlari nazariyasini rivojlantirishda V.V.Vinogradov taklif qilgan soʻz tarkibi tasnifi katta ahamiyatga ega (1872, c.43). U rus tilida ettita mustaqil soʻz turkumini (ot, sifat, feʼl, son, olmosh, ravish, holat kategoriyasi) va toʻrtta yordamchi soʻz turkumini (bogʻlovchilar, predloglar,) ajratadi. V.V.Vinogradov tasnifiga koʻra modal va undov soʻzlar asosiy (mustaqil) soʻz turkumlari qatoriga kiritilmagan. Ular alohida oʻrinni egallaydi.

Aytish joizki, V.V.Vinogradov tasnifi taʼsirida germanistlar ham uning grammatik gʻoyalaridan qisman foydalanib, soʻzlarni turkumlarga boʻlishda holat kategoriyasi va modal soʻzlarni ajratishdi (Б.А.Ильиш, 1971, c.29-30; Б.С.Хаймович, Б.И.Роговская, 1967, С.Д.Кацнельсон, 1972, c.28-29).

Lekin rus tili oʻquv grammatikalarida soʻz turkumi tasnifi (1970, c.304) V.V.Vinogradov tasnifidan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, 1970 yilda nashr qilingan Grammatikada soʻz turkumlari soni 10 tagacha ajratiladi:

I. Mustaqil soʻzlar:

- 1) ot,
- 2) olmosh-ot,
- 3) sifat,
- 4) son,
- 5) ravish,
- 6) feʼl.

II. Yordamchi soʻzlar:

- 7) predloglar,
- 8) bogʻlovchilar,
- 9) yuklamalar.

III . 10) undov soʻzlar (c.304).

Ingliz tilida soʻz turkumlari soni masalasi buyicha germanistlar fikri orasida katta farq yoʻq. D.A.Ilish (1971, c.28-30) soʻzlarni kami bilan 12 taga ajratsa, B.S.Xaymovich va B.I.Rogovskayalar esa ularni koʻpi bilan 14 ta belgilaydi. Ular “yes” va “no” “soʻz-javoblar”ni ham mustaqil soʻz turkumlariga kiritadilar (1967, c.38).

Bizning fikrimizcha, hozirgi zamon ingliz tilida soʻz turkumlari sonini 11 ta belgilash maqsadga muvofiqdir:

I. Nominativ funksiyaga ega boʻlgan mustaqil maʼnoli soʻzlar:

- 1) ot (noun),
- 2) sifat (adjective),
- 3) son (numeral),
- 4) olmosh (pronoun),
- 5) feʼl (verb),
- 6) ravish (adverb),
- 7) holat kategoriyasi (the category of state, stative).

II. Yordamchi soʻzlar:

- 1) artikllar (articles),
- 2) predloglar (prepositions),

3) bog'lovchilar (conjunctions),

4) yuklamalar (particles).

Ko'rinib turibdiki, semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra modal va undov so'zlar alohida leksik-grammatik so'zlar guruhi sifatida qaralib, so'z turkumlari qatoriga kiritilmadi.

Bunda sozlarning mavqeini, olimlarning qanday tushunishlariga qaramay, tan olish kerakki, ingliz tiliga xos bo'lgan artikldan tashqari, taqqoslanayotgan tillarda bir xil kategoriyaga ega bo'lgan so'zlar tizimi mavjuddir.

Tayanch so'z va iboralar

So'z turkumlari, mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, sintaktik funksiya, holat kategoriyasi, leksik ma'no, analitik tillar, sintetik tillar, ot, sifat, son ravish, olmosh, fe'l, artikl. Predlog, yuklama, bog'lovchi.

Savol va topshiriqlar

1. So'zlarni so'z turkumlari deb atalmish leksik-grammatik guruhlariga bo'lsihda tilshunoslar qanday mezonlardan foydalanadilar?
2. Akademik V.V.Vinogradov tomonidan taklif qilingan rus tili so'z tarkibini klassifikatsiya qilish usuli nimadan iborat va u boshqa tilshunoslar tomonidan qanday qo'llanilyapti?
3. So'zlarning tasnifi borasidagi chet el tilshunoslari fikrlarini keltiring.
4. Hozirgi zamon amaliy grammatika darsliklarida so'z turkumlari tasnifi qanday berilgan?

Ma'ruza 9

Morfologik tipologiya: Ot so'z turkumi kategoriyalari

Reja

1. Son.
2. Kelishik.
3. Jins (rod).
4. Jonlilik-jonsizlik.
5. Daraja.

Son – so'z o'zgartuvchi grammatik kategoriya bo'lib, til belgilari orqali ifodalangan predmetlar sonining bitta yoki bittadan ortiqligi qarama-qarshi quyilishini bildiradi. Birinchi holatda so'zlar birlik, ikkinchi holatda esa ko'plik shakllari orqali beriladi.

Ingliz va rus tillarida son kategoriyasi mavjud bo'lsa-da, ular bir xil ifodalanmaydi. Ingliz tilida bu kategoriya ko'proq otga xosdir. Olmoshlarda grammatik son kategoriyasi oppozitsiyada, ya'ni yourself-yourselves va other – others holatlarida namoyon bo'ladi (A.Lamprecht, 1972, c.241-242; Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, c.298-299).

Ko'rsatish olmoshlari this (these) va that (those)larning xarakteri hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda (Б.А.Ильин, 1971, c.69).

Rus tilida son kategoriyasi ot, sifat, tartib son, olmoshlarning barcha turiga (o'zlik olmoshlaridan tashqari) xosdir. Son kategoriyasi nomni bildirmaydigan so'z turkumlari ichida fe'lga xos (В.Г.Гаак, 1975, c.117-119; А.А.Потебня, 1958, c.224-227; А.И.Смирницкий, 1975, c.263-265; Русская грамматика, 1980, 1t., c.224-245).

Sonning ma'no funksiyasi bo'lmish kvantitativ funksiya faqatgina ot so'z turkumiga tegishli bo'lganligi sababli (С.Д.Кацнельсон, 1972, c.28; R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Starvik, 1973, c.347-350) biz diqqat e'tiborni son kategoriyasining aynan otlarda ifodalanishiga qaratamiz.

Ingliz va rus tillarida ko'plik, asosan, tashqi fleksiya orqali yasaladi. Bunda ba'zan so'z o'zagidagi undoshlarning o'zgarishi (rus tilida ingliz tiliga qaraganda ko'proq) kuzatiladi:

ingl. knife – knives,

rus. друг – друзья.

Ingliz tilidagi ba'zi otlarda anglo-sakson tilida mavjud bo'lgan so'z o'zagidagi unlilarning o'zgarishi orqali ko'plik yasash holati saqlanib qolgan (H.Sweet, 1955, c.102-105; K.Koerner, 1999, c.29-32). Shaki yasashning bu turi ichki fleksiya deyiladi. Taqqoslaymiz: goose-geese, foot-feet va hokazo (Л.С.Бархударов, 1975, c.49-51; N.M.Rayvskaya, 1976, c.68-69).

Rus tilidan farqli o'laroq, ingliz tilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ingliz tiliga chet tilidan o'zlashtirilgan ba'zi otlarning ko'plikni yasaydigan fleksiya bilan kirib kelganligidir (A.I.Смирницкий, 1972, с.72-74; И.К.Иртенъева, 1969, с.27-28; A.Lamprecht, 1972, с.72-74; J.Marle van, 1990, с.269-270). Taqqoslaymiz: antenna-antennae, datum-data, phenomenon-phenomena va hokazo.

Shunga qaramay, hozirgi paytda ingliz tilidagi –s fleksiya tomonidan chet tili fleksiyasini siqish chiqarish holatlarini hozirgi paytda kuzatish mumkin. Masalan, antenna, medium so'zlarining ko'plik shakllari antennae, media so'zlari bilan bir qatorda antennas, mediums so'zlari ham ishlatilmoqda (Т.М.Новицкая, Н.Д.Кучин, 1963, с.126-128; Г.А.Меновщиков, 1970, с.84-85; М.Флудерник, 1993, с.82-84; Н.Bochner, 1993, с.104-105).

Rus tili morfologiyasida ba'zi unlilar bilan tugaydigan boshqa tillardan kirib kelgan otlar o'zlarining ko'plik shaklini fleksiyasiz yasaydi. «Кенгуру», «пончо», «колибри» so'zlari shular jumlasidandir (В.В.Виноградов, 1972, с.214-215; В.Г.Гаак, 1975, с.129-130; Грамматика русского языка, 1954, 2 т., с.149; Русская грамматика, 1980, 1 т., с.445-446).

Ingliz tilida esa ko'plik shaklining fleksiyasiz yasalishi, asosan, german tilidan kirib kelgan otlarda kuzatiladi (В.Д.Аракин, 1979, с.140-141; И.П.Иванов, Л.П.Чахоян, 1976, с.201-202; М.Аronoff, 1976, с.26-27; Th.Becker, 1993, с.21-22). Taqqoslaymiz: deer, sheep, trout, snipe va hokazo.

V.V.Vinogradovning (1972, с.125) ta'kidlashicha, rus tilida "otlarda son kategoriasi otlarning turli grammatik va leksik-semantik xususiyatlarning qorishmasidan iborat bo'lgan predmet ma'nosini anglatuvchi murakkab tugunni tashkil qiladi". Ushbu fikr rus tiliga qaraganda ingliz tiliga ko'proq taalliluvchi.

Taqqoslanayotgan tillarda son kategoriasining otlarda shakli juda ham murakkab va xilma-xildir. Bunda, avvalombor, sonning shakllari hamisha ham birlik va ko'plikni ifodalavmasligini inobatga olish kerak (В.И.Жигadlo, И.П.Иванова, 1965, с.224-226; Л.С.Бархударов, 1975, с.88; И.П.Иванова, Л.П.Чахоян, 1976, с.203-204; С.Г.Татевосов, 2000, с.144-145) Bunday ma'nolar yakka, diskrit predmetlarga, ya'ni sanaladigan predmetlarga xosdir (Г.Н.Воронцова, 1960, с.291-293; К.А.Качалова, 1964, с.332-334; Г.А.Меновщиков, 1970, с.82-83; G.E.Booij, 1993, с.40-41). Taqqoslaymiz: rus. «стол»-«сто́лы» // ingl. day –days va hokazo.

Son shakllarining kvantitativ (sanoq) funksiyasini bajarmagan holatlari ham uchraydi (J.Rijkhoff, 1992, 131-132b.; Contrastive lexical semantics..., 1998, с.82-83; Ю.Н.Караулов, 1999, с.47-48). Bunday xususiyat faqat birlikda (singularia tantum) yoki faqat ko'plikda (pluralia tantum) ishlatiladigan otlar uchun xosdir (В.Д.Каушанская, Р.Л.Ковнер va boshqa., 1959, с.104-106; Duden, 1998, с.417; A.Lamprecht, 1972, с.114-115).

Taqqoslanayotgan tillarda singularia tantum o'zi ifodalagan ma'noga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) Moddiy ma'no bildiruvchi otlar:
ingl. milk // rus. «молоко»;
sugar // «сахар».
- 2) Jamlash ma'nosini bildiruvchi otlar:
ingl. infantry // rus. «пехота»
mankind // «человечество»
foliage // «листва».
- 3) Mavhum tushunchalarni bildiruvchi otlar:
ingl. hatred // rus. «ненависть»
peace // «мир»
health // «здоровье».

Taqqoslanayotgan tillarda pluralia tantum quyidagi ma'nolar qullanilgan otlarda ishlatiladi:

- 1) Ikki (juft) yoki bir necha qismdan iborat bo'lgan predmetlarda:
rus. «брюки»// ingl. trousers
«ножницы» // scissors
«кандалы» // fetters
«оковы» // tongs
- 2) Ko'p narsalarning yig'indisini, jamligini bildirgan so'zlar:
rus. «мемуары» // ingl. memoirs
«припасы» // victuals.

3) Moddalar, materiallar hamda ularning qoldiqlari ifodalanganda:

rus. «консервы» // ingl. preserves

«помои» // slops

Taqqoslanayotgan tillarda pluralia tantum ish-harakat va jarayonni ifodalaydi. Ammo ingliz va rus tillarida bu tipdagi otlarda leksik moslik kuzatilmaydi:

rus. «поступки» // ingl. goings-on;

«судебное

разбирательство» // proceedings

Bu bilan, albatta, ko'rib chiqilayotgan tillarda otlar o'rtasidagi pluralia tantum farqlari tugamaydi. Ular o'rtasida jiddiy tafovutlar ham mavjud:

1) Rus tilidagi pluralia tantumda ishlatiladigan otlar soni ingliz tilidagidan anchagina ko'p.

2) Bir tilda ko'plik va birlikda ishlatiladigan otlar ikkinchi tilda ushbu ma'nodagi otlarning ko'plik yoki birlik shakllariga mos tushmaydi. Masalan, rus tilida pluralia tantumda ishlatiladigan «деньги», «шахматы», «дрожжи» so'zlari ingliz tilida singularia tantumda ishlatiladigan money, chess, yeast so'zlariga to'g'ri keladi. Yoki aksincha, ingliz tilida pluralia tantumda ishlatiladigan clothes, greens, sweepings so'zlari rus tilida singularia tantumda ishlatiladigan «одежда», «зелень», «сор» so'zlariga to'g'ri keladi.

Rus tilida pluralia tantumda ishlatiladigan «ворота», «грабли», «сани» otlari bilan mos tushadigan ingliz tili otlari ko'plikda ham birlikda ham ishlatiladi: gate – gates, rake-rakes, sledge – sledges.

Singularia tantumning muhim bir xususiyati haqida to'xtalib o'tishimiz zarur. Faqat o'zlarining asl ma'nosida qo'llanilgan otlargina mazkur tipdagi otlar qatoriga kiradi (Л.С.Бархударов, 1975, с.104–105; И.П.Иванова, Л.Р.Чахоян, 1976, с.240-241; Н.Bochner, 1993, с.101-102; G.E.Boij, 1993, с.42-43; Duden, 1998, с.444-445). Ko'chma ma'noda kelganda ulardan ko'pchiligi ko'plik yoki birlik shaklida kelishi mumkin (Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, с.121-122; Г.Н.Воронцова, 1960, с.247-248; В.Д.Каушанская, Р.Л.Ковнер, 1959, с.249-250).

Alohida ajratilish xususiyatlariga ega bo'lmagan singularia tantumdagi moddiylik ma'nosini ifodalaydigan otlar ko'plikda kvantitativ vazifasini bajarishdan mahrumdir: ingl. the delicate wines he had swilled without tasting them (Wain) – rus. «вина»; yoki rus. «вода-воды» (океана) // ingl. water-waters (R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Starvik, 1973, с.448-449; N.M.Rayevskaya, 1976, с.280-281; Грамматика – 1970, с.381-382).

Bu yerda ma'lum semantik o'zgarishlar aniq va ravshan ko'rinib turibdi. Bu esa ko'plik shakli (А.И.Смирницкий, 1959, 247-248b.; 1975, 177-179b.; 1956, 39-40b.; 1955, 20-21b.; Б.А.Ильиш, 1971, 241-243b.; 1948, 172-173b.; L.D.Isakova, 1999, 98-99b.; Ю.Н.Караулов, 1999, 131-132b.) yoki –s morfemasi alohida leksik ma'noga ega bo'lmoqda deyishga asos bo'la oladi (Л.С.Бархударов, 1875, с.147; Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, с.214-215).

Bundan tashqari, ingliz tilida bir qator moddani bildiruvchi otlar ko'plik va birlikda ishlatilganda, mazkur moddalardan yasalgan predmetlarni bildirishi mumkin: an iron (pl.irons) – «утюг», a copper (pl.coppers) – «медная монета, медяк» (W.U.Wurzel, 1987, с.90-91).

Mavhum otlardagi singularia tantum ba'zi holatlarni yoki biror hodisaning tomonlarini ifodalaydi. Taqqoslaymiz: rus. «радость детства» - ingl. the joys of the childhood.

Bu holat ingliz tili uchun ko'proq xarakterlidir (M.Anoroff, 1976, с.31-32; Th.Becker, 1993, с.19-20; Н.Bochner, 1993, с.103-104; G.Eboij, 1993, с.40-42). Quyida ajratilgan misollardagi so'zlarning rus tilidagi muqobillari ko'plik shaklida ishlatilmaydi:

They literally know nothing of the **injustices** they've perpetrated... the English government's **policies** let directly to potato famine... (Wain). Three **Loves** (Cronin).

Mavhum otlar shaxs ifodalagan belgini bildirish uchun ko'plik yoki birlik shaklida qo'llanilishi mumkin: «красота» - beauty // «красавица» - a beauty.

Taqqoslaymiz: The girl behind the reception desk was a classic Welsh beauty (Wain).

Ingliz tili otlarida son kategoriyasi (rus tilidagi muqobillari bilan qiyoslanganda) quyidagi xususiyatlarga ega:

1) – s fleksiyasi bilan tugaydigan bir qator so'zlar faqat birlikda qo'llaniladigan otlar (news, measles, summons) yoki ham birlik ham ko'plikda ishlatiladigan otlar safiga kiradi (bunday otlarning son ko'rsatgichi bo'lib, ular bilan moslashgan kesim yoki kishilik olmoshlarining shakllari hisoblanadi).

Taqqoslaymiz:

No news is good news (Proverb). Most of the children here had measles. Those that haven't are sure to get it sooner or later (Cronin).

Ammo: The headquarters of my unit has already withdrawn (Crichton). I don't care what your policies are (Braine).

2) Ko'plik shakli bo'lmagan ko'pgina jamlovchi otlar ko'plikda ishlatiladigan otlar hisoblanadi (cattle, police, gentry va hokazo) yoki ular, asosan, kesim bilan ko'plik shaklida moslashadi (poultry).

3) Jamlovchi otlarning ko'pi denotatlariga diskritlik (alohidalik) xususiyati xos yoki xos emasligiga qarab birlik yoki ko'plik ma'nosini ifodalaydi (.L.Bybee, 1988, 119-120b.; Contrastive lexical semantics... 1998, 17-19b.). Taqqoslaymiz:

"Is this party for you?" Sarie asked impersonally (Abrahams).

Ammo:

Gerald Twyfold's party were dining fashionably late (Wain).

4) Ba'zi otlar har xil ma'noga ega bo'lgan ikkita ko'plik shakliga ega:

«братья» // brother – brothers va

«собратья, коллеги» // brethren;

«гений» // genius – geniuses va

«духи» // genii.

5) O'lovchov birliklarini bildiruvchi otlardan oldin birorta kvantifikator (sanoq son) kelsa, bu otlar ko'plikni ifodalash uchun birlikda ishlatiladi:

A bag of 30 brace of birds..

Two yoke of oxen.

He could be better than twenty stone.

Six head of cattle (G.Scheurwags, 1959, 63-64b.).

Yuqorida eslatib o'tilgan ko'plik shaklining alohida leksik ma'noga ega bo'lish holatlarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilida bu jarayon rus tiliga nisbatan ancha ko'p kuzatiladi (Qarang: W.Croft, 1991, c.27-28; M.Fludernik, 1993, c.85-87; J.A.Hawkins, 1990, c.224-225; K.Koerner, 1999, c.104-105; Лингвосинергетика...2000, c.109-111; I.A.German, 2000, c.119-122). Bu haqda ingliz tilida colours – «знамя», «флаг», customs – «таможенные пошлины», pains – «усилия», «старания» kabi so'zlarining mavjudligi dalolat beradi. Mazkur so'zlar clour («цвет»), custom («обычай»), pain («боль») so'zlaridan semantik jihatdan ajralgan bo'lib, rus tilidagi muqobillarini ularning sinonimlari deb qarash to'g'ri bo'ladi. L.S.Barxudarov va D.A. Stelinglar ham asosan shunday fikrni qo'llab-quvvatlaydilar (1973, c.36).

Rus tilida ko'plik shaklidagi otlarning boshqa leksik ma'noga ega bo'lishi masalasiga keladigan bo'lsak, buni «грязи», «воды (лечебные)» va hokazo so'zlarida kuzatishimiz mumkin (З.В.Беркетова, 2000, c.69-71).

2. Kelishik kategoriyasi

Kelishik – otning so'z o'zgartuvchi kategoriyasi bo'lib, ot tobe shaklini ifodalab kelgan predmetning bosh so'z ifodalagan boshqa predmetga, ish-harakatga, holatga bo'lgan munosabatini bildiradi (И.К.Иртенъева, 1969, c.67-68; А.И.Смирницкий, 1975, c.56-57; A.Lamprecht, 1972, c.114; R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Starvik, 1973, c.471-172).

Ingliz va rus tillarida kelishik kategoriyasi sohasida anchagina farqlar mavjud.

Rus tilida, ko'pligini yasaganda fleksiya qabul qilmaydigan boshqa tillardan kirib kelgan otlardan tashqari, deyarli hamma otlar turlanadi (С.М.Колесникова, 1998, c.24-25).

Ingliz tilida esa faqat otlar va ba'zi olmosh turlari (kishilik, so'roq va who bog'lovchisi, gumon, inkor va one, body so'zlari bilan kengayadigan, one shaxssiz olmosh) turlanadi (N.M.Rayevskaya, 1976, c.118-119; H.Sweet, 1955, c.298-299; Th.Vennemann, 1974, c.350-351; К.Е.Майтинская, 1969, c.248-251; М.Н.Лапшина, 1998, c.114-117).

Ingliz tilida turlanadigan so'zlarning kelishikdagi shakli ikki xil bo'ladi. Otlar va olmoshlarda (kishilik olmoshlaridan tashqari) umumiy (common) va egalik (possessive, genitive) kelishiklari farqlanadi.

Kishilik olmoshlarida kelishiklar bosh (nominative) va ob'ekt (objective) kelishiklari deb ataladi. Who olmoshi bundan mustasno bo'lib, ingliz tilida uchta shaklga ega bo'lgan yolg'iz so'z hisoblanadi: who-bosh kelishik, whose – qaratqich kelishigi va whom – ob'ekt kelishigi (E.M.Позднякова, 1999, c.46-47).

Rus tilida otlar va olmoshlardan (hammasi emas) tashqari sifatlar va sonlar ham turlanadi. Kelishik paradigmasi oltita shakldan iborat (A.B.Бондаренко, 1998, c.26-28).

Ingliz tilida tobe va tobe bo'lmagan qaratqich kelishigi farqlanadi (A.Lamprecht, 1972, c.320-321; Б.С.Хаймович, Б.И.Роговская, 1967, c.148).

Birinchi holatda u hamisha otli so'z birikma tarkibiga ad'yunkt sifatida kiradi, masalan:

my sister's bag (Г.Н.Воронцова, 1960, 302-303b.; W.Croft, 1991, 34-35b.; S.Fagan, 1992, 326-328b.).

Ikkinchi holatda esa – kelishik shakli mustaqildir. Taqqoslaymiz: Well, that was Gareth's problem. Roger's was to get some lunch (Wain). Is he a friend of Daddy's (id).

Tobe qaratqich kelishigining semantik vazifasi ifodalanayotgan ma'noga nisbatan quyidagi munosabatlarni bildiradi:

- 1) tegishlilik, egalikni: Gareth's bus;
- 2) butun bir bo'lakning bir kichik qismga munosabatini: the old man's eyes, the water's edge;
- 3) aniqlanmishga nisbatan sub'ekt fikrining yo'naltirilganligini: Eden's decision, Hugh's visit (Snow);
- 4) aniqlanmishga ob'ektning yo'naltirilganligini (nisbatan kam): They seemed to be laid down in black and white, that evening after George's trial (Snow).
- 5) shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni: my sister's friend;
- 6) sifatga xos munosabatni: in some special women's clinics. What a dog's life (Wain);
- 7) o'lchov munosabatini (vaqt, masofa, og'irlik, narx-navo ma'nolarini anglatgan so'zlarda): a six weeks' tour, a two miles walk, several shillings' worth (M.Aronoff, 1976, 44-45b.; H.Bochner, 1993, 106-107b.; G.E.Booij, 1993, 28-30b.; J.L.Bybee, 1988, 120-122b.; W.Croft, 1991, 23-24b.).

Ko'rib chiqilayotgan kelishik (egalik, tegishlilik ma'nosidan tashqari) bir qancha boshqa ma'nolarni ham ifodalashi kuzatildi. V.N.Jugadlo, I.P.Ivanova, Л.Л.Июфиклар (1965, c.41) ta'kidlaganlaridek, bu kelishikni qaratqich kelishigi deb atasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rus tilida yuqorida keltirilgan semantik munosabatlarning birinchi uchtasi va beshinchisi qaratqich (roditelniy) kelishikdagi predlogsiz shakllari orqali amalga qo'llaniladi:

Taqqoslaymiz: «автобус Гарета», «глаза старика», «решение Идена», «подруга моей сестры» va hokazo.

Qolgan munosabatlarni ifodalash uchun kelishik shakllari predlog va sifatlar bilan ishlatiladi:

ingl. George's trial // «процесс (суд) над Джорджем»;

ingl. in some special women's clinics // rus. «в некоторых специальных
женских клиниках»;

ingl. a six weeks' tour // rus. «шестинедельная поездка» va hokazo.

Ingliz tilida qaratqich kelishigi leksik jihatdan chegaralangan. Shuning uchun nufuzli ingliz tili grammatikasi darsliklarida (Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг. 1973, c.247-248; В.Д.Каушанская, Р.Л.Ковнер, 1959, c.271; К.А.Качалова, 1964, c.348) berilishicha, bu kelishikda predmetlar va ma'lum semantikaga ega bo'lgan ba'zi jonsiz predmetlar ishlatiladi, degan fikrni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish yaramaydi.

Faktik mareriallar tahlili ko'rsatishicha, jonsiz predmetlarni ifodalovchi otlar ma'lum semantik tasnifga ega emas.

Bunda, D.Sommerfeldning "The Inheritance" romanida qaratqich kelishigi shaklida quyidagi jonsiz predmetlar va tushunchalarni ifodalovchi otlarning qo'llanishligi dalil bo'la oladi: street, room, kettle, bed, music, floor, face, voice, water, fate, business, tank, engine, train, wall, gasworks.

A.I.Smirmitskiyning (1959, c.126) bu o'rinda qaratqich kelishigini "qariyb hamma otlarda qo'llash mumkin" degan fikri o'rinli ekanligi yana bir karra tasdiqlanadi.

Qaratqich kelishigidagi otlarning birlik va ko'plik shaklini yasash uchun (oxiri -(e)s bilan tugamagan so'zlardan tashqari) bir xil vositadan foydalanadi: man's-men's, child's – children's.

Ko'p holatlarda –s morfemasi butun bir so'z birikmasiga qo'shiladi. Natijada uning turlanayotgan komponentdan uzoqlashish holati vujudga keladi: Well, she is with woman who laced so tightly's name was Matheson (Forster).

Yuqorida ko'rilgan oxirgi ikkita holatga o'xshash holatlarning mavjudligi ba'zi grammatikachilar uchun –s so'zning qismi bo'la olmaydi, –s umuman fleksiya sifatida, xususan, kelishik fleksiyasi sifatida qabul qilinishi mumkin emas, deb ta'kidlashiga asos bo'ladi. (Б.С.Хаймович, Б.И.Роговская, 1967, с.117; A.Lamprecht, 1972, с.213). Bundan kelib chiqib, ingliz tili otlarida kelishik kategoriyasi mavjud emas, degan xulosa chiqarish mumkin (Г.Н.Воронцова, 1960, с.181-183).

Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan birini mustaqil qaratqich kelishigi tashkil qiladi (R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Starvik, 1973, с.448).

Otli so'z birikmalariga kiruvchi tobe qaratqich kelishigiga qaraganda mustaqil qaratqich kelishik otli so'z birikmalaridan tashqari ad'yunkt sifatida fe'lli so'z birikmalar tarkibiga ham kiradi:

It was that pain, added to George's, which led me into an error in legal tactics (Show). He wanted to leave the town, find a firm similar to Eden's... (ib)

Kuzatishlar qaratqich kelishigi mustaqil shaklining ishlatilishida alohida hodisa uning, asosan, o'rin – joy ma'nosida ko'p qo'llanilinishini ko'rsatadi:

I stayed at Mrs.Reed's (Show). "Let's go up to Lord's" (J.Galsworthy).

Bunday shakllarnig kelib chiqish manbai haligacha noma'lum. O'xshash holatlarda –s ning vazifasiga keladigan bo'lsak, hatto ingliz tilida kelishiklarni tan oladiganlar ham uni bu yerda fleksiya sifatida qabul qilmaydilar (В.Д.Аракин, 1979, с.114-115).

3. Jins kategoriyasi

Ingliz va rus tillari o'rtasida jins kategoriyasida son va kelishik kategoriyalariga nisbatan farqlar juda ham sezilarli darajada. Chunki jins rus tiliga xos grammatik kategoriyalardan biri bo'lsa, ingliz tilida esa bu kategoriya mavjud emas (А.В.Бондарко, 1998, с.17-18).

Rus tilida jins til kategoriyasi sifatida hamma otlarga taalluqlidir. U faqat pluralia tantumda ishlatiladigan otlarga, sifatarga, tartib sonlarga, olmoshlarning ko'pchiligiga, nomni bildirmaydigan so'z turkumlaridan – fe'ning o'tgan zamon birlikdagi shakliga xos emas. Jinsning grammatik ma'nosi (женский, мужской, средней) bu tilda, avvalombor, moslashuvning sintaktik shakllarida namoyon bo'lishidir: rus. «круглый стол», «белая стена», «широкое поле», «студент писал», «студентка писала», «стекло блестело». Ana shularni inobatga olgan holda rus tili grammatikasi mualliflari (1970, с.317) rus tilida jinsni sintaktik kategoriya deb hisoblaydilar.

Ingliz tilida jins ma'nosini ifodalaydigan maxsus grammatik vositalar yo'q. Faqat ayol jinsini ifodalovchi yagona –ess suffiksi mavjud: actor-actress, heir-hieress, tiger-tigress. Ammo A.I.Smirnitskiyning (1959, с.147) ta'kidlashicha, bu yerda jins ma'nosi ifodasi grammatikaga emas, balki leksikaga tegishlidir. Actress so'zini actor («актёр») so'zi bilan taqqoslaganda actress so'zi umuman boshqa tirik jonni, ya'ni ayol jinsiga xos tirik jonni bildiradi. Actor-actress munosabati xuddi father-mother munosabatining o'zidir. Shu bilan birgalikda –ess suffiksi grammatik emas, balki leksik ma'no kasb etuvchi so'z yasovchi suffiks hisoblanadi (А.И.Смирницкий, 1959, с.147-148).

III shaxs birlikdagi he, she, it kishilik olmoshlari haqida gapiradigan bo'lsak, jins ma'nosi ularning leksik ma'nosiga ko'ra ajratiladi. Xuddi shunday holat himself, herself, itself o'zlik olmoshlarida ham kuzatiladi. Bu yerda jins ma'nosi ularning bosh komponentlarida o'z ifodasini topgan. Demak, hozirgi zamon ingliz tilida jins leksik kategoriya hisoblanadi (В.Д.Аракин, 1979, с.117-118).

4. Jonlilik va jonsizlik kategoriyasi

Jonlilik va jonsizlik kategoriyasi – leksik-grammatik kategoriya bo'lib, bunda nomlanayotgan predmetlar jonli (tirik jon) va jonsiz (voqea-hodisalar, faktlar, ish-harakat, holat va hokazo jonsiz tabiatga ega predmetlar) predmetlarga ajratiladi (Грамматика современного русского литературного языка, 1970, с.321).

Rus tilida jonlilik va jonsizlik kategoriyasi ba'zan grammatik (morfologik) jihatdan namoyon bo'ladi. Masalan, jonli hisoblangan ikkinchi tip bo'yicha turlanadigan erkak jinsidagi otlar qaratqich (родительный) va tushum (винительный) kelishigida birlikda omonimik shakllarga ega bo'ladi. Ushbu turlanish va jinsga

tegishli bo'lgan jonsiz otlar esa bosh (именительный) va tushum (винительный) kelishigida birlikda omonimik shakllarga ega bo'lyapti: rus. «нет коня» - «вижу коня», ammo: «стол стоит» - «вижу стол».

Jonlilik ma'nosi ko'plikda grammatik jihatdan uchta jinsdagi otlarning qaratqich va tushum kelishiklarida bir xil shakllarga ega bo'lishi bilan ifodalansa, jonsizlik ma'nosi bosh (именительный) va tushum (винительный) kelishiklari shakllarining mos tushushu bilan ifodalanadi: rus. «нет студентов» - «вижу студентов», «нет студенток» - «вижу студенток», «нет детей» - «вижу детей»; ammo: «столы стоят» - «вижу столы», «стены белеют» - «вижу стены» - «вижу окна».

Ingliz tilida jonlilik va jonsizlik ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalar mavjud emas. Otlarda jonlilik va jonsizlik ma'nosi, asosan, -er, -or, -ee, -eer, -ist, -ite leksik-grammatik morfemalar yordamida voqiyalanadi (Г.Н.Воронцова, 1960, с.330-332).

Olmoshlarda esa bu ma'no leksik jihatdan ifodalanadi: ikkinchi komponenti -body va -one so'zlarining qo'shilishidan tashkil topgan jonli narsalarni anglatgan qo'shma gumon olmoshlari ikkinchi komponenti -thing so'zining qo'shilishidan tashkil topgan jonsiz narsalarni anglatgan olmoshlarga qarama-qarshi qo'yiladi.

O'zlik olmoshida mazkur ma'nolar bosh komponentning semantik vazni orqali ifodalanadi: himself, herself, itself.

Aytib o'tilganlardan kelib chiqib, Г.Н.Воронцова (1960, с.334-335) ingliz tilida jonlilik va jonsizlik kategoriyasini leksik-morfologik kategoriya sifatida baholaydi.

5. Daraja kategoriyasi

Daraja kategoriyasi – bu grammatik kategoriya bo'lib, sifat yoki ravish tomonidan ifodalangan belgi yoki xislatning yoqori yoki pastligi, ortiq yoki kamligini ifodalaydi. Daraja uch guruhga bo'linib, birinchi guruh (oddiy daraja) markerlanmagan bo'lsa, ikkinchi va uchunchu guruh (qiyosiy va orttirma daraja) markerlangan bo'ladi.

Taqqoslanayotgan tillarda bu kategoriya ko'proq sifatlar va ravishlarga xosdir.

Quyida gap faqat sifatlar haqida boradi.

Taqqoslanayotgan tillarda darajaning sintetik va analitik shakllari farqlanadi.

Rus tilida qiyosiy darajaning sintetik shakllari -e, - ee (ko'pincha ildizdagi undosh tovush o'zgaradi) suffikslari yordamida yasaliadi.

Rus tilida orttirma darajaning sintetik shakllari ikki yo'l bilan yasaliadi:

- 1) -ейш va -фйш suffikslari yordamida,
- 2) наи- prefiksini qo'shish orqali yasaliadi.

Ingliz tilida bir bo'g'inli sifatning ko'p tarqalganligi sababli sintetik shakllar har ikkala darajada chegaralangandir. Sintetik shaklga ega bo'lgan ikki bo'g'inli sifatlar soni ko'p emas.

Qiyosiy daraja shakli -er suffiksi yordamida, orttirma daraja shakli esa -est suffiksini qo'shish orqali yasaliadi:

strong stronger (the) strongest

pretty prettier (the) prettiest

complete completer (the) completest

Rus tilida darajaning analitik shakli более (qiyosiy daraja uchun), самый (orttirma daraja uchun) so'zlari yordamida yasaliadi. Bu so'zlar oddiy darajada kelgan so'zlarga nisbatan prepozitsion holatda keladi: «сильный» - «более сильный» - «наиболее сильный».

Ingliz tilida esa qiyosiy va orttirma darajaning analitik shakllari more- (qiyosiy daraja uchun) va most- (orttirma daraja uchun) sifatlarining qo'shilishi bilan yasaliadi: beautiful - more beautiful – (the) most beautiful.

Ushbu shakllar talqiniga qarshi e'tirozlarning mavjudligi, shubhasiz, katta qiziqish uyg'otadi (В.Н.Жигадло, И.П.Иванова, Л.А.Июфик, 1965, с.41).

Taqqoslanayotgan tillarda mazmunan mos tushadigan qiyosiy va orttirma darajalarini suppletiv yo'l bilan yasaydigan shakllar mavjud: ingl. good – better – best; rus. «хороший» - «лучше» - «наилучший»; ingl. bad – worse – worst, rus. «плохой» - «хуже» - «наихудший».

Ingliz tilida many (more, most) va little (less, least) miqdorni bildirgan sifatning qiyosiy va orttirma darajalarini suppletiv yo'l bilan yasaliadi.

Rus tilida inglizcha little so'ziga mos shakl mavjud: «маленький (малый)» - «меньше» - «наименьший». Lekin bu atigi shakliy moslik, xolos.

Sintetik usul bir bo'g'inli sifatlarining darajalarini yasash uchun xos bo'lsa-da, bir bo'g'inli sifatlar uchun analitik usul umuman yot deyish noto'gri bo'ladi. Taqqoslaymiz:

The air thin and sky more pale (J.Steinbeck). "Because it's more true" (J.Stone). "It's more smooth words. What did my father say?..." (R.Crichton).

Mazkur shakl odatda qiyoslanayotgan predmet yo'q bo'lgandagina ishlatiladi.

Ingliz tilida daraja shakllarining o'z leksik ma'nosiga ega bo'lish holatlari ham kuzatiladi. Masalan, qadimgi ingliz tili qiyosiy va orttirma darajalari shakllari bo'lmish **ieldra** va **ieldest** so'zlari alohida ma'noga ega bo'lgan elder va eldest so'z shakllariga o'zgargan. Bu esa **old** sifatining yangi daraja shakllari vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday holat latter, last va next so'zlarida ham kuzatiladi.

Rus tilida daraja shakllarining o'z leksik ma'nosiga ega bo'lish holatlarini quyidagi so'zlarda kuzatish mumkin: «высшее образование»; «младший, старший лейтенант»; «низший тип животных».

Savol va topshiriqlar

1. Kelishik, son va jonlilik-jonsizlik kategoriyalari qanday aniqlanadi? Taqqoslanayotgan tillarda mazkur kategoriyalarning morfologik usulda ifodalanish yo'llari qanaqa?
2. Singularia tantum va pluralia tantum nima va taqqoslanayotgan tillarda qaysi otlar bu guruhlariga tegishli?
3. Son shakllarining kvantitativ funksiyani bajarmagan holatlarni sanab bering.
4. Taqqoslanayotgan tillarda kelishiklar paradigmasining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
5. Ingliz tili qaratqich (родительный) kelishigining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Taqqoslanayotgan tillarda son, kelishik, jins va jonlilik-jonsizlik kategoriyalarida tipologik o'xshash va farqli tomonlari nimalardan iborat?
7. Son va daraja shakllarining leksik ma'no kasb etish hodisasiga misollar keltiring.
8. Mazkur tillarda darajaning ifodalanishida qanaqa asosiy farqlar mavjud?
9. Taqqoslanayotgan tillarda suppletiv yo'l bilan daraja ifodalovchi sifatlarni ayting.

Ma'ruza 10

Morfologik tipologiya: Fe'ning kategoriyalari.

Reja

1. Tus.
2. Nisbat.
3. Zamon.
4. Mayl.
5. Shaxs, son.

Ingliz va rus tillarida tus kategoriyasi qiyosiy-tipologik tahlili jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Buning sababi har ikki tilda ham bu kategoriyaning etarli darajada ishlanmaganligidir. Bu borada akademik V.V.Vinogradovning (1972, c.379) fikri o'rinalidir: "Rus tilida tus kategoriyasi - rus grammatikasining eng qiyin, munozarali va yaxshi ishlanmagan bo'limidir"

Ingliz tilida tus kategoriyasini talqin etishda qiyinchilikning kelib chiqishining asosiy sabalardan biri - bu kategoriya mavjudligining inkor qilinganligidadir. Hozirgi paytda ham G.Suit, O.Espersen (1958), I.Vaxek, B.Trnka, R.Zandvoort va N.F.Irtenyeva (1969) kabi mashhur olimlar bu kategoriyaning mavjudligini inkor qiladilar.

Ba'zi grammatikachilarning fikricha, ingliz tilida tus kategoriyasi mavjud bo'lib, u zamon kategoriyasi bilan bog'liq va u o'zi alohida mavjud bo'la olmaydi (B.H.Жигадло, И.П.Иванова, Л.Л.Июфик, 1965, c.92).

Tipologik qiyoslashda qiyinchilikning yuzaga kelishidan sabab - rus va ingliz tillaridagi (agar bu kategoriyaning mavjudligi tan olinsa) tus kategoriyasining mazmun planida jiddiy farqlarning mavjudligidadir. "Fe'l ifodalagan ish-harakatning o'z ichki imkoniyatiga munosabati" rus tilida tusning umumiy grammatik ma'nosi hisoblanadi (Современный русский язык...1964, c.117).

Ingliz tilida tus kategoriyasi deganda «ma'lum paytda ish-harakatning sodir bo'lish xaraktei, tarzi» anglashiladi (B.H.Жигадло, И.П.Иванова, Л.Л.Июфик, 1965, c.92).

Rus tilida tusning ikki turi farqlanadi: tugallangan ma'no anglatgan (совершенный) va tugallanmagan ma'no anglatgan (несовершенный). Tusning tugallangan ma'no anglangan turi ish-harakatning tugallanganligini bildirsa, masalan, «списал», «разломал», tusning ikkinchi turi esa ish-harakatning tugallanmaganligini anglatadi, masalan, «списывал», «разламывал».

Ingliz tilida ham tusning ikki turi farqlanadi: umumiy (common) va davomiylikni bildiruvchi (continuous).

Umumiy tus shakllari hamma zamonda bajarilgan ish-harakatni ifodalaydi, ish-harakatni hamda uning bajarilganligini qayd etish ularning grammatik kategorial ma'nosini tashkil qiladi.

Davomiylikni bildiruvchi tus shakllari nafaqat shaklan, balki semantik jihatdan ham ajralib turadi. Ular ish-harakatning amalga oshishini, rivojini ko'rsatadi. «Davomiylikni bildiruvchi tus shakllari ish-harakatni namoyish qilish, amalga oshishini ko'rsatish vositasi hisoblanadi» (Г.Н.Воронцова, 1960, с.191).

Ifoda planida ham taqqoslanayotgan tillarning tus kategoriyalari o'rtasida katta farq bor.

Rus tilida tus oppozitsiyasi turli vositalar orqali namoyon bo'ladi. Prefiksatsiya va suffiksatsiya ular orasida eng muhimlaridan hisoblanadi: «обуздать» - «обуздывать», «вздохнуть» - «вздохать», «строить» - «построить», «делать» - «сделать».

Tus oppozitsiyasini yaratishda boshqa vositalardan quyidagilarni kuzatish mumkin:

1) dastlabki so'zdagi tematik unli o'zgaradi: «перетупить» - «переступить», «разрешать» - «разрешить»;

2) urg'uning o'zgarishi orqali: «засыпать» - «засыпать».

Tus juftliklari har xil ildizli leksemalar yordamida yasalishi mumkin: «брать» - «взять».

Oppozitsiyada fe'ning tugallangan shakli (prefiksatsiya hodisasi kuzatilganda) ham tugallanmagan shakli ham (suffiksatsiya hodisasi kuzatilganda) kelishi mumkin.

Ingliz tilida oppozitsiyada fe'ning davomiylikni bildiruvchi shakli kelib, u **be+Ving** analitik yo'l bilan yasaladi writes – is writing, has written, - has been writing.

Yuqoridagilardan ingliz va rus tillari tus kategoriyasi o'rtasida tus shakllari soni hisobga olinmaganda shaklan hech qanday o'xshashlik yo'qligi kelib chiqyapti.

Semantik jihatdan ham hech qanday o'xshashlik mavjud emas.

Tusning umumiy shakli rus tilida tugallangan va tugallanmagan tus shakllariga mos kelishi mumkin: ingl. I came; rus. «Я пришёл» va «Я приходил».

Tusning davomiylik shakli rus tilida tugallanmagan shakliga to'g'ri keladi (В.Д.Аракин, 1979, с.117-118; Л.С.Бархударов, 1975, с.103-104; З.В.Беркетова, 2000, с.69-71).

1. Nisbat kategoriyasi

Ingliz va rus tillarida nisbat kategoriyasi qiyosiy-tipologik tahlili tus kategoriyasidek jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bunga sabab, nisbat kategoriyasi tushunchasining turli xil talqin qilinishidir. Masalan, ba'zi grammatikachilar nisbatni grammatik kategoriya sifatiga kiritsalar, boshqalari uni leksik – grammatik yoki klassifikatsion kategoriya sifatiga kiritadilar (Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, с.323-324; Л.Блумфильд, 1968, с.526-527; И.А.Герман, 2000, с.109-111).

Ba'zi grammatikachilar, nisbat – bu fe'l ifodalagan ish-harakatning sub'yektga munosabatidir, deyishsa, boshqa grammatikachilar, nisbat – sub'yekt va ob'yekt o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi, degan fikrni aytishadi. Yana bir guruh grammatikachilar, ish-harakatning sub'yekt va ob'yektga munosabati nisbat kategoriyasidir, degan g'oyani ilgari suradilar (В.Г.Гак, 1975, с.137-138).

Nisbat tushunchasining turli xil talqini taqqoslanayotgan tillarda nisbatning turi haqidagi masalaning turlicha yechilishiga sabab bo'ldi (Ю.Н.Караулов, 1999, с.114-116; В.Д.Каушанская, Р.Л.Ковнер, 1959, с.241-242).

Ba'zi grammatikachilar rus tilida nisbatni ikkiga – aniqlik va majhullik nisbatlariga ajratadilar. Boshqalari esa nisbatni uchga – aniqlik, o'zlik va majhullik nisbatlariga ajratadilar (И.П.Иванова, Л.П.Чакочян, 1976, с.171-172; Б.А.Ильиш, 1948, с.208-209; 1971, с.214-215; И.К.Иртеньева, 1969, с.107-108).

Ingliz tilida ko'p grammatikachilar nisbatni ikkiga – aniqlik va majhullik nisbatlariga ajratishadi.

Ba'zi olimlar ular qatoriga yana bitta – o'zlik nisbatini qo'shib, o'z o'rnida uni ikkiga bo'ladilar: shaxs-o'zlik nisbati (He washed himself) va betaraf – o'zlik nisbati (He enjoyed himself) (В.Н.Жигадло, И.П.Иванова, Л.Л.Иофик, 1965, с.127).

Nisbat ta'rifi masalasi borasida biz “nisbat ish-harakatning sub'yektga ma'lum oppozitsion sistemadagi munosabatini” ifodalaydigan kategoriya sifatida qaraydigan hamda nisbatning ikki turi, ya'ni aniqlik (aktiv) va majhullik (passiv) nisbatlarini ajratadigan tilshunoslar fikriga qo'shilamiz.

Majhul nisbatidagi fe'llar sub'yektga yo'naltirilgan ish-harakatni ifodalasa, aniqlik nisbatidagi fe'llarda esa ish-harakatning sub'yektga yo'naltirilganlik belgisi bo'lmaydi.

Taqqoslanayotgan tillarda majhul nisbat semantik va shakl jihatdan nisbat oppozitsiyalarining markerlangan bo'lagi hisoblanadi.

Har ikki tilda nisbat kategoriyasi yasallishiga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi.

Rus tilida majhul nisbat sintetik usul bilan yasalganda –ся qo'shimchasini qo'shish orqali (masalan, «пишется», «строится»), analitik usul bilan yasalganda «быть» yordamchi fe'li va mustaqil fe'lining sifatdosh shakli qo'shilishi bilan yasaladi (masalan, «был построен», «построен»).

Ingliz tilida ham majhul nisbat shakli xuddi shu usul orqali yasaladi - to be ko'makchi fe'li mustaqil fe'lining sifatdosh II shakliga qo'shiladi: was written, built; has been written, brought va hokazo.

Rus tilida majhul nisbatda kelgan fe'l uchun o'zidan keyin agensni bildiruvchi tvoritelniy kelishikdagi otning (olmoshning) kelishi xosdir («книги читаются студентами»).

Ingliz tilida majhul nisbatda kelgan fe'llar shu funksiyada o'zidan keyin **by** yoki **with** predlogi bilan kelgan otning (olmoshning) kelishi bilan xarakterlanadi: «This work was done by my friend»; «The window was broken with a stone».

Rus va ingliz tillarida majhullik qurilmasining ishlatilishidagi ahamiyatli farqlardan biri, rus tilida majhullik qurilmasidagi ega ushbu qurilmaning aniqlik nisbatiga aylanganida faqat vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelishidir, masalan: книги читаются студентами – студенты читают книги.

Ingliz tilida esa majhullik qurilmasida ega vazifasida ushbu qurilmaning aniqlik nisbatida vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, hatto predlogli to'ldiruvchi vazifasida keladigan bo'laklar kelishi mumkin:

- I. «They offered him an interesting job» –
«He was offered an interesting job».
- II. «They laughed at him» -
«He was laughed at».

Ingliz tili majhullik nisbatining bu xususiyati uning rus tili majhullik nisbatiga qaraganda ko'proq qo'llanilishiga imkoniyat yaratadi (Ю.Н.Караулов, 1999, с.117-118; S.M.Kolesnikov, 1998, с.150-151; Лингвосинергетика... 2000, с.91-92.; Т.А.Майсак, 2000, с.10-12; Р.З.Мурясов, 2000, с.44-45).

Rus tilida nisbat kategoriyasi haqida gap ketganda o'zlik fe'llari ham ishlatiladi. O'zlik fe'llariga majhullik nisbatidagi fe'llardan tashqari –ся(-сь) postfiksi bilan kelgan barcha fe'llar kiradi. Bundan o'zlik fe'llari aniqlik nisbatiga tegishli degan fikr kelib chiqadi (А.А.Потебня, 1958, т.1, с.114-115; Русская грамматика, 1980, е.1, с. 447-448; А.И.Смирницкий, 1975, с.216-217; Современный русский язык... 1964, с.216-217; С.Г.Татевосов, 2000, с.143-144; Л.В.Щерба, 1957, с.90-91; Лингвосинергетика...2000, с.93-94).

Xuddi shu holatni ingliz tilidagi –self qo'shimchasi bilan kelgan olmoshlarga nisbatan ham qo'llash o'rinnidir (“to dress oneself”, “to wash oneself”) va hokazo.

–self qo'shimchasi bilan kelgan olmoshlarning analitik shakli yo'q. Gapda bu olmoshlar vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. Vositali to'ldiruvchi vazifasida juda kam hollarda uchraydi (M.Aronoff, 1976, с.117-119; Ih.Becker, 1992, с.30-32; 1993, с.20-22; H.Bochner, 1993, с.94-96; G.E.Booij, 1993, с.27-29; J.I.Bybee, 1988, с.119-121; W.Croft, 1991, с.23-24).

Ingliz tilida o'zlik olmoshlarining ishlatilishi rus tilidagi –ся (-сь) postfiksining qo'llanilish doirasini qamrab ololmaydi (В.В.Виноградов, 1972, с.514-515; Грамматика русского языка... т.1, 1952, с. 444-445).

Ish-harakatning shaxsga qaytish ma'nosida kelgan o'zlik fe'llarining:

rus. «мыться»- ingl. «wash oneself»;
«одеваться» - “dress oneself”.

va sub'yektning ichki holatini ifodalashda umumo'zlik ma'nosida kelgan o'zlik fe'llarining qandaydir darajada bir-biriga mos tushish holatlari kuzatiladi:

rus. «беспокоиться», «тревожиться», - ingl. «concern», «worry»
«интересоваться» oneself», «interest oneself».

Ammo har ikkala holatda ham ingliz tilida o'zlik olmoshlarining tushib qolish hollari ko'p uchraydi:

«He always washed in cold water» (Hornby).

«He dresses in tight, somber suits...» (Sommerfield).

«I don't worry», he said... (Hemingway).

Ingliz tilida o'zlik olmoshlari bilan ishlatiladigan fe'llar orasida rus tilidagi birgalik-o'zlik ma'nosida («ссориться», «целоваться», «обниматься»), aktiv ob'yeksiz ma'nosidagi («собака кусается») va shaxssiz ma'nosidagi («не спиться», «не сидиться») fe'llarga muqobillari yo'q (Грамматика современного русского литературного языка... 1970, с. 616-618).

3.Zamon kategoriasi

Barcha hindovrupa tillarida ob'yektiv zamonning trixotomik bo'linishi (hozirgi, o'tgan va kelasi zamonga) o'z ifodasini grammatik zamon kategoriyasi shakllarida topadi (М.Н.Лапшина, 1998, с.140-141; Р.З.Мурясов, 2000, с.43; С.Г.Татевосов, 2000, с.146; А.И.Фалилеев, 2000, с. 145; А.В.Циммерлинг, 2000, с.118-119). Fe'l bajargan ish-harakatning real vaqtga, ya'ni hozirgi, o'tgan yoki kelasi zamonga munosabatini ifodalashi zamon kategoriyasi deyiladi (Грамматика современного русского литературного языка...1970, с.356). Jumladan ingliz va rus tillarida ham hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlar farqlanadi (Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, с.64-65; Г.Н.Воронцова, 1960, с.81-82; В.И.Жигadlo, И.П.Иванова, Л.Л.Иофик, 1965, с.117-118; А.И.Смирницкий, 1959, с.120-121).

Hozirgi zamon

Hozirgi zamon harakat yoki holatning hozirgi real vaqt bilan mos tushgan grammatik ma'no sifatida qaralsa-da (А.И.Смирницкий, 1975, с.147; R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Starvik, 1973, с.447-448), uning ishlatilish diapazoni anchagina keng (N.M.Rayevskaya, 1976, с.246-247).

Taqqoslanayotgan ingliz va rus tillarida hozirgi zamon shakllari «nutq momentida sodir bo'layotgan ish-harakatni» (ingl. «He is writing a letter», rus. «Он пишет письмо»), ma'lum bir davr hamda nutq momentida amalga oshadigan ish-harakatni (rus. «Он сейчас отдыхает вКрыму», ingl. «Now he is having a rest in the Crimea»), har doim, muntazam sodir bo'ladigan ish-harakatni (rus. «Ежегодно он проводит отпуск в деревне», ingl. «Every year he spends his leave in the country») ifodalaydi.

Ingliz va rus tillarida hozirgi zamon ekstratemporal tarzda (H.Sweet, 1995, с.102-103), ya'ni har doim sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Taqqoslaymiz:

- рус. «Земля вращается вокруг Солнца»

- ingl. «The earth rotates round the sun».

Taqqoslanayotgan tillar uchun bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni tasvirlashda jonlilik va rang-bararnlik xususiyatlarini beruvchi muhim stilistik vosita hisoblangan hozirgi zamon ma'nosining o'tgan zamonga o'tish holati xarakterlidir. Taqqoslaymiz:

«Шум в зале усилился. Председатель предостерегающе поднял руку. Не следует перебивать, пусть господин Нансен говорит...Нансен стоит, опершись руками о край трибуны» (Кублицкий).

“You're a pretty mysterious sort of boys”, Hogan said.

“Hello, Danny”, John says.

“Hello, Danny”, Morgan says and shakes hands (Hemingway).

Hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma'nosini ham ifodalashi mumkin. Taqqoslaymiz:

«Я уезжаю сегодня вечером» - «I'm leaving tonight» (Abrahams).

Hozirgi zamonning ishlatilishi bo'yicha taqqoslanayotgan tillarga xos bo'lgan xususiyatlardan quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Ingliz tilida hozirgi zamon perfekt shakli o'tgan zamonda sodir bo'lgan, lekin hatijasi hozir bilan bog'liq bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi:

«No, she has gone to the theatre» (Dreiser).

«Нет, она ушла в театр».

2. Payt va shart ergash gaplarda kelasi zamon ma'nosini ifodalash uchun hozirgi zamon shakli ishlatilishi ingliz tili uchun xos xususiyat hisoblanadi. Masalan:

“I'll sling them outside when I go to bed” (Cronin).

3. Rus tilida o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatning hozirgi zamon shakli orqali berilishi rus tili uchun norma (me'yor) hisoblanadi (odatda to'ldiruvchi ergash gaplarda). Masalan:

«Он не был убежден, что поступает разумно» (Кожевников)

Shunday holatni ingliz tilida ham kuzatish mumkin. Lekin u faqat badiiy asar qahramonlari nutqida uchraydi. Masalan:

«I didn't say that. I just meant I can change a wheel» (Barstow).

Publitsistikada ham xuddi shunday holat uchraydi. Masalan:

«The makers of the film stressed that the production does not advocate terrorism, to which they are completely opposed» (Fjrim, Wash., 2001, V.39, №4, p.21).

O'tgan zamon

Zamonlar ichida semantik jihatdan aniqroq ajralib turadigan o'tgan zamon hisoblanadi (Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973б с.272-273; А.В.Бондарко, 1998, с.20-21; В.В.Виноградов, 1972, с.281-282; Г.Н.Воронцова, 1960, с.241-243; J.L.Bybee, 1988, с.130-131; Duden, 1998, с.414-416). U o'tgan zamon bilan bog'liq ish-harakatni, ya'ni nutq momentigacha tugagan ish-harakatni ifodalaydi (A.Lamprecht, 1972, с.190-192; R.B.Long, 1961, с.320-321; J.van Marle, 1990, с.269-270).

Taqqoslanayotgan tillarda fe'llarning tus ma'nosi o'tgan zamon shakllarining o'z ma'nosidan kelib chiqadi (В.Д.Аракин, 1979б с.114-115; W.Mayerthaler, 1987, с.40-42).

Ingliz tilida tus ma'nosiga korrelyatsiya kategoriyasi ma'nosi, ya'ni vaqtning o'zaro bog'liqlik kategoriyasi ma'nosi qo'shiladi (W.U.Wurzel, 1987, с.71-72; N.M.Rayevskaya, 1976, с.247-248).

Rus tili grammatikasi (1970) mualliflari rus tilida o'tgan zamonning uchta shaklini farqlashdilar: imperfekt (o'tgan zamonda davom etib turgan, lekin tugallanmagan ish-harakat), perfekt (o'tgan zamonda tugallangan, lekin hozirgi zamon bilan umuman aloqasi bo'lmagan ish-harakat) va aoristik (o'tgan zamonda sodir bo'lgan, lekin nutq momenti bilan bog'liq bo'lgan ish-harakat).

Ingliz tili o'tgan zamonida yuqorida sanalgan shakllarning uchchalasi ham mavjud, lekin perfekt shakli unchalik xos emas (A.Lamprecht, 1972, с.181-182; R.B.Long, с.322-323). Ushbu shakl hozirgi zamon perfekt va hozirgi oddiy zamon shakllari orqali ifodalanadi. Masalan:

“I am Nisus Gallanos. I have come from Sirnos which was destroyed” (Alridge) va “My name is Angus Burke. I came up from Candia” (ib).

Semantik jihatdan aniq bo'lgan o'tgan zamon uchun transpozitsiya xos emas. Lekin rus tilida uchrashi mumkin. Masalan: “Я пошёл” (yaqin kelajakda amalga oshadigan ish-harakatni ifodalaydi); «Если завтра не будет ответа, все пропало».

Ingliz tilida bunday transpozitsiya holati uchramaydi (M.Aronoff, 1976, с.24-25; Th.Becker, 1992, с.30-31; 1993, с.20-21; H.Bochner, 1993, с.100-101).

Ingliz tilida o'tgan zamon perfekt shaklining ishlatilishi haqida gapirib o'tadigan bo'lsak, bu shakl o'tgan zamonda biror bir ish-harakatdan oldin bajarilgan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan:

«They told how they had come up the Inkas» (J.Alridge).

Kelasi zamon

Kelasi zamon kelajak bilan bog'liq bo'lgan ish-harakatni, ya'ni nutq momentidan keyin sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi (G.E.Booij, 1993, с.29-30; J.L.Bybee, 1988, с.137-138; A.Lamprecht, 1972, с.203; R.B.Long, 1961, с.304-305).

Ingliz tilida kelasi zamon analitik usul bilan (**shall** va **will** ko'makchi fe'llarining mustaqil fe'lning infinitiv shakliga qo'shilishi orqali), rus tilida esa ham analitik ham sintetik usul bilan yasaladi. Rus tilida tugallangan (совершенный) viddagi fe'llargina o'zlarining kelasi zamon shaklini sintetik usul bilan yasaydi (Грамматика русского языка... 1952б т.1, с.520-521).

Tugallanmagan (несовершенный) viddagi fe'llar o'zlarining kelasi zamon shaklini “быть” ko'makchi fe'li bilan mustaqil fe'lning infinitiv shaklini qo'shish orqali yasaydi («я буду писать», «я буду читать» va hokazo).

Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda o'tgan kelasi zamon shaklining mavjudligidir (И.К.Иртенъева, 1969, с.48-49; В.Д.Каушанская, Р.Л.Ковнер, 1959, с.94-95). Bu shaklni izohlashda biz o'tgan zamon nuqtai nazaridan kelajakda sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydigan kelasi zamon shakllarini nazarda tutgan olimlar fikriga qo'shilamiz (Б.А.Ильиш, 1971, с.88; К.А.Качалова, 1964, с.117-118; М.Н.Лапшина, 1998, с.80-81; Н.Sweet, 1955, с.314-315).

Rus tilida esa bunday hollarda nisbiy ma'nodagi kelasi zamon uchraydi. Taqqoslaymiz: "He hoped she would be all right"(Wain) va "Я надеялся, что с нею все будет хорошо".

Rus tilida kelasi zamon diapazoni ingliz tilidagiga nisbatan kengroq. Masalan, ingliz tiliga kelasi zamondan umuman o'tgan zamonga o'tish (transpozitsiya) xususiyati xos emas. Masalan, "Бежал, бежал, да как прыгнет".

Rus tilida kelasi zamon shakli hozirgi zamon ma'nosini ifodalash uchun ingliz tiliga nisbatan ko'proq ishlatiladi. Rus tilida kelasi zamon shaklidagi umumlashgan ma'no ingliz tilida hozirgi zamonga to'g'ri keladi. Taqqoslaymiz: рус. «Не разберешь, сколько ему лет» - ingl. «You never know how old he is».

Ingliz tilining kelasi zamon shakli rus tilidagidek hozirgi zamonga tegishli bo'lgan, masalan, rus. «Буря мглою небо кроет, вихри снежные крутя. То, как зверь, она завоет. То заплачет, как дитя» (А.Пушкин) va o'tgan zamonga tegishli bo'lgan, masalan, rus. «Он и к Коваленку ходил так же, как и к нам. Придёт к нему, сидит и молчит» (А.Чехов) kabi takrorlanib turadigan ish-harakatni ifodalamaydi.

4. Mayl kategoriyasi

Mayl kategoriyasi – bu grammatik kategoriya bo'lib, «u ish-harakatning so'zlovchi nazarda tutgan voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalaydi» (В.В.Виноградов, 1972, с.457).

Rus tilida fe'l mayllari uchta: aniqlik, buyruq va istak mayllari. Ingliz tilida mayl kategoriyasi eng munozarali fe'l kategoriyalaridan hisoblanadi (В.Д.Аракин, 1979, с.114-115; Л.С.Бархударов, 1975, с.120-121; Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, с.240-241; А.Lamprecht, 1972, с.117-119; J.van Marle, 1990, с.270).

Rus tilida mayl turlari borasida grammatikachilar o'rtasida har xil fikrlar mavjud (Г.Н.Воронцова, 1960, с.290-291; И.К.Иртенъева, 1969, с.100-102; В.Д.Каушанская, Р.Д.Ковнер, 1959, с.248-249; К.А.Качалова, 1964, с.404-405; W.Mayerthaler, 1987, с.40-41; R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Starvik, 1973, с.502-504).

Biz ingliz tilida mayl turlarini uchga bo'ladigan olimlar fikriga qo'shilamiz (Б.А.Ильиш, 1971, с.110; Т.М.Новицкая, Н.Д.Кучин, 1963, с.250-251; А.И.Смирницкий, 1959, с.279-281; Н.Sweet, 1955, с.440-441; Th.Vennemann, 1977, с.620-622).

Aniqlik (xabar) mayli

Aniqlik mayli fe'l anglatgan ish-harakatning bajarilishi, ijro etilishi haqida xabar beradi. Taqqoslanayotgan tillarda aniqlik nisbatida aytarli darajada farqlar yo'q.

Buyruq – istak mayli

Buyruq – istak mayli ish-harakanni bajarishga undash, iltimos qilish, talab qilish, buyurish ma'nolarini anglatadi.

Rus tilida so'zlovchining istagini bildirish ikkinchi va uchunchu shaxs birlik va ko'plikda analitik va sintetik usullar yordamida hamda birgalik ma'nosidagi ish-harakat imperativ shakllar yordamida beriladi. Taqqoslaymiz: 2 shaxs birlik – «бери»; 2-shaxs ko'plik – «берите»; 3 shaxs birlik – «пусть (пускай) берёт, возьмёт»; 3-shaxs ko'plik – «пусть (пускай) берут, возьмут»; birgalik ma'nosidagi ish-harakatni ifodalaydigan imperativ shakllar – «берём».

Ingliz tilida buyruq – istak mayli bitta shaklga ega: "come!", "go!" va hokazo. Bu maylning inkor va emfatik variantlari ko'makchi hamda kuchaytiruvchi **do** fe'li yordamida beriladi: "do not (don't) come!", "Do come!".

"Let him go", "let me enter" birikmalari erkin sintaktik birikmalari hisolanib, fe'l paradifmasiga kirmaydi (Б.А.Ильиш, 1971, с.110; W.U.Wurzel, 1987, с.81-82).

Ingliz tiliga qaraganda rus tilida imperativning ma'no hajmi kengroq. Bu yerda u bog'lovchisiz kelgan shart ergash gap shart maylining ekkivalenti sifatida qo'llanilgan. Masalan: «Не болит у меня голова (я бы пошёл на лекцию)».

Buyruq-istak maylining transpozitsiyasi kuzatilishi mumkin (odatda “да” va “o‘tgan zamonda kutilmagan ish-harakatni ifodalaydigan ” ma’noning birikuvida). Masalan: “Она возьми да и крикни”.

Ingliz tilida bunday hodisalar kuzatilmaydi (Qarang: Б.С.Хаймович, Б.И.Роговская, 1967, с.137-138; М.Аronoff, 1976, с.26-27; Th.Becker, 1993, с.14-15; Н.Bochner, 1993, с.91-92; G.E.Boij, 1993, с.30-31; J.L.Bybee, 1988, с.121-122).

Shart mayli

Shart mayli ish-harakatning bajarilishi uchun shart, istalgan, faraz qilingan harakatni bildiradi.

Rus tilida shart mayli analitik usul bilan yasaladi. U «бы» yuklamasi hamda mustaqil fe’lning o‘tgan zamon shakli qo‘shilishidan yasaladi: “писал бы”. «бы» yuklamasi ergashtiruvchi bog‘lovchi bilan birlashib, hatto uning tarkibiga ham kirishi mumkin: “если бы он знал, чтобы он пришёл”.

Ingliz tilida shart mayli paradigmasi birmuncha kengroq. Masalan, to go fe’li kontekstga bog‘liq holda shart maylida quyidagi shakllarga ega bo‘lishi mumkin: “go”, “were going”, “should be going”, “should have gone”, “would go”, “would be going”, “would have gone”.

Taqqoslanayotgan tillarda shart maylining tipologik o‘xshash belgilari ularning asosan bir xil tipdagi garlarda qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi, xususan:

- ergashgan qo‘shma gaplarda, ayniqsa,

1) istak, tavsiya, talab, buyruq va qo‘rqish ma’nolarini ifodalab kelgan to‘ldiruvchi ergash gaplarda;

2) to‘ldiruvchi ergash gap strukturasiда ???ifodalangan ma’nolar bilan kelgan aniqlovchi ergash gaplarda;

3) ???zarur, amalga oshirib bo‘lmaydigan ish-harakat ifodalangan ega ergash gaplarda;

4) maqsad ergash gaplarda;

5) to‘siqsiz ergash gaplarda.

Taqqoslaymiz, masalan:

1) «He wished the blankness would come» (Abrahams). «Он был влюблён в Каюткина и хотел, чтобы все были влюблены в него» (Фадеев). “Nevertheless, she insisted that they should leave”(P.Johnson). “Тем не менее, она настаивала, чтобы они ушли”.

2) «Mr.Frannery repeated the demand that Des Warrer and Eric Tomlinson should be released by Christmas” (forum,Wash., 2001, v.39, №4, p.24). – “Сашко сделал знак, чтобы Катя легла, а сам пошёл вдоль проволоки” (Фадеев).

3) “...It was imperative that dinner should be announced as soon as possible”(Priestley). «Надо, чтобы карточки подземные были» (Зыбас).

4) “He hung his head forward so that the blood should not drop in his clothes”(Abrahams). «I clutched tight my pocket...lest it be stolen from me» (Harsey). «Чтобы старшее поколение не могло оказывать влияния на младшее, их содержали отдельно...» (Фадеев).

5) “It’s like we’re living in a dream, waiting for things to get back to normal, whatever this might be”(Barstow). - “Молодая гвардия будет рассказывать в своих листовках всю правду, какой бы она горькой не была для России” (Фадеев).

Shart mayli hohish-istak yoki muammoli holatni ifodalagan mustaqil gaplarda ham ishlatiladi:

«I’d like to discuss my position», I said (Snow). – «Я бы хотел забыться и уснуть» (Лермонтов).

Taqqoslanayotgan tillarda asosiy farqlar shundan iboratki, rus tilida shart mayli ingliz tilidagi «as if», «as though» bog‘lovchilari bilan kelgan ega, kesim va chog‘ishtirish-o‘xshatish kabi ergash gaplarida nisbatan kam uchraydi. Taqqoslaymiz, masalan: «I could leave, as though it were an ordinary holiday» (Snow). «А на другой день Сергей Левашов навсегда ушёл из её памяти, как если бы его и не было» (Фадеев).

Ingliz tilidagi «as», «as though» bog‘lovchilariga rus tilidagi shart maylini yasamaydigan «словно», «(как) будто» bog‘lovchilari to‘g‘ri keladi: “I’m very strong, L.S.”, he told me, as though it were a consolation” (Snow).

“А-а, вот то-то и оно!- воскликнул он, будто кто-то возражал ему” (Фадеев). – «На пухлом лице Дени Бабина облегчение, словно он переполз через страшную пропасть...» (Тендряков).

Bundan tashqari rus tilida shart mayli ma’lum turdagi ergash gaplarda ishlatilsa, (В.В.Виноградов, 1972, с.190-191; Грамматика русского языка...1952, с.340-341; А.А.Потебня, 1958, с.414-415), ingliz tilida esa turli gaplarda ishlatilishi kuzatiladi (S.Fagan, 1992, с.241-242; M.Fludernik, 1993, с.84-85; J.van

Marle, 1990, c.270-271; J.Rijkhoff, 1992, c.322-323; K.A.Качалова, 1964, c.311-312). Masalan, tavsia, buyruq, talab va hokazo ma'nosi bilan kelgan to'ldiruvchi ergash gaplarda va "as if", "as though" bog'lovchilari bilan kelgan ergash gaplar uchun asosan shart mayli norma hisoblansa-da, ko'pincha biz ikkinchisida aniqlik mayli ishlatilgan holatlarni kuzatamiz:

"If these words to have any meaning, then Mr.Wilson speak and demand that the bombing stops" (Forum, Wash., 2001, v.40, №5, p.32).

"MPs should be pressed to urge that the government takes independent action for peace" (Forum, Wash., 2001, v.41, №2, p.12).

"You look as if you've seen a ghost" (Gordon).

"He said it as though he was asking me for support" (Snow).

Va aksincha, so, (so) that, so as, in order that bog'lovchilari bilan kelgan maqsad ergash gaplarda va bog'lovchi olmoshlar hamda ravishlar bilan keladigan to'siqsiz ergash gaplarda aniqlik maylining ishlatilishi norma hisoblanadi. Nazarimizda, shart maylining eskirgan shaklining ishlatilishi bu yerda arxaizm sifatida qabul qilinadi:

"Perhaps I should make her hate me so that she'll be glad to see me go" (Barstow). "I wish she'd look at me so I might guess what she's thinking" (Barstow).

"But whatever it's I'm on your side" (Braine).

"The Sanscrit language, whatever be its antiquity, is of a wonderful structure..." (D.Crystal).

5. Shaxs va son kategoriyasi

Shaxs – bu fe'ning grammatik kategoriyasi bo'lib, u fe'l anglatgan ish-harakatning bajaruvchiga tegishlilikini bildiradi (Грамматика современного русского литературного языка...1970, c.382).

Ish-harakat bajaruvchisi so'zlovchi, uning hamsuhbati yoki ushbu muloqotda qatnashmagan uchunchi shaxs bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra grammatik uchta shaxs farqlanadi: birinchi shaxs, ikkinchi shaxs, uchunchu shaxs.

Ingliz tilida shaxs kategoriyasining morfologik usul bilan ifoda etilishi rus tilidagidek yaxshi rivojlanmagan. U faqatgina hozirgi zamon III shaxs birlikda aniq shaklan o'z ifodasini topgan xolos: (he) says, (he) speaks va hokazo. O'tgan zamonda bu kategoriya o'z shaklini umuman yo'qotgan. Kelasi zamonda esa I shaxs uchun **shall** ko'makchi fe'li va qolgan shaxslar esa **will** ko'makchi fe'lining ishlatilishi shaxslar o'rtasidagi farqlarni ifodalaydi. Lekin bu farqlar hozirgi paytda asta-sekinlik bilan yo'qolib boryapti. Birinchidan, **will** fe'lida **shall** fe'lini siqib chiqarishga moyillik mavjud, ikkinchidan esa og'zaki nutqda ko'makchi fe'llar o'rtasidagi farqni ifodalamaydigan ega bilan qo'llaniladigan 'll qisqartmasi ko'p ishlatilmoqda. Masalan: "The window'll be ten shilling", she said (Wain).

Shaxs kategoriyasining shaklan boshqa fe'llardan farqli tomoni - hozirgi zamon I va III shaxs birlik va ko'plikda o'zining "am" va "is" suppletiv shakllariga ega bo'lgan "to be" fe'li shakllaridir. O'tgan zamonda bu fe'l qisman I va III shaxs birlikda "was" shakli bilan beriladi. Shaxs kategoriyasining ko'plik shakli ifodalanmagan.

Rus tilida shaxs kategoriyasi fe'ning hozirgi va o'tgan zamon shakllarida ifodalanadi.

Ingliz tilida son kategoriyasi fe'llarda aniq ifodalanmagan. Bu kategoriyani "to be" fe'lining hozirgi ba o'tgan zamondagi shakllari ifodalaydi (birlikda "is", ko'plikda "are", "were"). -(es) s morfemasi hozirgi zamon III shaxs birlik shaklini yasaydi: speaks, writes.

Rus tilida son kategoriyasi hamma zamonlarda barcha fe'llarga tegishlidir.

Tayanch so'z va iboralar

tus, nisbat, zamon, mayl, shaxs, son, tenatik unli, aniqlik nisbati, majhullik nisati, hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon, aniqlik mayli, buyruq-istak mayli, shart mayli.

Savol va topshiriqlar

1. Taqqoslanayotgan tillarda fe'llarning qanaqa grammatik kategoriyalari mavjud?
2. Ingliz va rus tillarida fe'ning grammatik kategoriyalari o'rtasidagi muhim farqlar nimadan iborat?
3. Ingliz tilida shart maylining rus tili shart mayliga nisbatan xos xususiyatlari nimadan iborat?
4. Rus tili o'zlik fe'llari bilan ingliz tilidagi –self qo'shimchasi bilan ishlatiladigan olmoshlar o'rtasida qanaqa ahamiyatli farqlar mavjud?
5. Hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarning qanaqa asosiy grammatik ma'nolari mavjud?

6. Taqqoslanayotgan tillarda qaysi hollarda bir zamondan ikkinchi zamonga transpozitsiya hodisa kuzatilishi mumkin.
7. Taqqoslanayotgan tillarda hozirgi va kelasi zamon ma'nolarida qanaqa asosiy farqlar uchraydi?
8. Taqqoslanayotgan tillarda maylning necha turi farqlanadi?
9. Taqqoslanayotgan tillarda maylning grammatik ma'nolari qanday namoyon bo'ladi?
10. Taqqoslanayotgan tillarda mayl kategoriyasining qo'llanilishida asosiy farq va o'xshashliklar nimadan iborat?
11. Taqqoslanayotgan tillarda shaxs kategoriyasining morfologik usulda ifodalanishida asosiy farqlarni ayting.
12. Taqqoslanayotgan tillarda fe'llarda son kategoriyasining morfologik usul bilan ifodalanishida qanaqa farqlar bor?

Ma'ruza 11

Sintaktik tipologiya: Sintaktik aloqalar turlari

Raja

1. Teng aloqa.
2. Tobe aloqa.
3. Sintaktik aloqalar turlarining ishlatilish chastotasi.

So'zlar o'rtasida sintaktik aloqaning asosiy ikki turi – teng aloqa va tobe aloqa mavjud (B.D.Аракин, 1979, с.140-141; Ш.Бадди, 1955, с.322-323; Л.С.Бархударов, 1975, с.104-105; Th.Becker, 1993, p.24-25; W.Croft, 1991, p.31-32). Teng aloqada so'zlar o'rtasida tobelik bo'lmaydi, tobe aloqada esa so'zlar ortasida tobe-hokimlik, biri ikkinchisiga buysunadigan unsurlar munosabati ifodalanadi. Masalan: ingl. Cap and coat, pushed and planted, the woman and the children, old and worn, looked and smiled; rus. крепок и строен, груб и неприятен, спокойный и бесстрастный, богатая и весёлая, благополучие и процветание (Л.М.Савосина, 2000, с.67). Bu birikmalarda teng huquqli, biri ikkinchisiga buysunmaydigan unsurlar munosabati ifodalangandir. Ushbu tipdagi so'z birikmalarda bir so'zdan ikkinchi so'zga savol qo'yish, unda bosh, hokim so'zni aniqlash mumkin emas. Tobelik faqat semantik sathda namoyon bo'ladi. (So'zlar o'rtasidagi moslashmaslik holatlarini quyidagi birikmalarda kuzatish mumkin: ingl. a student and merrily, a cow and a song, cap and jump, old and looked; rus. весёлая и прыгать).

Jumlada bir so'zning ikkinchisiga buysinishi, sintaktik tengsizlik munosabatlari (Duden, 1998, с.111-112) tobe aloqada o'z ifodasini topgan: ingl. to sing (how?) merrily, to think (of what?) of the danger; иди (как?) пешком, надеяться (на что?) на лучшее.

Teng aloqa ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin (S.Fagan, 1992, с.271-272; K.Koener, 1999, с.24-25). Yopiq aloqada faqatgina ikkita so'z aloqaga kirishadi: ingl. either James or I, the students as well as teacher, not only the flowers but even the grass; rus. не читал, а писал, как взрослые, так и дети.

Ochiq teng aloqada aloqaga kirishayotgan so'zlarning soni chegaralanmagan bo'ladi: ...Could concentrate immediate attention on the donkeys and tumbling bells, the priests, patios, beggars, children, crowing cocks, sombreros, cactus hedges, old white villages, goats, olive trees, greening plains, singing birds in tiny cages, water-sellers, sunsets, melons, mules, great churches, pictures and swimming grey-brown mountains of the fascinating land (Galsworthy) // Мелкают мимо будки, бабы, мальчишки, лавки, фонари, дворцы, сады, монастыри, бухарцы, сани, огороды, купцы, лачужки, мужики, бульвары, башни, казаки, аптеки, магазины, люди, балконы, львы на воротах и стаи галок на крестах (А.Пушкин).

Teng aloqada so'zlar bir-birlari bilan birlashtiruvchi, ajratuvchi va zidlov bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: ingl. and, not only...but also, neither...nor, as well as; rus. или то...то, не то...не то, либо...либо, ли...ли, то ли...то ли; ingl. but, yet, still; rus. но, а, не...педагогика фани (Современный русский язык...1964, с.286-287; Б.С.Хаймович, Б.И.Роговская, 1967, с.170-171; М.Аronoff, 1976, с.27-28; М.Флудерник, 1993, с. 85-86).

Ingliz va rus tillarida tobe aloqa moslashuv, boshqaruv va bitishuv kabi turlari orqali namoyon bo'ladi (А.И.Смирницкий, 1957, с.140-142). Moslashuv (agreement) deganda tobe so'zning hokim so'zga shaklan tobe bo'lishi nazarda tutiladi: ingl. this book, three students; rus. белое пятно, белый хлеб, белая ночь (Л.С.Бархударов, Д.А.Штелинг, 1973, с.301-302; А.М.Бушуй, 1973, с.92-93; Б.А.Ильиш, 1948, с.202-203).

Ingliz tilida aloqaning bu turi ko'p qo'llanilmaydi. Chunki ingliz tilida rod kategoriyasi mavjud emas, son kategoriyasi va kelishiklar sistemasi esa unchalik rivojlanmagan (Б.А.Ильиш, 1971, с.117-118; И.К.Иртеньева, 1969, с.108-109; R.Quirk, et al, 1973, с.808-810; J.Rijkhoff, 1992, с.292-293). Ingliz tilida moslashuvni biz quyidagi hollarda kuzatamiz:

- a) ko'rsatish olmoshi va ot o'rtasida: this book – these books, that student – those students;
- b) noaniq artikl va ot o'rtasida (ko'plikda noaniq artikl ishlatilmaydi): a pen – pens, a pensil – pensils;
- v) ega va kesim o'rtasida (shaxs va sonda): I go, he (she, it) goes, we (you, they) go;
- g) bosh va ergash gaplardagi fe'l shakllari o'rtasida: Gabriel asked who was playing up there (Maugham). He asked if she heard him (Gawrence).

Rus tilida bosh va ergash so'z rod, son va kelishikda moslashadilar: Горымика я, горымика неисходная (И.Тургенев). Пожалей ты меня, сироту несчастную (А.Чехов). Услыша суд такой, мой

бедный Соловей вспорхнул и полетел за тридевять земель (И.Крылов) (Qarang: Ю.Н.Караулов, 1999, с.104-105).

Ingliz tilida moslashuv rus tilidagidek soʻz formalarining moslashuviga emas, balki semantik jihatdan yuzaga keladi. Natijada soʻzlar oʻrtasidagi aloqa koʻproq bitishuv xarakteriga ega boʻladi:

Wonderful story	большой стол
Nice story	большая земля
Interesting story	большое озеро

Chap ustundagi sifatlar oʻzgarmayapti, chunki ular otga semantik sathda tobelashyapti (K.A.Качалова, 1964, с.402-403; W.Croft, с.29-30).

Taqqoslanayotgan tillar uchun umumiy belgilardan biri soʻzlarda sintaktik aloqalar semantik bogʻlanishga asoslanganligi hisoblanadi (Ю.С.Степанов, 2002, с.10-11). Biz ingliz tilida great man, big house; rus tilida дубовая роща, весёлый человек deyishimiz mumkin. Lekin ingliz tilida great ink, cheese iron; rus tilida сосновый дуб, масляное эхо soʻz birikmalari umuman mazmunan toʻgʻri kelmaydi (С.Д.Кацнельсон, 1972, с.140-141).

Taqqoslanayotgan tillarda toʻliq boʻlmagan moslashuv ham kuzatiladi: ingl. The sheep were spread out roughly in the shape of a figure eight (Norris). Without me in between you would seem a different species (J.Golsworthy) // rus. боялась и не смогла есть и вставала обыкновенно из-за стола голодной (А.Чехов).

Tobe aloqaning keyingi turi boshqaruv (government) boʻlib, binda tobe soʻzning tanlanishi va shakli bosh soʻzning xususiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi: rus. любоваться видом, касаться этого вопроса; ингл. to take interest in smth. va hokazo.

Boshqaruv predlogsiz (rus. любоваться видом, ингл. to read smth.), predlogli (rus. братья за ум; ингл. to take care of, to be interest in) boʻlishi mumkin. Rus tilida kelishik qoʻshimchalari oʻzidan keyin tobe soʻz talab qiladi, yaʼni gapda soʻzlarning morfologik-sintaktik tobelanishi kuzatiladi.

Ingliz tilida boshqaruv предлогларнинг катнашиш ёки катнашмаслиги билан намоён булади: to watch smb, to look at smb, to see in smb, to see off smb, to go in for sports, to get up, to get on va hokazo (S.Fagan, 1992, с.251-252).

Boshqaruv aloqasida hokim soʻz oʻrnida koʻpincha ot (rus. интересы дела; ingl.. the reading of the books), sifat (rus. занятый чем-либо, кем-либо, уверенный в чём-либо, ком-либо, жестокий по отношению к кому-либо, чем-либо; ingl. busy in, certain of, cruel to, familiar to), feʼl (rus. просить о чем-либо, умереть от голода, страдать от чего-либо, работать над чем-либо; ingl.. to think of, to listen to, to succeed in, to work at) qoʻllanilishi mumkin (M.Fludernik, 1993, с.87-88).

Oʻtimli feʼllar semantik jihatdan tugallanmagan boʻlganligi sababli hamisha fikrning tugallanishini (completeness) talab qiladi: rus. читать (что?), ingl. visit (whom?) va hokazo. Shuning uchun ham boshqaruv orqali amalga oshiralayotgan soʻzlar oʻrtasidagi aloqalar (bu asosan oʻtimli feʼllar keltirib chiqaradigan aloqalar) kompletiv aloqalar deyiladi (J.A.Hawkins, 1990, с.257-259).

Soʻz (birikma) tanlash nafaqat til strukturasidan, balki soʻz semantikasiga ham bogʻliqligi quyidagi misollarda yaqqol namoyon boʻladi: rus. идти по улице, разбираться в чем-нибудь, прийти по вкусу, ухаживать за кем-нибудь, принимать во внимание, приходить в голову; ingl. I intend to come, I suggest that you should come, please show me the way, explain to me this rule, kind of (thoughtful) of you, anxious about his son's health, anxious for news, anxious to start va hokazo (A.Lamprecht, 1972, с.219-220).

Ingliz tilidagi to have a walk, to give a push, to pay attention, to say good-bye va rus tilidagi оказывать влияние, выполнять работу, проводить испытание, вести учёт va hokazo birikmalarda feʼl oʻz maʼnosini yoʻqotgan, asosiy maʼno otda mujassamlangan. Grammatik jihatdan asosiy unsur (feʼl) faqat shaklan tobe boʻlmagan unsurlarga ega (Л.Блумфильд, 1968, с.444-445).

Shunday qilib, feʼlli – obʼyektli birikmalarda kompletiv aloqalar yuzaga keladi, grammatik va semantik maʼlumotning qutblanishi sodir boʻladi (В.Д.Аракин, 1979, с.140-141; З.В.Беркетова, 2000, с.70-71).

Soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlarning bunday amalga oshish holatlarini kompletiv aloqaning boshqa turlarida ham koʻrish mumkin: кило хлеба, горсть зерна, мешок хлеба. (Кило, горсть, мешок – soʻzlari grammatik jihatdan mustaqil boʻlsa, хлеба, зерна – semantik jihatdan mustaqildir). Bunday holatni ingliz tilidagi five pounds of flour, a sack of corn, an ounce of silver birikmalarida kuzatish mumkin (Г.Н.Воронцова, 1960, с.300-302; R.B.Long, 1961, с.308-310).

Ingliz tilida eng ko‘p tarqalgan tobe sintaktik aloqaning biri – bitishuvdir (parataxis). Bitishuv shunday sintaktik aloqa turiki, unda so‘zlar ham tartib, ham mazmunan tobelanishi orqali bog‘lanadilar: ingl. to read well, to read aloud, to sing softly, to laugh merrily (J.van Marle, 1985, c.102-103).

Taqqoslanayotgan tillarda bitishuv aloqada tobe so‘z o‘rnida ravishlar, sifatlar (ingliz tili uchun), fe‘llar (infinitiv shaklida), ravishdosh, ya‘ni o‘zgarmas mustaqil so‘zlar kelishi mumkin: rus. читать бойко, готов служить, кофе по-варшавски; ингл. to read well, to write accurately, ready to answer, anxious to go va hokazo (J.van Marle, 1990, c.268-269).

Bitishuv aloqasida tobe so‘z o‘rnida turli so‘z turkumlari kelishi mumkin: ingl. time to go, first to come, very well, want to know, one to go, happy to know; rus. время идти, очень хорошо, хочу знать, петь весело.

Moslashuv, boshqaruv va bitishuv tobe sintaktik aloqa turlari ingliz va rus tillarida turli qo‘llanilish darajasiga ega. Har bir tilda tobe aloqa ifodalangan 1100 ta birikmaning tahlili natijasi rus tiliga moslashuv, ingliz tiliga esa ko‘proq boshqaruv va bitishuv xos ekanligini ko‘rsatdi. Rus tilida moslashuv aloqasining ko‘p ishlatilish holati bu tilda fleksiylarning rivojlanganligi bilan izohlanadi (W.Mayerthaler, 1987, c.26-27).

Jadval.. Sintaktik aloqa turlarining ishlatilish chastotasi miqdoriy nisbati

Aloqa turlari	Rus tili		Ingliz tili	
Moslashuv	660	60%	266	24%
Boshqaruv	300	27%	430	39%
Bitishuv	140	13%	404	37%

Shunday qilib, ingliz va rus tillari teng va tobe aloqalarning mavjudligi bilan xarakterlanadilar.

Taqqoslanayotgan tillarda moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqalari fleksiya, yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, intonatsiya kabi umumiy belgilar bilan ifodalansa-da, bu tillarda sintaktik aloqalar bir xil kechmaydi, ularning qo‘llanilishi har bir til qonunlari sistemasiga buysunadi. Misollarga murojaat qilamiz.

В рудничном дворе всё как обычно: кто стоял, ожидал напарника, чтоб идти к лаве, кто перематывал портянки, а кто просто отдыхал после трудового пути, прислонившись под креплением. Капало с кровли. Лампы мигали робкими морковного цвета огоньками (Т.Рыбас. Красный снег).

Nearly a year later, in the month of October, 18, London was startled by a crime of singular ferocity, and rendered all the more notable by the high position of the victim. The details were few and starthng (R.L.Stevenson. The Carew Murder Case).

Fleksiylarning ko‘p ishlatilish holatlari rus tilida uchraydi. 45 ta so‘z qatnashgan matnning 26 tasida fleksiylar qo‘llanilgan. Ingliz tilida esa 38 ta so‘z qatnashgan matnning atigi 3 tasida –ed, -s fleksiylari qo‘llanilgan.

So‘zlar o‘rtasidagi sintaktik aloqalar predloglar yordamida ham ifodalanadi. Keltirilgan misollarda rus tilida в, к, после, под, с, вблизи predloglari bo‘lsa, ingliz tilida esa bular in, of, by predloglaridir. Tahlil qilingan rus tili matnida flektiv so‘zlar va predloglar nisbati 26:6 ni tashkil etadi. Ingliz tilida esa bu nisbat 3:6 ni tashkil etadi. Tobe sintaktik aloqaning namoyon bo‘lishida ingliz tilida fleksiylarning kamligi so‘z tartibi, yordamchi va deytik so‘zlar, intonatsiya yordamida kompensasiya qilinadi (N.M.Rayevskaya, 1976, c.148-149; G.Scheurwegs, 1959, c.65-66; H.Sweet, 1955, c.317-318).

Tayanch so‘z va iboralar

sintaktik aloqalar, teng aloqa, tobe aloqa, ochiq aloqa, yopiq aloqa, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, kompletiv aloqa.

Savol va topshiriqlar

1. Ingliz va rus tillarida qanaqa sintaktik kategoriyalar mavjud?
2. Ingliz va rus tillariga teng va tobe sintaktik aloqalar xosmi? Taqqoslanayotgan tillarda sintaktik aloqalarning qanaqa farqli va o‘xshash tomonlari mavjud?
3. Mazkur tillarning qaysi birida moslashuv ko‘proq ishlatiladi? Misollar bilan tasdiqlab bering.

4. Ingliz va rus rillari uchun sintaktik aloqalarning ifodalanishida qaysi vositalar umumiy hisoblanadi? Ingliz tilida sintaktik aloqalarning ifodalanishida soʻz tartibi qanday oʻrinni egallaydi.
5. Ingliz tilida rivojlanmagan fleksiylar oʻrni nima bilan qoplanganadi?

Maʼruza 12

Sintaktik tipologiya: Gap

Reja

1. Gap tuzilishi.
2. Gapda soʻz tartibi.
3. Gap kommunikativ sathda.

